

ISSN 2010-703X

Ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-amaliy jurnal



# EKOLOGIYA

№2 [10], XABARNOMASI | SINCE 1995  
2024

ЭКОЛОГИЧЕСКИЙ  
ВЕСТНИК УЗБЕКИСТАНА

ECOLOGICAL HERALD  
OF UZBEKISTAN

5-IYUN  
BUTUNJAHON  
ATROF-MUHITNI  
MUHOFAZA  
QILISH KUNI

SAMARQAND FORUMI:  
EKOLOGIK MUAMMOLAR  
YECHIMINI TOPISH  
YO'LIDA MUHIM QADAM  
5-SAHIFA

MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI  
HAVO IFLOSLANISHIGA QARSHI  
KURASHDA KUCHLARNI  
BIRLASHTIRMOQDA:  
BIRINCHI OLIY DARAJADAGI  
SIYOSIY MULQOT BOSHLANDI  
11-SAHIFA

O'ZBEKİSTONLIK EKOLOGIYA  
SOHASIDAGI OLIMLAR  
JAHON MIQYOSIDA  
ETIROF ETILMOQDA  
26-SAHIFA

SAMARQAND FORUMI:  
EKOLOGIK MUAMMOLAR  
YECHIMINI TOPISH  
YO'LIDA MUHIM QADAM  
5-SAHIFA

MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI  
HAVO IFLOSLANISHIGA QARSHI  
KURASHDA KUCHLARNI  
BIRLASHTIRMOQDA:  
BIRINCHI OLIY DARAJADAGI  
SIYOSIY MULQOT BOSHLANDI  
11-SAHIFA

## TAHRIR HAY' ATI TARKIBI:

**Abduhakimov Aziz Abdukaxarovich** – O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri, kengash raisi

**Alimov Zikrilla Bobamuratovich** – Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti «Atmosfera havosini muhofaza qilish» laboratoriyasi mudiri, texnika fanlari doktori

**Allaberdiyev Rustamjon Xamrayevich** – Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Ekologiya fakulteti dekani, biologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Aminov Xamza Xusanovich** – Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti direktori o'rinnbosari, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor

**Arabov Saidqul Amirovich** – O'rmon xo'jaligi ilmiy-tadqiqot instituti direktori, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

**Axmedova Zaxro Raxmatovna** – O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Mikrobiologiya instituti "Tabiatni muhofaza qilish biotexnologiyalari" laboratoriyasi mudiri, biologiya fanlari doktori, professor

**Buriyev Salimjan Samedjanovich** – Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti direktorining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha o'rinnbosari, qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi

**Juliyev Muxiiddin Komilovich** – "TIQXMMI" MTU taliyi fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Karimov Farxod Isomiddinovich** – O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika instituti ilmiy ishlar bo'yicha direktor o'rinnbosari, biologiya fanlari doktori, katta ilmiy xodim

**Kazbekov Jusipbek Sdikbekovich** – O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri o'rinnbosari, texnika fanlari nomzodi

**Madrimov Rajabboy Masharipovich** – Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti «Yer resurslarini muhofaza qilish» laboratoriyasi mudiri, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

**Mirzayeva Adolat Usmonboyevna** – O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Zoologiya instituti Umumiy parazitologiya laboratoriyasi katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

**Murodov Shuxrat Odilovich** – Qarshi muxandislik-iqtisodiyot instituti professori, texnika fanlari doktori

**Muxsimov Nurillo Po'latovich** – O'rmon xo'jaligi ilmiy-tadqiqot instituti katta ilmiy xodimi, qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori

**Nishonov Bahriiddin Erkinovich** – Gidrometeorologiya ilmiy-tadqiqot instituti «Yer usti suvlari sifati tadqiqoti» laboratoriyasi mudiri, texnika fanlari nomzodi

**Radkevich Mariya Viktorovna** – "TIQXMMI" MTU Ekologiya va suv resurslarini boshqarish kafedrasи professori, texnika fanlari doktori

**Salixov Jasur Shavkatovich** – Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishi universiteti (Central Asian Green University) rektori, iqtisod fanlari doktori, dotsent

**Samiyev Luqmon Nayimovich** – Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy kotibi, texnika fanlari doktori

**Urinova Adolat Abdivasiyevna** – Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti «Bioxilmassillikni saqlash» laboratoriyasi mudiri, biologiya fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim

**Xamzayev Abdushukur Xudoykulovich** – O'zbekiston Ekologik partiyasi Markaziy Kengashi Ijroiya qo'mitasi raisi, qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

**Sherimbetov Xalilulla Satimovich** – O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi boshqarma boshlig'i, texnika fanlari nomzodi

**Erkaboyev Furqat Ilyasovich** – Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti "Suv resurslarini muhofaza qilish texnologiyalari" laboratoriyasi mudiri, texnika fanlari doktori

### Muassis:

O'zbekiston Respublikasi  
Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza  
qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi

### Tahririyat kengashi raisi:

**Abduxakimov Aziz Abdukaxarovich,**  
Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish  
va iqlim o'zgarishi vaziri

### Ilmiy muharrir:

**Pulatov Baxtiyor Alimovich,**

Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish  
texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti direktori,  
texnika fanlari doktori

### Mas`ul muharrir:

Mamirov Suyundik Maxammamatovich

### Dizayner:

Mamajonov Ulug'bek Rustam o'g'li

Jurnal har chorakda kamida  
bir marta chop etiladi.

Jurnal 1995-yildan chiqa boshlagan.

Nashr O'zbekiston Respublikasi  
Oliy attestatsiya komissiyasining  
ilmiy jurnallar ro'yxatiga kiritilgan.

O'zbekiston Respublikasi  
Prezidenti Administratsiyasi  
huzuridagi Axborot va ommaviy  
kommunikatsiyalar agentligi  
tomonidan 2021-yil 8-oktabrda  
0515-sonli guvohnoma bilan  
qayta ro'yxatga olingan.

Jurnalga qabul qilingan ilmiy maqolalar  
o'zlashtirilgan matnlarni aniqlaydigan  
"Antiplag.uz" tizimida tekshirilgan.

Obuna indeksi: 910

Bosmaxonaga topshirildi: 15.07.2024-yil  
Offset bosma usulida bosildi.  
Hajmi 11,6 bosma taboq.  
Bichimi 60x84 1/8. Buyurtma № 10.  
Adadi 450 nusxa.

«SMARTPACK PRINT» MCHJ QK  
bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: Toshkent shahri,  
Taraqqiyot ko'chasi, 2-uy.

# MUNDARIJA

- 03** Inson huuqqlari bo'yicha to'rtinchi an'anaviy Samarqand forumi ishtirotkchilariga
- 05** Samarqand forumi: ekologik muammolar yechimini topish yo'lida muhim qadam
- 07** O'zbekiston raisligida IHTga a'zo davlatlar turizmi yanada rivojlanishi ta'kidlandi
- 09** Mintaqaviy muloqot: Dushanbeda suv resurslarini tejash bo'yicha hamkorlikda amalga oshiriladigan sa'y-harakatlar muhokama qilindi
- 10** Avstriyada bo'lib o'tgan iqlim forumida Orol fojiasi oqibatlariga qarshi ko'rileyotgan chora-tadbirlar bo'yicha taqdimot o'tkazildi
- 11** Markaziy Osiyo davlatlari havo ifloslanishiga qarshi kurashda kuchlarni birlashtirmoqda: birinchi oliy darajadagi siyosiy muloqot boshlandi
- 13** Chiqindilarni boshqarish va suvni tozalashga yangi investitsiyalar jallb qilinadi
- 14** O'zbekistonda xavfli kimyoiy moddalarni oqilona boshqarishni ta'minlash loyihasi amalga oshirilmoqda
- 16** Zarafshon daryosi havzasida suv resurslarini barqaror boshqarish bo'yicha yangi loyiha ishga tushiriladi
- 17** O'zbekistonda ekotizimlarni tiklash va saqlash bo'yicha xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqlari yanada mustahkamlanmoqda
- 18** JBIC O'zbekistonda ekologik loyihalarni amalga oshirishni rejalashtirmoqda
- 19** Biologik xilma-xillikni saqlash bo'yicha O'zbekistonning yangi milliy maqsadlari muhokama qilindi
- 20** Markaziy Osiyodagi CLIENT II loyihasi natijalari Qozog'istonda taqdim etildi
- 21** Toshkentda iqlim bo'yicha ta'lim dasturi taqdimoti bo'lib o'tdi
- 22** O'zbekistonda ekologik vaziyatni baholash va prognoz qilish uchun yagona monitoring tizimi ishga tushiriladi
- 23** "Aral Sea Eco Marathon": Orol dengizi xalqaro e'tiborni tortmoqda
- 24** Ekologik barqarorlikni ta'minlashda mas'ullik va faoliyk zarur
- 26** O'zbekistonlik ekologiya sohasidagi olimlar jahon miqyosida e'tirof etilmoqda
- 27** Ekologiya vazirligida atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida xizmat ko'satgan xodimlar taqdirlandi
- 28** Ekologiya vaziri yoshlar bilan uchrashdi

- 29** BMTning iqlim o'zgarishi bo'yicha konvensiyasi doirasida yoshlар konferensiysi bo'lib o'tdi
- 30** Xalqaro yoshlар ekologik oromgohi
- 32** Toshkent viloyatida "O'rmon volontyorlari maktabi" eko-oromgohi tashkil etildi
- 33** «Saygachiylar» qo'riqxonasi – yo'qolib borayotgan hayvonlar turlari saqlab qolinadigan hudud

## ILMIY MAQOLALAR

- 34** **B.Alikhanov, B.Pulatov, L.Samiev.**  
Statistical analysis of vegetation indices of the Ugam Chatkal national park, Bostanliq district, during the post-soviet period (1991 – 2022) using Mann-Kendall test and sen's slope
- 41** **Z.Alimov, O.Ergashev.**  
Chemical compositions of PM2.5 and TSP in Tashkent
- 47** **R.Allayorov.**  
Janubi-g'arbiy Hisor tog' va tog'oldi landshaftlariga antropogen ta'sir
- 54** **Д.Мухаммадиева, Ш.Раббимкулова, Ф.Эркабаев, Д.Рахмоналиева.**  
Химическое восстановление ионов хрома и выделение его в виде оксида хрома (III) из промстоков
- 57** **M.Meyliyeva, S.Tursunova, E.Jumayeva, Z.Smanova.**  
Yer osti suvlarning azot birikmalari bilan ifloslanish omillari va nitrat ionlarining miqdoriy tahlili
- 63** **Sh.Baxronova, S.Xasanov.**  
Geoaxborot tizimlari va masofadan zondlashga asoslangan 2000-yildan 2024-yil oralig'ida chop qilingan tuproq eroziyasi tadqiqotlarining keng qamrovli adabiyot sharhi
- 77** **Ф.Юлдашев, Х.Юлдашева.**  
Эффективный метод утилизации пищевых бытовых отходов
- 79** **Ю.Шадиметов, Д.Айрапетов.**  
Социально-экологические проблемы Аральского кризиса
- 86** **L.Jalilov, O.Ibragimov.**  
G'o'za ildiz tizimiga mahalliy-ma'dan o'g'itlar va ekish usullarining ta'siri
- 92** **N.Bazarova.**  
Ta'lim va tarbiya jarayoni orqali talabalarda ekologik kompetentsiya va madaniyatni rivojlantirish

## EKOOLAM

- 96** **A.Mamasodiqov.**  
Nurota tog'i javohirlari
- 99** 1. Sayyoramiz aholisining 80 foizi iqlim o'zgarishiga qarshi yanada faolroq harakat qilish tarafdoi  
2. Global isish rekordi yangilandi
- 100** 3. Venesuela barcha muzliklarini yo'qotdi  
4. Pirenей silovsini yo'q bo'lib ketishdan saqlab qolindi



## INSON HUQUQLARI BO'YICHA TO'RTINCHI AN'ANAVIY SAMARQAND FORUMI ISHTIROKCHILARIGA

**Hurmatli Forum ishtirokchilari!**

**Xonimlar va janoblar!**

Avvalambor, "Ekologik tahidilar: o'zgarayotgan dunyoda inson huquqlarining istiqboli va barqaror yechimlarni izlash" mavzusidagi inson huquqlari bo'yicha to'rtinchi an'naviy Samarqand forumining barcha ishtirokchilari va mehmonlarini samimiy qutlayman.

Yurtimizda ilk bor 2018-yilda o'tkazilgan Inson huquqlari bo'yicha Osiyo forumi jahon amaliyotiga o'ziga xos "Samarqand ruhi"ni olib kirdi desak, hech mubolag'a bo'lmaydi. Shu tariqa inson huquqlari sohasidagi eng dolzarb muammolarga bag'ishlangan Samarqand forumlarini o'tkazish yaxshi an'ana tusini oldi.

Bugungi anjumanda Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning ixtisoslashgan tuzilmalari, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Yevropa Ittifoqi, Islom hamkorlik tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, Osiyoda hamkorlik va ishonch choralar bo'yicha kengash, Turkiy davlatlar Parlament Assambleyasi, shuningdek, taniqli xorijiy davlat va jamoat arboblari, inson huquqlari sohasidagi yetakchi ekspertlar ishtirok etayotgani ayniqsa ahamiyatlidir.

**Hurmatli anjuman qatnashchilari!**

Yaxshi ma'lumki, global iqlim o'zgarishi oqibatida sayyoramizda keskin ekologik vaziyat yuzaga keldi.

Ichimlik suvi taqchilligi, atrof-muhit ifloslanishi, tuproq yemirilishi, kuchli chang va qum bo'ronlari, bioxilma-xillikning yo'qolishi, qishloq xo'jaligi hosildorligining pasayishi kabi muammolar tobora avj olmoqda.

Barcha qit'alarda va mamlakatlarda bu jarayonlar ning salbiy ta'siri yanada kuchayib bormoqda. Ayniqsa, havo haroratining oshishi jahondagi o'rtacha ko'rsatichidan ikki barobar ko'p bo'lgan va Orol fojiasini boshidan kechirayotgan Markaziy Osiyo mintaqasida buning oqibatlari yaqqol sezilmoqda.

Ekologik inqiroz Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo'lidagi eng asosiy to'siq va tahdidga aylandi, global miqyosda qashshoqlik bilan bog'liq muammolar ko'paymoqda, insonning sog'liq, toza suv, oziq-ovqat va uy-joyga bo'lgan huquqlarini ta'minlash xavf ostida qolmoqda. Bundan avvalo, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlam, xususan, nogironligi bo'lgan shaxslar, keksalar, ayollar va bolalar jiddiy aziyat chekmoqda.

Albatta, iqlim o'zgarishi oqibatida inson huquqlariga yetkaziladigan zararni keskin kamaytirish uchun jahon mamlakatlari birgalikda samarali choralar ko'rishi kerak. Kelajak avlodlar taqdiri uchun barchamiz ulkan mas'uliyatni o'z zimmamizga oladigan vaqt keldi.

Parij bitimida ta'kidlanganidek, iqlim o'zgarishi qarshi choralar ko'rilib yozganida, davlatlar inson

huquqlarini hurmat qilishi, rag'batlantirishi va himoya qilishi, asosiy diqqat-e'tiborini mazkur sohadagi majburiyatlarini bajarishga qaratishlari lozim.

### Hurmatli mehmonlar!

Yangi O'zbekistonda iqlim o'zgarishi muammolari bilan kurashish barqaror rivojlanishni ta'minlashning eng muhim omiliga aylandi. Biz imkon qadar bunday jarayonlarning oldini olish va ularning salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha zarur choralarни ko'rmoqdamiz.

Yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyamizda insonning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqi alohida bobda mustahkamlangan. Davlatning atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha vazifalarni amalga oshirish majburiyatlari belgilab qo'yilgan.

Shuningdek, Orolbo'yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish va tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish, mamlakatimizda "yashil" iqtisodiyotga va uglerod neytralligiga o'tish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jumladan, 2030-yilga borib mamlakatimiz energetika balansida qayta tiklanuvchi energiya quvvatini 40 foizga yetkazishni rejalashtirganimiz. "Yashil maikon" umummilliy loyihasi doirasida O'zbekistonda 1 milliard tup ko'chat ekilmoqda. Orol dengizining qurigan tubida 2 million hektar maydonda o'rmon-zorlar barpo etdik.

Shuni alohida ta'kidlashni istardimki, bizning sa'y-harakatlarimizni jahon hamjamiyati keng qo'llab-quvvatlamoqda. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan "Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududiga aylantirish", "Markaziy Osiyo ekologik muammolar qarshisida: barqaror rivojlanish va farovonlik yo'lida mintaqaviy birdamlikni mustahkamlash" kabi muhim rezolyutsiyalar bir ovozdan qabul qilindi.

Hech shubhasiz, insoniyat to'qnash kelayotgan iqlim bilan bog'liq keskin muammolar oqibatlarini yumshatish inson huquqlari sohasidagi xalqaro hamkorlikning ustuvor yo'naliшlaridan biri bo'lib qoladi.

Shu bois, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining "Markaziy Osiyoda iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlariga qarshi kurashish sharoitida inson huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi rezolyutsiyasini ishlab chiqish va ilgari surish bo'yicha tashabbusimizni qo'llab-quvvatlaysizlar, deb ishonaman.

Siz, azizlar bugungi Forum davomida global miyosda ekologik vaziyat barqarorligini saqlash, inson huquq va manfaatlariga xizmat qiladigan yangi amaliy takliflarni ishlab chiqasizlar, deb ishonaman.

**Shavkat MIRZIYOEV,**  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti.



**Ko‘hna va navqiron  
Samarqand shahri yana  
bir nufuzli xalqaro forumga  
mezbonlik qildi. Inson huquqlari  
bo‘yicha IV Samarqand  
forumi «Ekologik tahdidlar:  
o‘zgarayotgan dunyoda inson  
huquqlarining istiqboli va  
barqaror yechimlarni izlash»  
mavzusiga bag‘ishlandi.**



# SAMARQAND FORUMI: ekologik muammolar yechimini topish yo‘lida muhim qadam

Forum Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, Adliya vazirligi va “Taraqqiyot strategiyasi” markazi tomonidan, hamkor xalqaro tashkilotlar, jumladan, BMTning Inson huquqlari bo‘yicha Oliy komissari boshqarmasi, Inson huquqlari bo‘yicha Oliy komissarining Markaziy Osyo bo‘yicha mintaqaviy byurosni, BMTning O‘zbekistondagi jamoasi, YeXHT Demokratik institutlar va inson huquqlari bo‘yicha byurosi, YeXHTning O‘zbekistondagi loyihalari muvofiqlashtiruvchisi, IHT, SHHT, MDH, Yel, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, Osiyoda hamkorlik va ishonch choralar bo‘yicha kengash, Turkiy tilli davlatlar parlament assambleyasini, Fridrix Ebert jamg‘armasini, Konrad Adenauer jamg‘armasini qo’llab-quvvatlashi bilan tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev forum ishtirokchilariga tabrik yo‘lladi. Tabrikni Prezidentning matbuot kotibi Sherzod Asadov o‘qib eshittirdi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikerining birinchi o‘rinnbosari, Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi direktori Akmal Saidov iqlim va inson huquqlari muammolarini muhokama qilingan ushbu xalqaro anjumanni tashkil etish tashabbusi O‘zbekiston Prezidentining BMTning Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha konferensiyasidagi (SOP28) nutqida ilgari surilganini ta’kidladi.

Yangi O‘zbekistonda inson qadri, uning huquq va manfaatlarini ta’minalash davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishi

etib belgilangan. Insonning ekologik huquqlari konstitutsiyaviy darajada mustahkamlangan. Ayniqsa, aholining eng zaif guruhlari, nogironligi bo‘lgan shaxslar, bolalar, ayollar, keksa yoshdagilar, kam ta’minlanganlar va ijtimoiy himoyaga muhetoj boshqa qatlamlar vakillari huquqlarini himoya qilishga e’tibor kuchaytirilmoqda.

Shundan keyin BMT Inson huquqlari bo‘yicha Oliy komissari Folker Tyurk hamda YeXHT Demokratik institutlar va inson huquqlari bo‘yicha byurosi direktori Matteo Mekachching videomurojaatlari namoyish etildi.

Adliya vaziri o‘rinnbosari Muzraf Ikromov, BMTning O‘zbekistondagi doimiy muvofiqlashtiruvchisi Sabina Mahl ishtirokchilarini tabriklab, mazkur nufuzli anjuman mavzusi juda dolzarbligini qayd etdi.

Spikerlar Samarqand forumi keskin ekologik muammolar kuchaygan bir sharoitda inson huquqlari himoyasiga e’tibor qaratilishi bir hudud yoki mintaqaga emas, balki butun dunyo – insoniyatga daxldor masala ekanini e’tirof etdi.

Forum ishini boshqarib borgan Inson huquqlari bo‘yicha Milliy markaz direktori A.Saidov Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevga Inson huquqlari bo‘yicha IV Samarqand forumiga yuksak e’tibor ko‘rsatib tabrik yo’llagani uchun minnatdorchilik bildirdi. Samarqand forumi – Samarqand ruhini o‘zida mujassam etgan nufuzli anjuman ekani, bu yerda inson huquqlari bo‘yicha Samarqand an‘analari shakllanayotganini alohida e’tirof etdi.

Qayd etilganidek, sayyoramiz miqyosida uchta inqiroz – iqlim o'zgarishi, bioxilma-xillik yo'qolishi va atrof-muhit ifloslanishi kuchaymoqda. Bu xavf-xatarlar hatto dunyo geosiyosiy arxitekturasiga ham ta'sir ko'rsatayotir.

Barqaror rivojlanish yo'lida eng asosiy tahdidiga aylangan iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlari Orol fojasi tufayli Mar-kaziy Osiyoda jiddiy sezilmoxda. Bu global fojia oqibatlarini bartaraf etish yo'lida O'zbekiston o'z imkoniyatlari darajasida harakat qilayotgan bo'lishiga qaramay, bu sa'y-harakatlarni davom ettirish uchun xalqaro hamjamiyatning qo'llab-quvvatlashi juda muhim.

Shu ma'noda, O'zbekiston Prezidenti 2023-yil 20-sentabrda BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida so'zlagan nutqida BMT Bosh Assambleyasining «Markaziy Osiyo global iqlim tahidlari qarshisida: umumiy farovonlik yo'lida hamjihatlik» rezolyutsiyasini qabul qilish tashabbusini ilgari surdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi tashabbusi bilan 2021-yilda BMT Bosh Assambleyasining «Orolbo'y mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e'lon qilish to'g'risida»gi rezolyutsiyasi qabul qilinganini alohida qayd etish lozim. Bosh Assambleya bunday maqomni birinchi bo'lib Orolbo'y mintaqasiga taqdim etdi.

Natijada 2018-2022-yillar davomida Orol dengizining qurigan tubida 1,7 million hektar o'rmonzorlar yaratildi. Orol fojasi oqibatlarini yumshatish, Orolbo'yida bioxilma-xillikni saqlash uchun 3,5 million hektardan ortiq maydonda tabiat parklari, qo'riqxonalar va davlat himoya hududlari barpo etildi. Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati aholisini markazlashgan tarzda ichimlik suvi bilan ta'minlash holati ancha yaxshilandi.

Forumda so'zga chiqqan Adliya vazirining o'rinnbosari M.Ikromov global muammoga aylanib borayotgan avtomobillar harakatlanishi va tirbandliklarning avj olib borayotgani ham havoning ifloslanishi sabablarini keltirib chiqarayotganini ta'kidladi. Shu bois, global xavflar avj olayotgan bir paytda inson huquqlarini himoya qilishning barqaror kelajagini belgilab olish, fuqarolarning ekologik huquqlarini ta'minlash – Yangi O'zbekistonning ustuvor strategik vazifalaridan biridir.

Forum doirasida «Inson huquqlari himoyasi uchun» ko'krak nishonining chet ellik sovrindorlari taqdirlandi.

Forumning birinchi plenar sessiyasi ekologik muammo-larni hal etish va inson huquqlarini himoya qilishda xalqaro tashkilotlarning yetakchiligi va inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarning roliga bag'ishlandi.

Mavzu yuzasidan Islom hamkorlik tashkiloti (IHT) Inson huquqlari bo'yicha mustaqil doimiy komissiyasi kotibiya-ti ijrochi direktori professor Noura bint Zaid Alrashoud, Turkiy davlatlar Parlament Assambleyası (TurkPA) Bosh kotibi Mehmet Sureyya Er, Osiyoda hamkorlik va ishonch choralar bo'yicha kengash Bosh kotibi o'rinnbosari Chjang Ling, Shanxay hamkorlik tashkiloti (SHHT) maslahatchisi Behruz Mohtari ma'ruza qildi.

YeXHT Iqtisodiy va ekologik faoliyati muvofiqlashtiruvchisi, elchi Bakit Jusupovning videomurojaati hamda

Yevropa Ittifoqi Inson huquqlari bo'yicha maxsus vakili Olof Skug, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) Bosh kotibi o'rinnbosari Nurlan Seitimovning onlayn chiqishlari tinglandi.

Elchi B.Jusupovning qayd etishicha, hozirgi kunda YeXHTning O'zbekistondagi loyihalari muvofiqlashtiruvchisi mamlakatdagi iqlim bilan bog'liq muammolar xaritasini tuzmoqda. Shu asosda hukumat aholining, jumladan, ijtimoiy himoyaga muhtoj insonlarning ehtiyojlarini qondiradigan axborot siyosatini ishlab chiqishi mumkin.

N.Seitimov iqlim o'zgarishlari bilan bog'liq muammolarga nisbatan aholining munosabatini shakllantirmsandan turib, ularni ijobiy hal etish qiyin ekaniga e'tibor qaratdi. Shuning uchun ham, MDH Bosh kotibi o'rinnbosarining fikricha, "Ekologiya sohasida ongli shaxsnar tarbiyalash – sayyoramiz hayotini saqlab qolishning muhim shartlaridan biridir".



Birinchi yalpi majlis doirasidagi munozaralar xalqaro tashkilotlarning atrof-muhit muammolarini hal qilish va inson huquqlarini himoya qilish borasida istiqbolli barqaror yechimlarni topish uchun qulay muloqot maydoniga aylandi.

Ma'ruzachilar o'zlar mansub tashkilotlarning bu boradagi yondashuvlariga to'xtalar ekan, ekologiyani sog'lomlashtirishga qaratilgan boshqaruv jarayonlarida inson huquqlarini ta'minlash nuqtai nazaridan zarur innovatsion g'oyalar, ilg'or tajribalar va hamkorlikdagi sa'y-harakatlar alohida o'rutishini bildirdi.

Inson huquqlari bo'yicha Samarqand forumining mazkur anjumani, ayniqsa, inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar vakillarining o'zaro fikr almashishlari uchun muhim ahamiyat kasb etdi.

Ikkinci plenar sessiyada iqlim o'zgarishining global tendensiyalari va ularning zaif guruhlari kontekstida ijtimoiy, iqtisodiy huquqlarga ta'siri, uchinchi plenar sessiyada iqlim o'zgarishi sharoitida inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha global strategiyalar va hamkorlik, shuningdek, ekologik huquqlarni himoya qilish va iqlim tashabbuslarini amalga oshirishda biznes va fuqarolik jamiyatining roli ko'rib chiqildi.

200 nafardan ortiq xalqaro, mintaqaviy, xorijiy va milliy tashkilotlar vakillari offlayn va onlayn formatda ishtiroy etgan forum yakunida "Iqlim o'zgarishi sharoitida inson huquqlarini global himoya qilish: barqaror kelajak uchun majburiyatlar va harakatlar to'g'risida Samarqand deklarasiyas" ishlab chiqildi.

**Norgul ABDURAIMOVA,**  
O'ZA muxbir.

# O'ZBEKISTON RAISLIGIDA IHTGA A'ZO DAVLATLAR TURIZMI YANADA RIVOJLANISHI TA'KIDLANDI

2-iyun kuni qadimiy Xiva shahrida “Xiva – 2024-yilda islam dunyosining turizm poytaxti” shiori ostidagi IHT Turizm vazirlari Islom konferensiyasining XII sessiyasi rasmiy ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

Tadbirda Islom hamkorlik tashkiloti (IHT) Bosh kotibi Hu-sayn Ibrohim Toha, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti Bosh kotibi Xusrav Noziri, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri Aziz Abduhakimov, yuqori martabali mehmonlar, xorijiy delegatlar vakillari, mahalliy va xorijiy OAV vakillari ishtirok etdi.

Tadbir avvalida Islom hamkorlik tashkiloti (IHT) Turizm vazirlari Islom konferensiysi XI sessiyasi raisi (Ozarbayjon Respublikasi) raislikni O'zbekiston Respublikasiga topshirdi.

Tadbirda nutq so'zlagan Aziz Abduhakimov O'zbekiston Respublikasi Prezidenti boshchiligidagi turizmni iqtisodiyotimizdagi strategik sohalardan biriga aylantirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalgalashirilayotganligini ta'kidladi.



Shuningdek, A. Abduhakimov O'zbekiston o'z raisligi davomida IHT hududida “kelajak turizmi”ni shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratishini ta'kidlab, “Smart-turizm manzillari” dasturini amalga oshirish, “Islam turizm maskanlari” dasturi hamda mega-infoturlar tashkil qilish, “IHT Turizm infratuzilmasini rivojlanterish jamg'armasi”ni tuzish, Islom sivilizatsiyasi uchun qadrli madaniy meros obyektlarini restavratsiya va konservatsiyasiga homiylik va xayriya faoliyatini kuchaytirish, “IHT Ekoturizm tarmog'i”ni shakllantirish, BMT Turizm tashkiloti va Samarqanddagi Xalqaro turizm akademiyasi o'rtasida yaqindan hamkorlikni yo'lga qo'yish kabi takliflarni ilgari surdi.



“

2023-yil yakunida O'zbekistonda turizm sohasi to'liq qayta tikiadi. Yurtimizga 7 million nafar sayyoh tashrif buyurdi. Ichki turizm yo'nalishida 21 million sayohat amalga oshirildi. Turizm xizmatlari eksporti 2,1 milliard dollardan oshib, umumiy xizmatlar eksportining 40 foizni tashkil qildi, — dedi vazir. — Sohada bugungi kunda 370 ming kishining bandligi ta'minlangan. Jadal rivojlanayotgan turizm biznesi muhiti, tadbirkorlar uchun taqdim etilayotgan imtiyozlar, yangi infratuzilma va imkoniyatlar sabab, aholi orasida, ayniqsa, yoshlar uchun turizm ommabop sohaga aylanib bormoqda. Turizm xizmatlari diversifikasiya qilinishi evaziga xorijiy sayyoohlarning O'zbekistonda o'rtacha qolish muddati 2017-yildagi 3-4 kundan hozirda 8-10 kungacha uzaytirildi.

IHT Bosh kotibi Husayn Ibrohim Toha konferensiya yuqori darajada tashkil etilgani, samimiy qabul va mehmondo'stlik uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga va O'zbekiston xalqiga minnatdorlik bildirdi.



“

Islom turizmiga qiziqish ortib borayotgani IHTga a'zo davlatlarga sanoatni rivojlantirishda muhim afzalliklarni taqdim etadi. Halol ta'minot zanjiridan foydalanish borasida jamoaviy harakat qilish islom turizmini targ'ib qilishda muhim ahamiyatga ega. Islom turizmi bugungi kunda iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi eng ta'sirli tarmoqlardan biriga aylandi va shuningdek, IHT doirasida turizmnı sezilarli darajada yaxshilash imkoniyatini taqdim etadi. Bu a'zo davlatlar uchun ushbu jadal rivojlanayotgan sektorning iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy afzalliklaridan foydalanish uchun ajoyib imkoniyatdir, – dedi Husayn Ibrohim Toha.

Shuningdek, u tashkilotga a'zo davlatlarni hamkorlikni kengaytirish va ilg'or tajriba almashishga chaqirdi.

Islom olami ta'lif, fan va madaniyat tashkiloti (ICESCO) bosh direktori Salim al-Malik ham yig'ilganlar oldida nutq so'zladi. U madaniy merosni turli yo'naliishlarda asrab-avaylash muhimligini ta'kidlab, tashkilotning bu boradagi tavsiyalarini bildirdi, xususan, sohaga yangi texnologiyalar va sun'iy intellektni joriy etish dolzarb masala ekanligiga e'tibor qaratdi.

Tadbir davomida O'zbekiston turizm salohiyati haqidagi taqdimot ham o'tkazildi. Taqdimotda yurtimizning boy madaniy merosi, chet elliq sayyoohlarni o'ziga doimiy jalb qilib kelayotgan muqaddas qadamjolar va boshqa turistik obyektlar namoyish qilindi.



Shuningdek, ikkita ishchi sessiyalar ham tashkil qilindi. Birinchi ishchi sessiyada Vazirlar konferensiyasining kun tartibi va ish dasturi qabul qilindi. Shu bilan birga, ICTM XII sessiyasining yuqori mansabdar shaxslari majlisи raisining hisoboti va IHTga a'zo davlatlar delegatsiyalari rahbarlarining bayonotlari taqdim etildi.

Ikkinci ishchi sessiyada esa Vazirlar va delegatsiyalari rahbarlarining bayonotlari davom ettirildi, turizmnı rivojlantirish bo'yicha qaror ko'rib chiqildi va qabul qilindi. Bundan tashqari, ICTM XIII sessiyasining sanasi va joyi aniqlandi va boshqa muhim masalalar ko'rib chiqildi.

*Ma'lumot uchun, 2022-yilda Bakuda bo'lib o'tgan Islom hamkorlik tashkilotining XI sessiyasi doirasida ilk bor O'zbekiston shaharlariдан бирі – Xiva 2024-yil "Islom dunyosining turizm poytaxti" deya e'lon qilindi. Islom hamkorlik tashkiloti (IHT) e'tirofning asosiy omillari sifatida viza rejimining soddashtirilishi, madaniy merosni saqlash, tarixiy shaharlarni obodonlashtirish kabi ko'plab islohotlarni e'tirof etgan.*

Shu o'rinda Xiva shahrining tarixiy qiyofasi tiklanishi, restavratsiya va konservatsiyaga oid amalga oshirilgan ishlar, qolaversa, elektr ustunlarning demontaj qilgани, sayyoohlarning katta oqimini qabul qilish uchun yaratilgan sharoitlar, infratuzilmaning yaxshilangani, 5 yulduzli mehmonxona qurilishi hamda butik-otel va hostellar qurilishi faol davom etayotgani alohida qayd etilgan. Bundan tashqari, turizm va unga yondosh sohalar tadbirkorlari uchun yaratilgan qulay sharoitlar yuqori baholangan.

# MINTAQAVIY MULOQOT:

DUSHANBEDA SUV RESURSLARINI TEJASH BO'YICHA  
HAMKORLIKDA AMALGA OSHIRILADIGAN  
SA'Y-HARAKATLAR MUHOKAMA QILINDI



**Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi delegatsiyasi joriy yil 10-iyun kuni Dushanbe shahrida bo'lib o'tgan "Suv va iqlim o'zgarishi" Markaziy Osiyo forumida ishtirok etdi.**

Forum BMT Taraqqiyot Dasturining "Iqlim o'zgarishi va barqarorlik" mintaqaviy loyihasining "2018-2028-yillarda suv barqaror rivojlanish uchun" Xalqaro harakatlar o'n yilligi bo'yicha yuqori darajadagi 3-xalqaro konferensiysi doirasida tashkil etildi.



**Forumda O'zbekiston delegatsiyasi suv tejovchi va energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini ko'paytirish, ekologik toza transportni rivojlantirish va yashil hududlarni kengaytirish orqali Yangi O'zbekistonning "yashil o'sish" tamoyillarining integratsiyalashuvi haqida taqdimot qildi.**

Markaziy Osiyo hukumatlari va xalqaro tashkilotlar vakillari ishtirok etgan ushbu tadbir barchani bir maqsad yo'lida birlashtirishdi. Tadbir davomida BMTning suv bo'yicha konferensiysi kun tartibida ilgari surilgan majburiyatlarni amalga oshirishni qo'llab-quvvatlash, shuningdek, yangi sheriklik munosabatlarini rag'batlantirish va 2030-yilgacha mo'jallangan Barqaror rivojlanishga erishish maqsadlaridan kelib chiqib, harakatlarni jadallashtirish lozimligi qayd etildi.

Tadbir doirasida Milliy tashkiliy va Xalqaro maslahat qo'mitalari tomonidan "Suv iqlim, barqarorlik va atrof-muhit uchun", "Suv bo'yicha transchegaraviy va xalqaro hamkorlik" va "O'n yillik maqsadlari ijrosini jadallashtirish" kabi mavzularda yalpi majlislar va interaktiv muloqotlar tashkil etildi.

Forum yakuni bo'yicha delegatsiya rahbarlari O'zbekiston, Qozog'iston, Tojikiston, Qиргизистон va Turkmaniston davlatlari hududlarida iqlim o'zgarishlari oqibatlariga qarshi tayyorgarlikni oshirish bo'yicha qo'shma harakatlarni jadallashtirish, amaldagi va yangi strategiyalar, dasturlar va rejalarini tizimli amalga oshirish uchun institutsional asoslarni mustahkamlash, investitsiyalarni ko'paytirish uchun qulay muhitni yaxshilash, "Iqlim o'zgarishi va barqarorlik" loyihasining yangi bosqichini ishlab chiqish, shuningdek, Markaziy Osiyoning beshta davlatida ushbu loyiha faoliyatini kengaytirishni hisobga olgan holda, suv resurslari va iqlim o'zgarishi sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni yanada kengaytirish va soddalashtirish bo'yicha kelishib oldilar.

# AVSTRIYADA BO'LIB O'TGAN IQLIM FORUMIDA OROL FOJIASI OQIBATLARIGA QARSHI KO'RILAYOTGAN CHORA-TADBIRLAR BO'YICHA TAQDIMOT O'TKAZILDI

14-15-iyun kunlari Avstriyaning Xayligenblut shahrida «Antropotsen 2024: Tabiat – Innovatsiya – Mas’uliyat» nomli iqlim forumi bo’lib o’tdi.



Forum ishida Avstriyaning Karintiya federal yeri gubernatori Peter Kayzer, Xayligenblut shahar meri Martin Lakner, YEXHT Iqtisodiy va ekologik faoliyat koordinatori Bakit Djudsupov, BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasi Suv konvensiyasi kotibi Alesh Bizjak, Avstriyaning Yevropa tadqiqotlari va xavfsizlik siyosati instituti vitse-prezidenti Kristin Muttonen, Venada akkreditatsiyadan o’tgan diplomatik vakolatxonalar rahbarlari, shuningdek, 20 dan ortiq Avstriya va Yevropa universitetlari hamda tadqiqot markazlarining professorlari va ilmiy ekspertlaridan iborat jami 200 ga yaqin kishi qatnashdi.

Foruming «Iqlim o’zgarishi: suv xavfsizligi va uning ta’siri» nomli panel sessiyasida asosiy ma’ruzachi sifatida O’zbekistonning Avstriyadagi elchisi Baxtiyor Ibragimov ishtirok etdi.



Diplomatik vakolatxona rahbari o’z nutqida ishtirokchilar e’tiborini Orol dengizi qurishining mamlakat va mintaqaga ko’rsatayotgan salbiy ta’siriga qarattdi. Jumladan, chang bo’ronlari davriyiligi va geografiyasining orib borishi, yerlarning degradatsiyaga uchrashi, suv resurslarining taqchilligi va boshqalar sanab o’tildi.

**Sh**uningdek, ishtirokchilarga O’zbekiston tonda iqlim o’zgarishining salbiy oqibatlarini bartaraf etish, biologik xilma-xillikni saqlash, qurg’oqchilik va suv tanqisligiga qarshi kurashish, Orol fojiasi oqibatlarini yumshatish hamda ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni bartaraf etish bo’yicha ko'rileyotgan chora-tadbirlar va amalga oshirileyotgan loyihamar haqida batafsil ma'lumotlar berildi. Jumladan, 2021-yilda qabul qilingan «Yashil makon» umummilliy loyihasi doirasida O’zbekistonda 1 milliard tup ko’chat ekilayotgani, Orol dengizining qurigan tubida esa 2 million gektar maydonda o’rmonzorlar barpo etilgani qayd etildi.

O’zbekiston tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasi tomonidan «Orolbo’yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududiga aylantirish», «Markaziyo Osyo ekologik muammolar qarshisida: barqaror rivojlanish va farovonlik yo’lida mintaqaviy birdamlikni mustahkamlash» kabi muhim rezolyutsiyalar bir ovozdan qabul qilinganligi ta’kidlandi.

Bundan tashqari, kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish bo’yicha xalqaro hamkorlikni muvofiqlashtirish maqsadida 2018-yilda tashkil etilgan va keng qamrovli platforma bo’lgan – BMTning Orolbo’yi mintaqasi uchun Inson xavfsizligi bo’yicha ko’p tomonlama sheriklik trast jamg’armasi faoliyatiga bag’ishlangan taqdimot o’tkazildi. Yevropa mamlakatlari mazkur jamg’arma faoliyati doirasidagi loyiha va dasturlarni qo’llab-quvvatlashga va hamkorlik qilishga chaqirildi.

Forum yakunida tabiat va Yer ekotizimiga salbiy ta’sir qiluvchi inson faoliyatini cheklash va kamaytirish bo’yicha global sa’y-harakatlarni birlashtirish, qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish, iqtisodiy o’sishda yashil texnologiyalar darajasini oshirish bo’yicha takliflar ishlab chiqildi.

«Antropotsen» forumi 2018-yilda Avstriyaning Karintiya federal yeri Ilmiy Assotsiatsiyasi tomonidan Vena universiteti olimlarining fanlararo guruhi (Vienna Anthropocene Network), Karintiya Federal yeri va «Hohe Tauern» milliy bog’i bilan hamkorlikda tashkil etilgan.

Forum zamonaviy yashil texnologiyalar va innovatsion yechimlardan foydalanish orqali antropotsenning salbiy ta’sirini minimallashtirish va barqaror rivojlanishni ta’milash masalalari bo’yicha fikr va tajriba almashish uchun platforma hisoblanadi.

«Dunyo» AA.



# MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI HAVO IFLOSLANISHIGA QARSHI KURASHDA KUCHLARNI BIRLASHTIRMOQDA: BIRINCHI OLIY DARAJADAGI SIYOSIY MULOQOT BOSHLANDI

19-iyun kuni Toshkentda O'zbekiston Ekoliya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tomonidan Jahon banki va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit dasturi (UNEP) bilan hamkorlikda "Markaziy Osiyoda toza havo bilan kelajak qurish" shiori ostida birinchi oliy darajadagi siyosiy mintaqaviy muloqot bo'lib o'tdi.

Mintaqaviy muloqot Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekistonning turli davlat idoralari vakillarini jamladi. Tadbirda Osiyo va Yevropadan havo sifatini boshqarish sohasidagi yetakchi mutaxassislar ham ishtirok etdi.

Tadbirdan ko'zlangan maqsad mintaqaga davlatlari o'rtasida muvofiqlashtirilgan harakatlarni rag'batlantirish va havo ifloslanishining oldini olish sohasida bilim almashishdan iborat.

**“** O'zbekiston Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari kabi havoning ifloslanishi bilan bog'liq muammolariga duch kelmoqda va biz bu muammo shoshilinch va samarali choralarini talab qilishini tushunamiz. Bu borada hamkorlik va tajriba almashish muhimligini tan olamiz, chunki ekologik muammolarning chegarasi yo'q.

Ushbu tadbir bilim almashish, istiqbolli yonda-shuvlarni muhokama qilish va mamlakatlarimizda-gi havo sifatini yaxshilashga qaratilgan aniq chora-tadbirdirlarni ishlab chiqish uchun samarali maydonga aylanadi", — dedi O'zbekiston Ekoliya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri o'rinnbosari Jusipbek Kazbekov.



Tadbir davomida ishtirokchilar Markaziy Osiyo mamlakatlarida havo sifatini boshqarish sohasida hukumat chora-tadbirlari va amaliyotini o'rgandilar. Atmosfera havosining ifloslanishi ta'siri bo'yicha ma'lumotlar almashish metodologiyasi taqdim etildi va havo sifatini boshqarish bo'yicha mintaqaviy hamkorlikni jadallashtirishning ustuvor yo'nalishlari belgilandi. Muloqotda ishtirok etayotgan mamlakatlar vakillari o'z hukumatlarining hamkorlikni chuqurlashtirish va havo sifatini yaxshilash bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish bo'yicha qat'iy pozitsiyada ekanligini tasdiqladilar.

**“ Havo sifatini boshqarish murakkab jarayon bo'lib, havo ifloslanishi manbalarini tushunish va tegishli tarmoqlardagi vaziyatni yaxshilash choralarini belgilashni talab qiladi. Ushbu chora-tadbirlar yanada batapsil ma'lumotlar, qo'shni davlatlar o'rtasida uyg'unlashtirilgan samarali qonunchilik, kuchli davlat instituti va rivojlangan yashil infratuzilmani talab qiladi. Birgalikda harakat qilish orqali Markaziy Osiyo davlatlari mintaqaga havosini yanada tozalashga erishish mumkin! , – dedi Jahon bankining atrof-muhit, tabiiy resurslar va moviy iqtisodiyot bo'yicha global direktori Valeri Hikki. ”**

Ta'kidlash joizki, havoning ifloslanishi global muammo hisoblanadi. Har yili 7 millionga yaqin odam havo ifloslanishidan kelib chiqadigan kasalliklardan vafot etadi. Atmosferaning ifloslanishi inson salomatligiga ta'siridan tashqari, yiliga 8 trillion dollardan ko'proq baholangan katta iqtisodiy yo'qotishlarga olib keladi. Atrof-muhitga katta zarar yetkazadi.



Markaziy Osiyoda, dunyoning boshqa qismlarida bo'lgani kabi, shahar va qishloqlardagi havo sifatiga sanoat, issiqlik tarmog'i va transportda qazib olinadigan yoqilg'inining yonishi natijasida mahalliy ifloslanish natijasida kelib chiqadigan transchegaraviy ifloslanish ta'sir ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, shaharlarda ifloslanish manbalaridan biri qum va chang bo'ronlarining kuchayishi hisoblanadi.



Markaziy Osiyodagi havo sifati bilan bog'liq kasalliklarning aksariyati va erta o'limalr diametri 2,5 mikron yoki undan kam (PM2.5) bo'lgan mayda zarrachalar bilan bog'liq. Mintaqaning yirik shaharlarida ularning konsentratsiyasi ko'pincha Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) tomonidan tavsiya etilgan havo sifatining ruxsat etilgan ko'rsatkichlaridan bir necha baravar yuqori. Bu, ayniqsa, qish mavsumida issiqlik tarmog'inining jadal ishlashi davrida seziladi. Global havo sifatini kuzatuvchi IQAir portaliga ma'lumotlariga ko'ra, Markaziy Osiyo shaharlari ko'pincha dunyoning havosi eng ifloslangan shaharlar qatoridan joy oladi.



## CHIQINDILARNI BOSHQARISH VA SUVNI TOZALASHGA YANGI INVESTITSIYALAR JALB QILINADI

30-aprel kuni Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligida Ekologiya vaziri Aziz Abduhakimov va BAAning "Vision Invest" kompaniyasi prezidenti va bosh direktori Omar N.Al-Midaniy o'rtaida uchrashuv bo'lib o'tdi.

Uchrashuvda O'zbekistonda, jumladan, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ma'muriy islohotlar haqida ma'lumot berildi. Shuningdek, kompaniya vakillari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi "Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq vazirlik oldiga qo'yilgan maqsad va ustuvor vazifalar bilan tanishtirildi.

Uchrashuv davomida maishiy chiqindilar bilan bog'liq xizmatlar ko'rsatish darajasini oshirishda chiqindilarni

gayta ishslash darajasini sezilarli darajada oshirish, xalqaro standartlarga moslashtirish, chiqindilar poligonlarda to'planishining oldini olish, atrof-muhitga salbiy ta'sirni minimallashtirish, "nol chiqindi" tamoyilini amalgaga oshirish va aylanma iqtisodiyotni rivojlantirishning ahamiyati yuqori ekanligi qayd etildi.

Uchrashuv yakunida xavfli chiqindilarni boshqarish sohasida qo'shma istiqbolli investitsion loyihalarni ishlab chiqish, shuningdek, atrof-muhitni va aholi turmush sifatini yaxshilash maqsadida suv resurslarini tozalash bo'yicha kelishuvlarga erishildi.

# O'ZBEKİSTONDA XAVFLİ KİMYOVİY MODDALARNI OQILONA BOSHQARISHNI TA'MINLASH LOYİHASI AMALGA OSHIRILMOQDA

1-may kuni Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) tomonidan Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi bilan hamkorlikda hamda Yevropa Ittifoqining moliyaviy ko'magida "Xavflı kimyoviy moddalarni oqilona boshqarish bo'yicha texnik ko'mak" loyihasini amalga oshirish bo'yicha seminar bo'lib o'tdi.



Tadbirda Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri Aziz Abdurakhimov, Yevropa Ittifoqining O'zbekistondagi delegatsiyasi texnik hamkorlik bo'limi rahbari Vim Riepma, FAOning O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari o'rinnbosari Sherzod Umarov, vazirlik va idoralar vakillari, xalqaro tashkilotlar, nodavlat notijorat tashkilotlari, milliy va xalqaro ekspertlar ishtirok etdi.

Seminar davomida loyihaning maqsad va vazifalari taqdim etildi. Ishtirokchilar loyihaning ko'lami, konsepsiysi va kutilayotgan natijalar bilan tanishtirildi.

*Ma'lumot uchun, BMTning Atrof-muhit bo'yicha 6-Assambleyasida (UNEA-6) 11-rezolyutsiya qabul qilingan bo'lib, unda qishloq xo'jaligida o'ta xavflı pestitsidlarni muomaladan chiqarish va muqobilarga o'tishni rag'batlantirish hamda ularning mavjudligini ta'minlash uchun samarali choralar ko'rishga e'tibor qaratilgan.*



"O'zbekistonda ilk bor xavflı kimyoviy moddalarni oqilona boshqarishga qaratilgan loyiha amalga oshirilmoqda. Ushbu loyiha doirasida O'zbekistonda tegishli qonunchilik tamoyillarini amalga oshirish, umuman olganda, kelajakda xavflı kimyoviy moddalardan to'g'ri foydalanish maqsad qilingan, – dedi Ekologiya vaziri Aziz Abdurakhimov. – Ma'lumki, sobiq ittifoq davrida yurtimizda paxta yetishtirish davomida juda xavflı pestitsidlarni ishlataligan. 450 dan ortiq kichik-kichik aeroportlar bo'lgan va juda katta miqdorda xavflı moddalarni yig'ilib qolgan. Bundan tashqari, ayrim korxonalarda ham kimyoviy moddalarni mavjud. Loyihada ana shu zararli moddalarni suv va tuproq tarkibidan ajratib olib, ularni qayta ishlash texnologiyalarini joriy qilishga katta e'tibor qaratilmoqda".

Agroekologik amaliyotni takomillashtirish va ularni integratsiyalashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan "2030-yilgacha atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiysi", "Qishloq xo'jaligini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi", "Organik qishloq xo'jaligi va organik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirish konsepsiysi va uni amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" qabul qilindi.



“O'zbekiston hukumati va FAO bilan hamkorligimiz eskirgan chiqindilarni tozalash, chiqindilarni boshqarishni takomillashtirish va pestitsidlar chiqindilarini ishlab chiqarishni qisqartirish orqali atrof-muhit va aholi salomatligini muhofaza qilish bo'yicha jamoaviy majburiyat namunasidir. Biz hamkorlikda kimyoviy chiqindilarni boshqarishdan ham ko'proq ishlarni amalga oshiramiz. Zararkunandalariga qarshi kompleks kurash, salomatlik va ekologik xavflardan xabardorlik sog'lom, ekologik toza va iqtisodiy jihatdan foydali qishloq xo'jaligi sektori kafolatidir”, – dedi Vim Riepma.

*Ta'kidlash joizki, keyingi yillarda mamlakatimizda eskirgan yoki taqiqlangan pestitsidlar zaxiralari va zaharli kimyoviy moddalar saqlanadigan idishlar ko'milgan 8 ta obyektda konservatsiya ishlari olib borildi, yana 2 ta obyektda konservatsiya ishlari boshlandi va bitta obyektda rekonstruksiya ishlari olib borildi.*

Qiymati 4 mln yevroga teng bo'lgan qo'shma loyihani amalga oshirish zararli kimyoviy moddalar va ular bilan bog'liq chiqindilarni boshqarish mexanizmlari va vositalarining samaradorligini oshirish, shuningdek, qishloq xo'jaligida xavfli pestitsidlardan foydalanishni qisqartirish, shu jumladan pestitsidlarni almashtirish va ulardan foydalanishni qisqartirishni nazarda tutuvchi muqobil usullarni joriy etish va ilgari surish imkonini beradi. Qishloq xo'jaligi xodimlari o'rtasida o'ta xavfli pestitsidlardan foydalanishni kamaytirish zarurligi to'g'risida tushuntirish ishlariga alohida e'tibor qaratiladi. Shu bilan birga, loyiha qishloq xo'jaligida zararli kimyoviy moddalaridan foydalanish bilan bog'liq mavjud muammolar ko'lamini, jumladan, tuproqning ifloslanishiga olib keladigan eskirgan pestitsidlar hajmini tushunish imkonini beradi.



“Ushbu loyiha chiqindilarni boshqarish bo'yicha Milliy strategiyani ishlab chiqish, qishloq xo'jaligidagi xavfli chiqindilar bo'yicha yaxshiroq ma'lumotlar bazasini hosil qilish va xavfli chiqindilarni qayta ishslash korxonalarini yaratish imkonini beradi. Bundan tashqari, loyiha qishloq xo'jaligida barqaror usullarni targ'ib qilishni kengaytirishga yordam beradi, bu esa fermerlar va iste'molchilar uchun pestitsidlardan foydalanish xavfini kamaytiradi. Muassasalar va aholining qishloq xo'jaligida xavfli kimyoviy moddalaridan foydalanish bilan bog'liq xavf-xatarlardan xabardorligini oshirishga katta e'tibor qaratiladi”, – dedi Sherzod Umarov.

Seminar yakunida ma'ruzachilar ish rejasini ko'rib chiqdilar va uni kelgusida amalga oshirish shartlarini kelishib oldilar.



## ZARAFSHON DARYOSI HAVZASIDA SUV RESURSLARINI BARQAROR BOSHQARISH BO'YICHA YANGI LOYIHA ISHGGA TUSHIRILADI

4-iyun kuni Ekoliya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri Aziz Abduhakimov va Shveysariyaning O'zbekistondagi Favqulodda va muxtor elchisi Konstantin Obolenskiy o'rtaida uchrashuv bo'lib o'tdi.

Uchrashuvda tomonlar atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida ikki tomonlama hamkorlikni mustahkamlash masalalarini muhokama qildilar. Xususan, hukumatlararo manfaatli hamkorlikni mustahkamlash, mamlakatda iqtisodiy-ijtimoiy va ekologik islohotlarni qo'llab-quvvatlashga tayyor ekanligi bildirildi.

Muzokaralar davomida "Zarafshon daryosi havzasida suv resurslarining iqlimga chidamliligini integratsiyalashgan tizimlar orqali boshqarish" loyihasi muvaffaqiyatl ro'yxatga olingani va ishga tushirilgani ma'lum qilindi.

Shuningdek, uchrashuvda Ekoliya vazirligi huzuridagi Markaziy Osyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti (Green University) bilan suv resurslari sohasidagi Shveysariyaning yetakchi universitetlari o'rtaida hamkorlik masalasi ham muhokama qilindi.

Ma'lumot o'nida aytish joizki, mazkur loyihadan ko'zlangan maqsad Zarafshon daryosi havzasining O'zbekiston hududidagi qismida suv resurslarini kompleks boshqarishni takomillashtirishdan iborat. Yondashuvlarni ishlab chiqish uchun asosiy e'tibor 3000 hektarlik tajriba maydoniga qaratiladi. Ushbu hududlarda 100 nafar fermer bilan sug'orish, qishloq xo'jaligi texnikasi va suv hisobini yaxshilash bo'yicha ishlar olib boriladi. Loyiha Shveysariyaning CARITAS konsorsiumi (CACH) va Markaziy Osyo mintaqaviy ekologiya markazi (RECCA) tomonidan uch bosqichda amalga oshiriladi.

# • O'ZBEKISTONDA EKOTIZIMLARNI TIKLASH VA SAQLASH BO'YICHA

XALQARO TASHKILOTLAR BILAN HAMKORLIK ALOQALARI  
YANADA MUSTAHKAMLANMOQDA



Joriy yilning 6-iyun kuni o'tkazilgan tadbirda Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri Aziz Abduhakimov, BMTning O'zbekistonidagi doimiy koordinatori Anas Fayyod Karman, Global ekologik jamg'arma (GEF) bosh direktori va raisi Karlos Manuel Rodriges (onlayn), Xalqaro tabiatni muhofaza qilish ittifoqining (IUCN) Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo bo'yicha mintaqaviy idorasi direktori Oliver Avramovski (onlayn), vazirlik va idoralar, xalqaro tashkilotlar hamda ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

A. Abduhakimov o'zining tabrik so'zida mamlakatimiz hukumati tomonidan amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ekologik islohotlar haqida gapirib, bu borada qo'llab-quvvatlayotganlari uchun xorijlik hamkorlarga minnatdorlik bildirdi.

**“Bugun butun mamlakat bo'ylab ekotizimlarning yo'qolib borishi va landshaftlarga notog'ri ta'sir ko'rsatilayotgani kuzatilmoqda. Shu ma'noda ushbu loyiha o'z vaqtida qabul qilingan muhim tashabbus bo'ldi. Biz 6 ta milliy METH va 7 ta davlat o'rmon xo'jaligini qamrab olgan 10 ta asosiy biologik xilma-xillik zonalarida O'zbekistonning muhofaza etiladigan tabiiy hududlari tizimini (METH) mustahkamlash loyihasi qo'llab-quvvatlanilayotganini olqishlaymiz. Asosiysi, respublika hukumatining bu sa'y-harakatlari BMTning O'n yilligi doirasida ilgari surilgan ekotizimlarni tiklash bo'yicha maqsadlariga mos keladi, - dedi vazir.**

«Landshaftlarni tiklash va himoyalashni kompleks boshqarish» loyihasi O'zbekiston tabiiy ekotizimlarini tiklash va barqaror boshqarish, yerlar degradatsiyasi, idoralararo muvofiqlashtirish, biologik xilma-xillik va ekotizimlarni tiklash va saqlash bo'yicha sa'y-harakatlarni moliyalashtirish bilan bog'liq muammolarga qarshi kurashda yordam berishi bilan ahamiyatlidir.

**“ BMTTD, IUCN va O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi o'rtaida yanada keng qamrovli hamkorlikni kengaytirish uchun GEF yondashuvini amalda qo'llayotganini ko'rib turganimdan benihoya mammunman. Bu nafaqat O'zbekistonda, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasida yerlar degradatsiyasi va biologik xilma-xilliklar yo'qolishining oldini olishga yordam berishi tayin, - dedi videomurojaatida Karlos Manuel Rodriges. ”**

Ta'kidlash joizki, keyingi yillarda O'zbekiston jahoning nufuzli ekologik tashkilotlari bilan hamkorlik aloqalarini yanada mustahkamamoqda. Jumladan, joriy yilning fevral oyida mamlakatimizda faoliyati yo'lga qo'yilgan Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universitetida (Green University) Xalqaro tabiatni muhofaza qilish ittifoqining vakolatxonasi ochilganligi buning yaqqol dalilidir.

Tadbir davomida ishtirokchilar ushbu loyihaning O'zbekistonda tabiatni muhofaza qilish sohasini rivojlantirish borasidagi imkoniyatlarni yanada kengaytirishini muhokama qildilar.

# JBIC

## O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHNI REJALASHTIRMOQDA



14-iyun kuni Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri Aziz Abduhakimov va Yaponiya Xalqaro hamkorlik banki (JBIC) boshqaruvchi direktori, infratuzilma, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish loyihalarini global moliyalashtirish guruhi rahbari Xiroki Sekine boshchiligidagi delegatsiya o'rtasida uchrashuv bo'lib o'tdi.



Uchrashuvda mehmonlarga mamlakatimizda hukumat tomonidan ekologiya sohasida amalga oshirilayotgan ishlar, ekologik vaziyatni yaxshilash bo'yicha kelgusi rejalar haqida ma'lumotlar berildi.

O'z navbatida, Yaponiya tomoni ekologiyani yaxshilashga qaratilgan loyihalarini moliyalashtirishdan manfaatdor ekanligini bildirdi. Xususan, kanalizatsiya tozalash inshootlarini modernizatsiya qilish va chiqindilarni utilizatsiya qilish orqali elektr energiyasi ishlab chiqarish loyihalarini amalga oshirish bilan bog'liq masalalar muhokama qilindi.

Shuningdek, tomonlar "Yashil makon" umummilliy loyihasini amalga oshirish bo'yicha hamkorlikni rivojlantrishga kelishib olishdi.

Yakunda rejorashtirilgan loyihalar taqdimoti va ularning atrof-muhitga ta'sirini baholash bo'yicha qo'shma tadqiqotlar o'tkazish bo'yicha kelishuvga erishildi.

# BIOLOGIK XILMA-XILLIKNI SAQLASH BO‘YICHA O‘ZBEKISTONNING YANGI MILLIY MAQSADLARI MUHOKAMA QILINDI

Toshkentda 26-iyun kuni Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi hamda BMT Taraqqiyot dasturining O‘zbekistonligi vakolatxonasi hamkorligida “Global asos – erta harakatni qo‘llab-quvvatlash” qo‘shma loyihasi doirasida tadbir bo‘lib o’tdi.

Tadbirda Ekologiya vazirligi, BMTTD, Global ekologik fond (GEF), Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi (IUCN), nodavlat notijorat tashkilotlari vakillari, olimlar, mutaxassislar ishtirot etdi. Unda O‘zbekistonning Kunming-Monreal global bioxilma-xillik dasturiga muvofiq biologik xilma-xillikni saqlash bo‘yicha yangi milliy maqsadlari muhokama qilindi.



“O‘zbekistonda bioxilma-xillikni saqlash bo‘yicha 2030-yilgacha maqsadlar belgilab olingan. Xususan, aholi yashash hududlaridagi sharoitlarni yanada yaxshilash, bioxilma-xillikni asrab qolish va yashash joylarining 30 foizini yashil hududga aylantirish maqsad qilingan, – dedi Ekologiya vazirligi bo‘lim boshlig‘i Abdurashid Sodiqov. – Shuningdek, Ekologiya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan maqsadlardan yana biri o’simlik va hayvonot dunyosidan oqilona foydalanish, tabiiy resurslardan noqonuniy foydalanishga chek qo‘yishni kuchaytirishdir. Qolaversa, dorivor o’simliklardan foydalanish bo‘yicha yiliga 25 ming hektar madaniy plantatsiyalar tashkil qilish va hayvonot dunyosi bo‘yicha

Toshkent, Termiz, Farg‘ona davlat hayvonot bog‘lari qoshida yovvoyi hayvonlarni rehabilitasiya qilish markazlarini tashkil etish kabi takliflar tayyorlangan”.

Ta’kidlash joizki, O‘zbekistonning biologik xilma-xillikni saqlash bo‘yicha yangi milliy maqsadlari 2024-yil oktabr oyida Kolumbiyada bo‘lib o’tadigan Biologik xilma-xillik to‘g‘risidagi konvensiya ishtirokchilarining 16-konferensiyasida jahon hamjamiyatiga taqdim etilishi rejalashtirilgan.

Tadbirda yangilangan maqsadlar bo‘yicha fikr-mulohazalar, takliflar bildirildi. Bundan tashqari, BMTTD, GEF va Ekologiya vazirligining “Global bioxilma-xillik dasturi – erta harakatlarni qo‘llab-quvvatlash” qo‘shma loyihasi 2030-yilgacha butun dunyo bo‘ylab tabiatni muhofaza qilish



“Dasturda 2030-yilgacha amalga oshirilishi kerak bo‘lgan 23 ta maqsad bor. Shuningdek, 2050-yilga borib erishish reja qilingan yana to‘rtta global maqsad mavjud va eng muhim natija – 2050-yilgacha dunyo tabiat bilan uyg‘unlikda yashashi kerak, – dedi loyiha rahbari Sergey Zagrebin. – Bugungi tadbirda ana shu maqsadlar muhokama qilindi. Umid qilamizki, loyiha doirasida tayyorlangan maqsadlar bo‘yicha fikr-mulohazalar, tavsiyalar, qo‘srimchalar, sharhlar bildiriladi va bu maqsadlarimizni yanada takomillashtirishga xizmat qiladi”.

uchun amalga oshirilishi kerak bo‘lgan aniq harakatlarni belgilab berishi ta’kidlandi. O‘zbekiston ushbu loyiha dasaturiga qo‘shilish orqali uni mamlakatimizda amalga oshirish majburiyatini oldi.

Ma‘lumot uchun, loyiha 2023-yil fevral oyida boshlangan. 2023-yil oktabr oyida loyiha doirasida Global bioxilma-xillikni saqlash dasturining amaldagi Strategiyasi va Harakatlar rejasiga muvofiqligi masalalari muhokama qilindi va yangi maqsadlarni aniqlab olish zarurligi belgilab olindi.



## MARKAZIY OSIYODAGI CLIENT II LOYIHASI NATIJALARI QOZOG'ISTONDA TAQDIM ETILDI

*Olmaota shahrida Markaziy Osiyoda "CLIENT II – Barqaror innovatsiyalar uchun xalqaro hamkorlik: mintaqaning asosiy natijalari va istiqbollari" yakuniy konferensiyasi bo'lib o'tdi.*

**Tadbirda O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi nomidan Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti direktori Baxtiyor Pulatov va "Green University" rektori Jasur Salixov ishtirok etdi.**

Ma'lumot uchun: "CLIENT II – Barqaror innovatsiyalar uchun xalqaro hamkorlik" moliyaviy tashabbusi doirasida Federal Ta'lim va tadqiqot vazirligi (Germaniya Ta'lim va fan vazirligi) tanlangan rivojlanayotgan mamlakatlar bilan talabga asoslangan ilmiy hamkorlikni rivojlantiradi.

2017-yildan buyon CLIENT II Markaziy Osiyo va Mo'g'uliston davlatlari bilan iqlim, atrof-muhit va energetika sohalari uchun hamkor mamlakatlardagi muayyan muammolarni yengib o'tishga yordam beradigan yechimlarni ishlab chiqish uchun 15 ta qo'shma loyihani boshladi.

Anjunanda loyihaning 8 yil davomidagi faoliyatiga oid umumiy ma'lumotlar hamda uning doirasida shahar suv resurslarini barqaror boshqarish, Markaziy Osiyo uchun ekoplatforma, Markaziy Osiyoda barqaror qishloq xo'jaligi uchun mintaqaviy platforma yaratish va boshqa loyihalar taqdim etildi.

2-may kuni Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universitetida («Green University») «BRMga erishish va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish bo'yicha iqlim ta'limi» va «Eco-Schools Uzbekistan» loyihalari doirasida milliy seminar boshlandi.



# TOSHKENTDA IQLIM BO'YICHA TA'LIM DASTURI TAQDIMOTI BO'LIB O'TDI

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, "Zamin" xalqaro jamoat fondi hamda BMT Taraqqiyot dasturining O'zbekistondagi vakolatxonasi hamkorligida tashkil etilgan tadbir pedagoglarni ta'lim jarayonida yangilangan "Iqlim qutichasi" to'plamidan foydalanishga tayyorlashga bag'ishlangan.

## Ma'lumot uchun

«Iqlim qutichasi» — maktab o'quvchilari va yoshlar uchun «iqlim o'zgarishi» mavzusidagi o'quv dasturi va bir xil nomdagi materiallar to'plami. Dastur iqlim o'zgarishi haqida ma'lumot, topshiriqlar, loyiha g'oyalari, o'yinlar, shuningdek, ushbu dolzARB mavzuni sinfda va darsdan tashqari mashg'ulotlar orqali o'qitish bo'yicha o'quvchilar uchun tavsiyalar va treninglarni o'z ichiga oladi.



13 tilda mavjud  
bo'lgan  
materiallar  
bilan tanishish  
uchun  
skannerlang

Seminarda "Iqlim qutichasi" materiallari to'plami taqdimoti, respublikadagi mакtab yoshidagi bolalar uchun iqlim ta'liming sharhi, o'qituvchilar uchun o'quv moduli taqdimoti va respublikada iqlim o'zgarishi mavzusida loyiha asosida o'qitish texnologiyasidan foydalanish bo'yicha mahorat darslari bo'lib o'tdi. Bundan tashqari, turli mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, o'qituvchilarga "Iqlim qutichasi" ni darslarda va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda qo'llash bo'yicha uslubiy tavsiyalar berildi.



2014-yilda BMTTD tomonidan ishlab chiqilgan o'quv qo'llanmasi maktablarda iqlim o'zgarishini o'rgatishning yangi usullarini taklif etadi, bu esa yoshlarga muammo haqida o'ylash, mumkin bo'lgan yechimlarni o'rganish va sayyorani himoya qilish va iqlim o'zgarishi ta'sirini boshqarish uchun aniq choralar ko'rish imkonini beradi.

"Iqlim qutichasi" O'zbekistonda mакtab o'quv dasturlariga kiritilib, mакtab o'quvchilari bilan sinfdan tashqari va mustaqil mashg'ulotlarda qo'llanilishi rejalashtirilgan. Materiallar turli yosh guruhlari uchun moslashtirilgan va nazariy bilimlarni ham, amaliy jihatlarni ham qamrab oladi. Ular tajribalar o'tkazish va olingan bilimlarni real hayotda qo'llashga qaratilgan iqlim loyihalarini ishlab chiqish/amalga oshirish bo'yicha tavsiyalarni o'z ichiga oladi.



## O'ZBEKİSTONDA EKOLOGİK VAZİYATNI BAHOLASH VA PROGNOZ QILISH UCHUN YAGONA MONITORING TİZİMİ ISHGА TUSHIRILADI

Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi axborot xizmati rahbari Lola Rahmonboyeva ishtirokida brifing o'tkazildi. Unda taqdim etilgan ma'lumotlariga ko'ra, belgilanmagan joylarga chiqindi tashlanishining oldini olish maqsadida respublika bo'yicha 200 ga yaqin zamonaviy videokamera o'rnatilib, vazirlikning "Situatsion markaz"ida doimiy nazorat yo'lga qo'yilgan.

Ekologiyaga oid masalalarni keng yoritish, aholining ekologik madaniyatini oshirish maqsadida "Ekologiya portali" axborot tizimi "gov.uz.eco" – vazirlikning veb-sayti ishgа tushirilgan.

Qayd etilishicha, yangi ekilgan daraxt va butalarni monitoring qilish, noqonuniy kesilishining oldini olish maqsadida "Yashil makon" yagona elektron axborot tizimi yaratilgan. Shuningdek, ekologiya sohasida amalga oshirilayotgan ishlар samaradorligini yanada oshirish maqsadida idoralararo integratsiyalashgan maxsus platformalar ishlab chiqilgan.

Jumladan, maishiy chiqindilar uchun majburiy to'lovlarni undirishda zamonaviy texnologiyalar ko'magida "ekopay.uz" tizimi joriy etildi. Davlat ekologik ekspertizasi jarayonida hujjatlarni elektron qabul qilish, xulosalar berish bo'yicha "eco-service.uz" tizimi ishgа tushirildi. Chiqindilarni boshqarish, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, suv muhofaza zonalari, o'rmon fondi yerlarida noqonuniy qurilmalarni monitoring qilib borish maqsadida "O'zbekkosmos" agentligi bilan hamkorlikda "gis.uzspace.uz" platformasi yaratildi. Tizim tegishli vazirlik va idoralar bilan integratsiya qilindi. Vazirlik faoliyatining tezkor va shaffofligini ta'minlash, aholi, tadbirkorlik sub'ektlari bilan elektron hamkorlik samaradorligini oshirish maqsadida Yagona interaktiv davlat

xizmatlari portalı orqali (YAIDXP) 10 turdag'i davlat xizmati ko'rsatilmoqda.

Hozirgi kunda Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tomonidan tegishli vazirlik va idoralar bilan birgalikda o'simlik va hayvonot dunyosi ob'ektlari, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, chiqindilarni utilizatsiya qilish joylarining davlat kadastrlari yuritib kelinmoqda.

Shuningdek, hayvonot va o'simlik dunyosi ob'ektlarining hisobi, monitoringi va kadastrini yuritish va ma'lumotlar bazasini shakllantirishda foydalanish uchun yagona klasifikator ishlab chiqildi. "Bioxilma-xillikni muhofaza qilish bo'yicha axborotni boshqarish tizimi" – "bcims.uznature.uz" geoportali yaratildi. Kadastr agentligining Davlat kadastrlari yagona tizimi – "map.geoportal.uz" geoportali bilan integratsiya qilindi. Bu borada ma'lumotlar bazasini shakllantirish maqsadida mutaxassislar zamonaviy uchuvchisiz uchish apparatlari bilan ta'minlandi. Ushbu maxsus platformalardan olingan tegishli ma'lumotlar ochiq ma'lumotlar portalida doimiy e'lon qilib borilmoqda.

Kelgusida ekologiya sohasida xizmatlarni sifatli olib borish maqsadida yagona geoaxborot ma'lumotlar bazasini yuritish, respublikadagi ekologik vaziyatni baholash va prognoz qilish uchun yagona monitoring tizimi ishgа tushiriladi. Vazirlikning mavjud yo'nalishlarini raqamlashtirishda jami 8 ta axborot tizimi joriy etiladi hamda elektron hukumatni rivojlantirish maqsadida vazirlik tomonidan ko'rsatiladigan davlat xizmatlari aholi uchun soddalashtiriladi.

**Muhayyo TOSHQORAYEVA,**  
O'zbekiston Milliy axborot agentligi.

# "ARAL SEA ECO MARATHON": OROL DENGIZI XALQARO E'TIBORNI TORTMOQDA



Orol dengizingin qurigan qismida Ekologiya vaziri Aziz Abduhakimov tashabbusi bilan 23-iyun kuni Butunjahon cho'llanish va qurg'oqchilikka qarshi kurash kuniga bag'ishlab "Aral Sea Eco Marathon" ("Orol dengizida eko-marafon") bo'lib o'tdi.

Marafonda Keniya, Togo, Fransiya, Xitoy, Yaponiya, Pokiston, Filippin va O'zbekistondan 12 nafar sportchi ishtirok etdi. Ular 42 km 195 m masofaga yugurishdi. Unda yurtimizdan Alimardon Sobirov, Denis Mambetov, Nurbek Husanov, Andrey Kulikov qatnashdi.

Tadbirdan ko'zlangan maqsad Orol dengizingin ekologik halokati va suv resurslaridan oqilona foydalanish zarurligiga dunyo e'tiborini jalb qilishdan iborat.

4 soat-u 43 daqiqa yo'l bosib o'tgan sportchilar Orolbo'yи fojasi naqadar jiddiy ekanini ta'kidlab, jahon hamjamiyatini suv resurslaridan oqilona foydalanishga chaqirdi.



Marafonni  
tomosha qilish  
uchun skanerlang



# EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA MAS'ULLIK VA FAOLLIK ZARUR

Dunyo miqyosida har yili 5-iyun — Butunjahon atrof-muhitni muhofaza qilish kuni sifatida keng nishonlanadi. 1972-yil 5-iyunda Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha Stokgolmda o'tkazilgan konferensiyaning rezolyutsiyasiga asosan qabul qilingan mazkur sana xalq orasida ekologlar bayrami ham, deya yuritiladi. Ushbu kun mazmun-mohiyatiga ko'ra, insoniyat oldida turgan keng ko'lamli va chuqur ildiz otishga ulgurgan muammolarga yechim izlashga yo'naltirilgani bilan ahamiyatli, desak yanglishmaymiz.

Shu bois, mamlakatimizda aholi uchun munosib turmush sharoitini yaratish maqsadida barcha sohalar qatorini atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik muammolarni hal etish va ularning salbiy oqibatlarini bartaraf qilish borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Sohaning mukammal tashkiliy-huquqiy asoslari yaratilishi barqaror rivojlanish kafolati bo'layotir.

**Binobarin, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 49-moddasi-da har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to'g'risidagi ishonchli axborotga ega bo'lishi huquqi bo'yicha norma kiritildi. Davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta'minlashi hamda atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishi qat'iy belgilab qo'yildi. Bu esa inson huquq va erkinliklarini, qonuniy manfaatlarini ta'minlashga xizmat qiladi.**

Mamlakatimizda so'nggi yillarda sohaga oid qabul qilingan 20 dan ortiq qonunlar ham ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va aholi salomatligini saqlashdagi islohotlar samaradorligini yanada oshirish barobarida mamlakatning ekologik barqarorligini ta'minlash imkonini berayotir.

Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilayotgan konstruktiv takliflar va amaliy tashabbuslar ham nafaqat mamlakatimiz, balki xalqaro jamoatchilik tomonidan katta qiziqish bildirilib, e'tirof etilmoqda.



Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga doir xalqaro shartnomalarga qo'shilish borasida ham tizimli ishlar ro'yobga chiqarildi. Bugungi kunga qadar O'zbekiston atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi 15 ta xalqaro konvensiya, bitimlar va ular doirasidagi 7 ta ko'p tomonlama xalqaro shartnomaga qo'shilgan.

Shu bilan birga, sohaga oid qabul qilingan strategiya va konsepsiylar doirasida hamda iqlim o'zgarishlarining oldini olish, unga moslashish bo'yicha keng qamrovli ishlar olib borilmoqda.

**B**irinchidan, sohaga davlat budgetidan ajratilayotgan mablag'lar miqdori oshdi. Barcha sohalar qatori atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik muammolarni hal etish masalalari davlat siyosatining eng muhim yo'naliishlari dan biriga aylandi. Birgina 2023-yilda davlat budgetidan ekologiya va atrof-muhit muhofazasi chora-tadbirlari uchun 7 trln. 31 mlrd. so'mdan ortiq mablag' sarflangan bo'lib, bu 2019-yilda ajratilgan mablag'larga nisbatan 4 baravarga ko'pdir.

Agar raqamlarga to'xtaladigan bo'lsak, so'nggi 6 yilda ichimlik suvi sohasiga davlat budgetidan 14 trillion 500 milliard so'm ajratilgan. Ushbu sa'y-harakatlardan natijasida 31 ming kilometr ichimlik suvi va oqova tarmoqlari o'tkazilib, 1200 ta SUV inshootida qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirilgan. Eng muhimi, 6,5 million aholi yashaydigan xonadonlarga ilk bor toza ichimlik suvi kirib borgan.

Birgina 2023-yilda respublika aholisining markazlashgan ichimlik suvi bilan ta'minlanish darajasi 74,4 foizdan 77,2 foizga yetkazilgan.

**U**chinchidan, O'zbekiston Respublikasi SUV xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo'ljallangan konsepsiysi doirasida mamlakatimizda aniq chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, SUV resurslarining taqchilligini oldini olish borasida o'tgan yilda 413 ming gektarda SUV tejovchi texnologiyalar joriy qilingan.

Bugungi kunga qadar 166,8 km. kanallar rekonstruksiya qilinib, 352,2 km. kanallar betonlashtirilgan. Bu, o'z navbatida, mavjud SUV resurslaridan oqilona foydalanish bilan birga, yetishtirilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tannarxining pasayishiga turtki bo'ladi.

Bugungi kunda 43 ta loyiha doirasida 8 641 MVt quyosh va 15 400 MVt shamol elektr stansiyalarini hamda jami quvati 3165 MVt bo'lgan elektr energiyasini saqlash tizimlarini qurish loyihalari bo'yicha ish olib borilyapti.

Shu o'rinda Prezidentimiz ishtirokida 2023-yil 27-dekabr kuni 5 ta quyosh va 1 ta shamol elektr stansiyasini ishga tushirish va tarmoqqa ularashga bag'ishlangan tantanali masorim bo'lib o'tganini keltirish maqsadga muvofiq.

So'nggi yillarda Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida 9 ta quyosh va shamol elektr stansiyasi tarmoqqa ulangani hamda Andijon, Samarqand, Surxondaryo va Toshkent viloyatlarida 6 ta GES ishga tushirilgani e'tiborga molik.

2030-yilga borib esa O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya quvvatlarini 25 gigavattga yetkazish ko'zda tutilmoqda. Bu tabiiy resurslarni tejash orqali atmosferaga issiqxonalar qazlari chiqishining oldini olishga xizmat qilishi, shubhasiz.

Olib borilayotgan sa'y-harakatlardan kelib chiqib, aytish mumkinki, bugunga kelib, mamlakatimizda ekologiya,

**I**kkinchidan, 2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiysi doirasida ham bir qator ishlar bajarilmoqda. Jumladan, Orol dengizining qurigan tubining O'zbekistondagi qismida o'rmonzorlar maydonini uning jami hududiga nisbatan 60 foizgacha yetkazish uchun 2018-yilning dekabr oyidan hozirgi kunga qadar qariyb 2 mln. hektarga yaqin maydonga saksovul, cherkes va boshqa sho'rga va qurg'oqchilikka chidamli o'simlik urug'lari sepilgan va ko'chatlari ekilgan.

Ushbu hududlarda cho'l o'simliklaridan "yashil qoplamar" — himoya o'rmonzorlari barpo etish ishlarning olib borilishi, o'z navbatida, Orol dengizining suvi qurigan tubidan ko'tarilayotgan qum, tuz va chang zarrachalarning salbiy ta'sirini kamaytirish, global iqlim o'zgarishlari va Orol dengizi qurishining qishloq xo'jaligi rivojlanishi hamda aholining hayoti va faoliyatiga salbiy ta'sirini yanada yumshatish imkonini beradi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan mamlakatimizda keng ko'lamma amalga oshirilayotgan "Yashil makon" umum-milliy loyihasi doirasida ham har yili 200 million dona daraxt va buta ko'chatlarining ekilishi shaharlarimiz, mahallalarimizga fayz bag'ishlovchi yashillikkaburkangan yashil hududlar barpo etilishi bilan birga, yurtimiz iqlimini mo'tadil saqlash, pirovardida ona tabiatimizni asrash, aholi salomatligini yaxshilash va xalqimiz farovonligini ta'minlashga xizmat qilishi, shubhasiz.

**T**o'rtinchidan, 2019 — 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi doirasida mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rinn tutuvchi "yashil iqtisodiyot", "yashil" energetika tamoyillarini amaliyatga joriy etish bo'yicha yirik loyihalari izchil tatbiq etilmoqda.

Atrof-muhitni muhofaza qilishga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi. Ushbu sohani boshqarish va tartibga soluvchi qonunchilik bazasi takomillashtirildi. Butunlay yangicha ekologik tafakkur, dunyoqarash shakllanib, aholining madaniyati yuksalmoqda. Bu esa yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda belgilab qo'yilgan hayotiy normalarning ijrosi samarali ta'minlanayotganidan dalolat beradi.

Umuman olganda, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiatga oqilona munosabatda bo'lish, flora va fauna olamini asrab-avaylash, global ekologik inqirozga yo'l qo'ymaslik — insoniyat oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. Butunjahon atrof-muhitni muhofaza qilish kunida esa baracha xalqlar birlashib, atrof-muhitni muhofaza qilishga, ona yerimizni asrab qolishga o'z hissasini qo'shami. Bundan biz ham ushbu jarayonda chetda turmagan holda, atrof-muhit muhofazasiga mas'ulligimizni oshirishimiz ayni muddao.

**Xayrullo GAFFOROV,**  
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri o'rinnbosari,  
O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi rahbari.



## O'ZBEKISTONLIK EKOLOGIYA SOHASIDAGI OLIMLAR JAHON MIQYOSIDA E'TIROF ETILMOQDA

Ekologiya vazirligi huzuridagi Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti direktori, texnika fanlari doktori Baxtiyor Po'latov Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqining (IUCN) iqlim inqirozi bo'yicha komissiyasiga a'zo bo'ldi.

O'zbekistonning komissiyaga a'zoligi xalqaro tashkilotlar va ilmiy ekspertlardan olingan eng yaxshi ilmiy ma'lumotlar va xulosalar asosida samarali,adolatli va ekologik toza yechimlarni ilgari surish imkonini beradi.

IUCN Iqlim inqirozi bo'yicha komissiyasiga a'zo bo'lish orqali O'zbekiston ekologik va iqlim o'zgarishi bo'yicha global kun tartibini shakllantiradigan milliy tashabbuslarni xalqaro maydonda targ'ib qilishi mumkin.

So'nggi yillarda O'zbekiston IUCN bilan hamkorlikni faol oshirmoqda. Avvalroq, joriy yilning fevral oyida yurtimizdagi Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universitetida ("Green University") Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqining vakolatxonasi ochilgan edi.

M a'lumot uchun, O'zbekiston 2021-yilda Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqiga a'zo bo'ldi. IUCN dunyodagi eng birinchi va eng yirik tabiatni muhofaza qilish tashkiloti bo'lib, hukumat va fuqarolik jamiyat tashkilotlari dan iborat. U Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasida kuzatuvchi maqomiga ega va butun dunyo bo'ylab 1400 dan ortiq a'zo tashkilotlar va 16 000 dan ortiq ekspertlarning tajribasi, resurslari va imkoniyatlardan foydalanadi.

## EKOLOGIYA VAZIRLIGIDA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH SOHASIDA XIZMAT KO'RSATGAN XODIMLAR TAQDIRLANDI

5-iyun kuni tabiatni muhofaza qilish borasida samarali mehnat qilib kelayotgan Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi mas'ul xodimlari, tizim tashkilotlari va hududiy bo'linmalar xodimlari hamda hamkor vazirliklar, idora va tashkilotlar vakillarini «Tabiat himoyachi» ko'krak nishoni bilan taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi.

Tadbirda mukofotlarni Ekologiya vaziri Aziz Abduhakimov o'z egalariga topshirdi.



Tadbirda Ekologiya vazirligi va uning hududiy boshqarmalari, Ichki ishlari, Sog'liqni saqlash, Favqulodda vaziyatlar, Adliya, Iqtisodiyot va moliya vazirliklari, Milliy gvardiya, O'rmon xo'jaligi va Gidrometeorologiya xizmati agentliklari, Orolbo'yi xalqaro innovatsiya markazi, sanitariya tozalash ishlarini tashkil etish Respublika markazi, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, xalqaro tashkilotlar, oliy ta'lif muassasalari va atrof-muhitni muhofaza qilishga bevosita daxldor bo'lgan boshqa tashkilotlarning jami 200 nafar xodimlari ko'krak nishonlari bilan taqdirlandi.

**“Bugun shuni alohida ta'kidlash joizki, biz tabiat oldidagi burchimizni unutmasligimiz, uni asrab-avaylashimiz va kelajak avlodlarga eng yaxshi holatda yetkazishimiz kerak. Shu bois mamlakatimizda aholining, ayniqsa, yoshlarning ekologik madaniyatini yuksaltirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va yuqori malakali kadrlar tayyorlash bo'yicha ishlarni izchil davom ettiramiz”, – dedi A. Abduhakimov. “Ushbu muhim kunda men Yangi O'zbekiston taraqqiyoti va butun xalq farovonligi yo'lida fidokorona mehnat qilayotgan ekologlar, inspektorlar, gidrometeorologlar va o'rmonchilar, g'ayratli olimlar va soha mutaxassislariga o'z minnatdorchiligidimni bildiraman”, deb qo'shimcha qildi vazir.**



Tadbirga  
bag'ishlangan  
viderolikni tomosha  
qilish uchun  
skanerlang



29-aprel kuni  
Ekologiya, atrof-muhitni  
muhofaza qilish va iqlim  
o'zgarishi vazirligida vazir  
Aziz Abduhakimov  
yoshlar bilan  
uchrashdi.



## EKOLOGIYA VAZIRI YOSHLAR BILAN UCHRASHDI

Uchrashuvda vazir yurtimizda yoshlarga sifatli ta'lif berish, kasb-hunarga o'qitish va bandligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilayotganini, Ekologiya vazirligi tomonidan ham bu borada samarali ishlar qilinganini ta'kidladi.

**O'tgan yilda vazirlikka jami  
130 nafar yoshlar biriktirilgan  
edi. Shulardan 60 nafardan or-  
tig'ining muammolari hal etildi, ularni  
kasb-hunarga o'qitish orqali bandligini  
ta'minlash, hayotda o'z o'rnnini topishi,  
shuningdek, huquqiy ongi va madani-  
yatini yuksaltirishga har tomonlama  
ko'maklashildi, — dedi**

**A. Abduhakimov.**

### Ma'lumot uchun

"O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturiga ko'ra, 123 ming nafar yoshlar davlat tashkilotlariga biriktirilgan. Har bir tashkilot rahbari o'ziga biriktirilgan yoshlar bilan uchrashib, ularning muammolarini o'rganishi va ijobjiy hal qilishi ko'zda tutilgan.

Uchrashuv davomida ana shu yoshlar bilan suhbat o'tkazilib, ularning muammo va takliflari tinglandi. Shuningdek, takliflar asosida kelgusida amalga oshiriladigan vazifa va tadbirlar "yo'l xaritasi" ishlab chiqildi.

Ma'lumotlarga ko'ra, yurtimizda 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar 19 milliondan ortiq yoki aholining 55 foizini tashkil qiladi. Mehnat bozoriga har yili 600 ming nafar yoshlar kirib kelayotgan bo'lsa, kelgusi 10 yilda bu raqam 1 millionga yetadi. O'z navbatida yoshlarga sifatli ta'lif berish, kasb-hunarga o'qitish va bandligini ta'minlash maqsadida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, bu ishlarni mahallada tashkil etish bo'yicha vertikal boshqaruva tizimi yaratildi. 9 500 ta mahallaga fidoyi va tashabbuskor yoshlar yetakchilari tayinlandi. Bu tizim orqali yoshlarga 100 dan ortiq imkoniyatlar yaratildi, ularni manzilli qo'llab-quvvatlash yo'lga qo'yildi.

Uchrashuvda vazir yoshlarning muammolarini o'rganish va ijobjiy hal qilish uchun alohida Ishchi guruh shakkantirilganligini va har bir taklif, murojaatga alohida e'tibor qaratilishini qayd etdi. Yakunda yoshlarga kasb-hunar va chet tillarini o'rganishlari uchun sertifikat berildi.

Ta'kidlash joizki, alohida ishslash talab etiladigan yoshlar har bir vazirlik va idoralarga biriktirilib, ularning bandligini ta'minlash, hayotda o'z o'rnnini topishi va bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish bo'yicha amaliy ishlar tashkil etib kelinmoqda. Joriy yilda Ekologiya vazirligiga Toshkent shahar, Yunusobod tumani "Turkiston" MFYdagi 25 nafar alohida ishslash talab etiladigan yoshlar biriktirilgan.

## BMTNING IQLIM O'ZGARISHI BO'YICHA KONVENTSIYASI DOIRASIDA YOSHLAR KONFERENSIYASI BO'LIP O'TDI

Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanida 2024-yilgi Butunjahon yoshlар festivali doirasida iqlim o'zgarishi bo'yicha yoshlар konferensiysi bo'lib o'tdi. Tadbir Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi hamda Yoshlar ishlari agentligi tomonidan tashkil etildi.



Festivalda 120 nafar mahalliy va xalqaro ishtirokchilar jumladan, "New Climate Innovation Center" MChJ asoschisi, Pan Gi Mun "Farovon kelajak uchun" jamg'armasi ijrochi direktori Raekvon Chang, Osiyo taraqqiyot bankining (OTB) O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Kanokpan Lao-Arayaa, shuningdek, Yoshlar muzokarachilari akademiyasi hammuassisasi Veena Balakrishna ishtirok etdi.

Konferensiyanan ko'zlangan maqsad yoshlarning iqlim o'zgarishi muammolarini bo'yicha xabardorligi va bilimini oshirish, iqlim bo'yicha tashabbuslarda ishtirokini kengaytirish, yetakchilik qobiliyatini rivojlantirish, tajriba va ilg'or tajriba almashish uchun platforma yaratishdan iborat.

O'zbekistonda iqlim o'zgarishi bo'yicha yoshlар konferensiysi mamlakatimizda iqlim o'zgarishiga qarshi kurash bo'yicha islohotlar va milliy strategiyani amalga oshirishda muhim o'rın tutadi. Festivalda yoshlarning ishtiroki iqlim muammolarini hal etish, iqlim o'zgarishiga moslashish va issiqxonalarini chiqindilarini kamaytirish bo'yicha yangi yondashuvlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

*"Iqlimga oid favqulodda holatlarga qarshi kurashish uchun zarur bo'lgan uglerod neytralligiga faqat hukumat yoki biznes tomonidan erishib bo'lmaydi. Yosh avlod uglerod neytralligi uchun mas'uliyatni his qilib, "Birinchi men" tamoyiliga amal qilgan holda o'z taqdirini o'zi boshqarishi vaqt keldi. Bugungi yoshlar kelajakdagи muammolarni boshqalar hal qilishini kutmasligi, o'z kelajagini o'zi boshqarishi kerak", – dedi Pan Gi Mun "Farovon kelajak uchun" jamg'armasi ijrochi direktori Raekvon Chang.*

Ta'kidlash joizki, hozirgi vaqtda iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish O'zbekistonda davlat siyosatining ustuvor yo'nalişlaridan biriga aylanib, iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlarini minimallashtirish bo'yicha tizimli yondashuv va samarali choralar ko'rishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan, nafaqat O'zbekistonda, balki butun Markaziy Osiyoda ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy muammolarni samarali hal etishga qodir bo'lgan

yangi avlod yetakchilari, menejerlari va mutaxassislarini tayyorlash muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan O'zbekistonda "Green University"ning ochilishi ham iqlim o'zgarishi va atrof-muhit muammolarini hal etishda ta'lim muhim ekanligini ta'kidlaydi.

Bundan tashqari, iqlim bo'yicha muzokarachilar guruhining yaratilishi milliy va xalqaro iqlim forumlarida ishtirok etish uchun zarur ko'nikmalarga ega bo'lgan yetakchilarning yangi avlodini tayyorlashga, avlodlararo muloqot va global iqlim bo'yicha muzokaralarda yoshlarni qo'llab-quvvatlashga yordam beradi.

Biroq, iqlim o'zgarishini muvaffaqiyatli o'rganish uchun chuqur fundamental tadqiqotlar talab etiladi. Buning uchun ilmiy va akademik salohiyatni oshirish, shuningdek, fanni iqlim o'zgarishi bo'yicha Milliy strategiyaga integratsiya qilish bo'yicha sa'y-harakatlar talab etiladi. Shu nuqtai nazardan, "Green University"da iqlimshunoslik rezidensiyasini yaratish rejalashtirilmoqda, u iqlim fanlari sohasida hamkorlikda tadqiqotlar olib borish va innovatsion yechimlarni ishlab chiqish uchun mahalliy va xalqaro ekspertlar, tadqiqotchilar va olimlarni jalb qiladi.

*"Osiyo taraqqiyot banki UNICEF tomonidan ma'qullangan Bolalar, yoshlар va iqlim bo'yicha harakatlar deklaratsiyasini qo'llab-quvvatlaydi. Biz ijobjiy o'zgarishlarni ilgari surish va sog'lom sayyorani targ'ib qilishda muhim o'rın tutayotgan O'zbekiston yoshlarini qo'llab-quvvatlaymiz", – dedi Osiyo taraqqiyot bankining (OTB) O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Kanokpan Lao-Araya.*

Tadbir, shuningdek, dunyoning turli burchaklarida, jumladan, O'zbekistonda yoshlар tomonidan aniqlangan iqlim muammolarini aks ettiruvchi xaritani ishlab chiqishga turki bo'ldi. Yoshlarning shaxsiy mas'uliyat va faol harakatlarini rag'batlantirish orqali uglerod izini kamaytirishga qaratilgan asosiy tashabbusi – "Me First Pledge" dasturini ishlab chiqish va ishga tushirishga alohida e'tibor qaratildi.

23-30 iyun kunlari Samarqand shahrida tashkil etilgan Xalqaro yoshlar ekologik oromgohi doirasida qator tadbirlar o'tkazildi.

Joriy yilda Markaziy Osiyoning barcha mamlakatlari – O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston ekologiya faollari safiga Ozarbayjon, Ven-griya va Turkiyadan kelgan ishtirokchilar qo'shildi.

Tashkilotchilar – «Zamin» xalqaro jamoat fondi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, Maktab-gacha va maktab ta'limi vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi, YUNICEF, BMTning Taraqqiyot dasturi hamda Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti.



# XALQARO YOSHLAR EKOLOGIK OROMGOHI



Ekologik savodxon yoshlar kelajak avlodlar uchun tabiiy resurslar va biologik xilma-xillikni asrab-avaylashning kafolati hisoblanadi. Yoshlarning ekologik ta'lim-tarbiyasi jamiyatning barqaror rivojlanishida asosiy omil bo'lib, bu mamlakat va butun sayyoramizning ekologik xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan eng muhim sarmoyadir.

Tadbirdan ko'zlangan maqsad iqlim o'zgarishiga qarshi kurashda yoshlarning rolini yoritish, yosh ekologik faollarga o'z taklif va tashabbuslarini ilgari surish imkoniyatini berish, mazkur hududlarda yoshlar ekologik harakatining integratsiyalashuviga ko'maklashishdan iborat.

Oromgoh doirasida seminarlar, xalqaro ekspertlar bilan iqlim kun tartibidagi dolzarb mavzular bo'yicha munozaralar bo'lib o'tdi. Shuningdek, COP-29 ko'rgazmasida mamlakatlar taqdim etishni rejalashtirayotgan loyihalarni ishlab chiqish va muhokama qilish, ularda yosh eko-rahbarlar ishtirok etishi masalalariga e'tibor qaratildi.

Samarqanddagi «Ipak yo'li» xalqaro turizm va madaniy meros universitetida ishtirokchilar faol guruh mashg'ulotlari, mahorat darslari va ekologik loyihalarni qatnashdi. Toshkent shahrida esa Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rGANISH universiteti ("Green University")ga tashrif buyurishdi. Tadbirda nutq so'zlagan universitet rektori Jasur Salixov yoshlarni ekologik masalalarga yechim topishga jalb qilish muhim ahamiyatga ega ekanligini, "Green University" ekologik tashabbuslarni har doim qo'llab-quvvatlashini ta'kidladi.

Tadbir davomida ishtirokchilar bir qator interaktiv tematik ma'ruzalar bilan mashg'ul bo'lishdi. Ma'ruzalar atrof-muhitga oid keng ko'lamli mavzularni qamrab oldi, jumladan:

- Atrof-muhit ifloslanishi: ifloslanish turlari, sabbablar va oqibatlari;
- iqlim o'zgarishi: hozirgi muammolar va kelajak prognozlari;
- biologik xilma-xillikning yo'qolishi: ekotizimni himoya qilish strategiyalari.

Har bir ma'ruza "Green University" ilmiy-tadqiqot institutlari ekspertlari tomonidan yoritib berildi. Qolaversa, tadbiriga tashrif buyurgan Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi (IUCN) mintaqaviy direktori Oliver Avramoski IUCN va uning kelgusi rejaliari haqida qisqacha ma'ruza qildi.



Tadbirga bag'ishlangan viderolikni tomosha qilish uchun skanerlang

Bundan tashqari, ekologik viktorina tanlovi tashkil etilib, ishtirokchilarning atrof-muhitga oid bilimlari sinovdan o'tkazildi. G'oliblar munosib taqdirlandi.

28-iyun kuni esa eko-oromgoh ishtirokchilari "Green University"da yangi tashkil qilingan bioxilma-xillikni saqlash laboratoriya-si bilan tanishtirildi. Yoshlarga laboratoriyyada amalga oshiriladigan tajribalar, imkoniyatlar haqida ma'lumot berildi.

Ma'lumot uchun, ushbu laboratoriya suvlar tarkibidagi turli iflosantiruvchi moddalarni aniqlash, tuproq tarkibi borasidagi turli tahlillarni amalga oshirish, daraxtning o'lchami, balandligi, yoshi, vertikalligi, tanasining zichligi, tanadagi o'zgarishlar kabi juda ko'p parametrlar bo'yicha batapsil ma'lumot olish, o'simlik va daraxlar bargida fotosintez jarayonida hosil bo'ladigan kislorod miqdorini, raqamli mikroskop yordamida esa turli moddalar, saralanadigan chiqindilar tarkibini aniqlanish imkonini beradi.

Shu bilan birga, yoshlar tomonidan quyidagi mavzular o'rta ga tashlandi:

- iqlim o'zgarishi va ifloslanishning bolalarga salbiy ta'sirini kamaytirish;
- iqlim, energiya va atrof-muhitga oid ma'lumotlarning bolalar uchun qulay versiyasini yaratish;
- elektr energiyasi, isitish va boshqa maqsadlarda toza energiyadan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish.

Eko-oromgoh ishtirokchilari ifloslanish, ayniqlsa, zaharli elektron chiqindilar (kichik batareyalar) tufayli kelib chiqadigan sog'liq muammolarini yumshatish uchun chiqindilarni boshqarish amaliyotini takomillashtirish lozimligini ta'kidladilar. Yosh eko-faollar, shuningdek, sanoat korxonalariga ruxsat berishdan oldin bolalarning atrof-muhitga sezgirligini baholash, qishloq xo'jaligi texnikasini takomillashtirish va tuproqning ifloslanishini kamaytiradigan muqobil usullarni o'rganish ham muhim ekanligini qayd etishdi.

Bundan tashqari, Xalqaro yoshlar ekologik oromgohi dasturi dan Samarcandning tarixiy diqqatga sazovor joylari — Go'ri Amir maqbarasi, Shohi Zinda majmuasi va Mirzo Ulug'bek rasadxonasi ga tashrif ham o'r'in olgani e'tiborga molik.



## TOSHKENT VILOYATIDA "O'RMON VOLONTYORLARI MAKtabi" EKO-OROMGOHI TASHKIL ETILDI

Joriy yilning 14–20-iyun kunlari Toshkent viloyatida, Ugom-Chotqol milliy tabiat bog'i hududida EKA hududlararo ekologik jamoat tashkiloti tomonidan O'zbekiston Respublikasi Ekoliya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, Prezident grantlari jamg'armasi, "Rossotrudnichestvo" agentligi va Ohangaron o'rmon xo'jaligi hamkorligida "O'rmon volontyorlari maktabi" eko oromgohi tashkil etildi.

Tadbirda jamoat birlashmalari rahbarlari, ekologiya sohasi yetakchilari, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar xodimlari, ekolog blogerlar, volonyorlar ishtirok etdi.

Oromgoh doirasida EKA Harakati mutaxassislari, Ohangaron o'rmon xo'jaligi xodimlari va mahalliy ekologik jamiyatlar vakillarining ma'ruzalarini tinglandi, tabiatni tozalashga qaratilgan tadbirlar, tog'larda sayr qilish, pitomniklarda ko'ngillilik faoliyati tashkil etildi. Shuningdek, o'rmonlarni qayta tiklash, iqlim o'zgarishi, bioxilma-xillik, ekologik loyihalarni yaratish va rag'batlantirish, o'rmonlarni muhofaza qilish va yaxshilash, melioratsiya, aholining ekologik ta'limi va jamoalar bilan ishslash kabi mavzularga ham e'tibor qaratildi.

Yetti kun davomida ishtirokchilar o'z loyihalari bo'yicha "yo'l xaritalari"ni tuzdilar, bular oromgohning so'nggi kunida himoya qilindi. Endi ekovolontyorlar yil davomida o'z g'oyalarini amalga oshirish ustida ishlashadi.

Tadbir yakunida loyiha hamkorlari tomonidan sertifikat va sovg'alar topshirildi.

### Ma'lumot uchun

Yaqin kunlarda tashkilotchilar avgust oyida Rossiya Federatsiyasining Novosibirsk viloyatida bo'lib o'tadigan Xalqaro o'rmon volontyorlari maktabida ishtirok etadigan 5 kishini tanlab olishadi.



# «SAYGACHIY» QO'RIQXONASI – YO'QOLIB BORAYOTGAN HAYVONLAR TURLARI SAQLAB QOLINADIGAN HUDUD

Xalqaro sayg'oqlar kuni munosabati bilan Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tomonidan "Saygachiy" majmua (landshaft) qo'riqxonasiga press-tur tashkil etildi.

Ma'lumot uchun, har yili 5-may butun dunyoda Xalqaro sayg'oqlar kuni sifatida nishonlanadi. Bu g'oya 2010-yil dekabr oyida Qozog'iston, O'zbekiston va Rossiya vakillari ishtirokida Uralskda "SOS sayg'oq!" loyihasi doirasida tashkil etilgan seminarda paydo bo'ldi.

Press-tur doirasida respublika ommaviy axborot vositalari vakillari qo'riqxona hududi, qo'riqxonaning o'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar bilan yaqindan tanishdi.

Umumiy maydoni 628,3 ming hektar bo'lgan "Saygachiy" qo'riqxonasi Qoraqalpog'istonning Mo'ynoq va Qo'ng'irot viloyatlari hududida, Qozog'iston bilan chegaradosh, Ustyurt tekisligida joylashgan. Qo'riqxona sayg'oq va boshqa noyob hayvonlar turlarining yashashi uchun eng qulay 5 ta hudud dan iborat. Bu yerda sayg'oqlarning an'anaviy ko'payish hududlari, yaylovlari va sug'orish joylari mavjud. "Saygachiy"da qishda havo harorati -25-30 darajaga tushadi,

yozda esa 40-45 darajaga ko'tariladi. Qo'riqxonaning ikkita qismi - Duana va Jideyli - Orol dengizi tubida joylashgan bo'lib, zinch saksovul bilan qoplangan.



**"2022-yilda olib borilgan monitoring ishlari davomida qo'riqxona hududida 73 turdag'i hayvonlar ro'yxatga olindi, ulardan 13 tasi — sayg'oq, jayron, turkman qulonlari, burgut va boshqalar O'zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan, — dedi qo'riqxona direktori Alisher Abdurahmonov. — Hudud har 10 kunda almashadigan ikkita navbatchi guruh tomonidan qo'riqlanadi va nazorat qilinadi. Zaxira inspektorlari uchun qulay shart-sharoit yaratish, monitoring ishlari va dam olishlarini tashkil etish maqsadida Almanbet va Beleuli uchastkalari hududida konteyner uylari tashkil etildi".**

Shuningdek, qo'riqxonada qish faslida hayvonlar boqiladigan hududlarda biotexnik tadbirlar muntazam o'tkazilmoqda.

## ILMIY MAQOLALAR

# STATISTICAL ANALYSIS OF VEGETATION INDICES OF THE UGAM CHATKAL NATIONAL PARK, BOSTANLIQ DISTRICT, DURING THE POST-SOVIET PERIOD (1991 – 2022) USING MANN-KENDALL TEST AND SEN'S SLOPE

<sup>1</sup>Alikhanov Bokhir Boriyevich, PhD student,

<sup>1</sup>Pulatov Bakhtiyor Alimovich, doctor of technical science, director,

<sup>1,2</sup>Samiev Luqmon Nayimovich, doctor of technical science,

<sup>1</sup>Research Institute of Environment and Nature Conservation Technologies,

<sup>2</sup>“Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers” National Research University.

**Abstract.** The manuscript investigates the trends in vegetation cover within the Bostanliq district through remote sensing data analysis. By employing NDVI and SAVI indices across Landsat satellite imagery and utilizing Mann-Kendall test and Sen's slope methodologies, the study aims to discern temporal changes in vegetation for the period 1991-2022. The findings reveal a statistically significant, albeit mild, upward trend in vegetation indices over the 31-year period, suggesting changes in vegetation cover that may be attributed to various factors including climate change, agricultural practices, and land use changes. The study underscores the importance of monitoring vegetation dynamics for environmental management and planning in the face of global change..

**Key words:** NDVI, SAVI, climate.

**Аннотация.** Манускрипт под названием «Статистический анализ индексов растительности Национального парка Угам-Чаткал Бостанлыкского района в постсоветский период (1991 – 2022) с использованием теста Манна-Кендалла и наклона Сена» исследует тенденции растительного покрова в районе Бостанлык через анализ данных дистанционного зондирования. Исследование выявило статистически значимый, хотя и умеренный, восходящий тренд в индексах растительности за 31-летний период, указывая на изменения в растительном покрове, которые могут быть связаны с различными факторами, включая изменение климата, сельскохозяйственные практики и изменение использования земель. Исследование подчеркивает важность мониторинга динамики растительности для управления окружающей средой и планирования на фоне глобальных изменений.»

**Ключевые слова:** NDVI, SAVI, климат.

**Annotatsiya.** “Ugom-Chotqol milliy parkining Bostanliq tumani o’simlik indekslarining Sovet davridan keyingi davrida (1991 – 2022) Mann-Kendall testi va Sena moyilligi yordamida statistik tahlili” nomli qo’lyozma Bostanliq hududidagi o’simlik qoplaming tendentsiyalarini masofadan zondlash ma’lumotlarini tahlil qilish orqali o’rganadi. Tadqiqot 31 yillik davrda o’simlik indekslarida statistik jihatdan ahamiyatlari, garchi o’rtacha bo’lsa-da, o’sish tendentsiyasini aniqladi, bu o’simlik qoplqidagi o’zgarishlarni turli omillar, jumladan, iqlim o’zgarishi, qishloq xo’jaligi amaliyotlari va yer foydalanishidagi o’zgarishlar bilan bog’liq bo’lishi mumkinligini ko’rsatadi. Tadqiqot global o’zgarishlar fonida atrof-muhitni boshqarish va rejalashtirish uchun o’simlik dinamikasini kuzatib borishning ahamiyatini ta’kidlaydi.

**Kalit sozlar:** NDVI, SAVI, iqlim.

### Introduction.

Vegetation is fundamental to the function and balance of various terrestrial ecosystems around the world, such as the savannas of Africa, the tundra of Siberia, the tropical rainforests, and the steppes of Central Asia, playing a key role in processes like energy exchange, carbon cycling, and water movement [1]. The presence of woody plants and grasslands is critical for the regulation of local and global climate conditions [2,3] ecosystems encompasses factors like biomass, verdancy, extent, and phonological changes, which are important yet distributed inconsistently across different regions [4] the East Africa region is among regions of Africa which have previously known the severe vegetation degradation. Some known reasons are associated with

the climate change events and unprofessional agricultural practices. For this purpose, the Advanced Very High Resolution Radiometer (AVHRR).

Human actions such as overgrazing, deforestation, and urban development can modify natural ecosystems, leading to shifts in land utilization and coverage, and a deterioration in vegetation quality. The growth, health, and classification of vegetation are significantly influenced by climatic conditions, particularly temperature and rainfall. Other environmental and climatic elements, including soil moisture, evapotranspiration, and sunlight exposure, also affect the spatial and temporal patterns of vegetation [5;6].

Recent research underscores the pivotal role of soil moisture as a connector between climate factors (like

precipitation and temperature) and NDVI, underlining its importance in supporting vegetation growth [7;8]layer 2: 7–28 cm, layer 3: 28–100 cm, and layer 4: 100–289 cm.

Remote sensing technology is distinguished as the sole method capable of persistently observing and pinpointing spatial and temporal vegetation changes over vast expanses and extended durations. NDVI time-series analysis is employed in numerous domains, such as agriculture, assessment of deforestation and forest fire risks, and the examination of desertification and rangeland degradation, to track variations in vegetation coverage [9;10;11;12;13;14;15;16;17].

The alteration of vegetation cover, whether due to human activities or climate changes, has significant repercussions on various environmental parameters. A reduction in vegetation biomass can change the reflective quality of the earth's surface, increase local temperature levels, affect evapotranspiration rates, and disrupt water cycles, among other effects [18]. Therefore, monitoring vegetation changes in specific regions is essential for predicting environmental transformations.

## Data and methods

### Remote sensing analysis

Remote sensing satellite images were obtained from Landsat series of data using Google Earth Engine platform. We used Landsat 5 TM, Landsat 7 ETM+ and Landsat 8 OLI satellites to apply NDVI and SAVI indices for the period from 1991 to 2022. Prior to that, image collections were filtered for the study area, study period and cloud cover (10%). In order to make analysis as accurate as possible we decided to use atmospherically corrected images to eliminate atmospheric influence to the image quality. For each month average NDVI and SAVI were computed for the whole study area combining two images within a month (with 16 days' difference).

For the NDVI index the standard formula was applied:

$$NDVI = \frac{NIR - RED}{RED + NIR}$$

For the SAVI index the following formula was applied:

$$SAVI = \frac{(NIR - RED)(1+L)}{(NIR + RED + 1)}$$

Where L equals to 0,5 for moderate climates.

### Data analysis

The Mann-Kendall (MK) test is a non-parametric approach designed to discern trends within a dataset, such as variations in hydrological or climatic measures, without presupposing a specific data distribution. This technique is adept at identifying trends, though it does not classify them as linear or otherwise. It aims to evaluate the null hypothesis, which posits the absence of a trend, against an alternative hypothesis that suggests a trend exists. For datasets encompassing 50 or more observations that exhibit a notable trend magnitude (with a minimum slope of 0.01), it's generally not required to adjust for serial correlation through pre-whitening prior to applying the MK test [19;20].

The calculation of the test statistic S involves comparing each data point within the series against all other subsequent points:

$$S = \sum_k^n \sum_{k=j+1}^n Sgn(y_j - y_k)$$

Where: n – is the total number of data points,  $y_j$  and  $y_k$  are data points at time j and k ( $j > k$ ), and  $Sgn(y_j - y_k)$  is the function that calculated as:

$$Sgn(y_j - y_k) = \begin{cases} 1, & \text{if } y_j > y_k \\ 0, & \text{if } y_j = y_k \\ -1, & \text{if } y_j < y_k \end{cases}$$

The Tau ( $\tau$ ) statistic for the Mann-Kendall test is a measure of correlation and is calculated as:

$$\tau = \frac{S}{\sqrt{(n(n-1))/2\sqrt{n(n-1)(2n+5)-\sum t_i(t_i-1)(2t_i+5)}/18}}$$

Where:
oylik konsentratsiya me'yor (REM) darajasida va undan past bo'lganligini ko'rsatdi (2-jadval). Ammo bu faqat kuzatuv postlaridagi holatdir. Biroq sanoatlashgan hududlar, masalan, G'uzor, Dehqonobod tumanlarida bunday kuzatuv ishlari amalga oshirilmaydi.

Statsionar kuzatuv punktlarida azot oksidi (NO), azot II oksidi ( $\text{NO}_2$ ), oltengugurt dioksidi ( $\text{SO}_2$ ), uglerod oksidi (CO), muallaq zarrachalar (chang) va boshqa birikmalar o'lchanadi. Ushbu zararli gazlar inson organizmi uchun nihoyatda zararli hisoblanib, azot oksidlarining havoda me'yordan ortib ketishi insonda o'pka va bronxlar faoliyatining buzilishiga, nafas yo'llari infeksiyalariga olib keladi. Oltengugurt dioksidi esa shilliq pardalarga ta'sir ko'rsatishi, tomoq-burun yallig'lanishi, bronxitlar, yo'tal, tomoq bo'g'ilishi va og'rishini keltirib chiqarishi mumkin. Uglerod oksidi inson qoni dagi gemoglobin bilan mustahkam kompleks birikmalar hosil qiladi va bu bilan qonga kislorod kelishini to'sib qo'yadi.

2-jadval.

**Janubi-g'arbiy Hisor tog' va tog'oldi hududlari atmosfera havosining kimyoiy birikmalar bilan ifloslanishi**

Chang va zaharli gazlar	Tekshirish postlari	2020		2021	
		mg/m <sup>3</sup>	REM	mg/m <sup>3</sup>	REM
Chang	Shahrisabz	-	0,15	-	0,15
	Denov	0,07	0,15	0,10	0,15
Oltingugurt (IV) oksidi ( $\text{SO}_2$ )	Shahrisabz	0,013	0,05	0,019	0,05
	Denov	0,03	0,05	0,013	0,05
Uglerod (II) oksidi (CO)	Shahrisabz	-	3,0	-	3,0
	Denov	0,5	3,0	0,7	3,0
Azot (IV) oksidi ( $\text{NO}_2$ )	Shahrisabz	0,03	0,4	0,02	0,4
	Denov	0,01	0,4	0,06	0,4
Vodorod-ftorid (HF)	Shahrisabz	-	0,005	-	0,005
	Denov	0,017	0,005	0,001	0,005

**Suv resurslarini ifloslantiruvchi manbalar.** Nazorat punktlaridagi suv ifloslanishining umumiy darajasini gidrokimyoiy tahlil natijalari bo'yicha baholash uchun suv sifatining standart ko'rsatkichi – Suv ifloslanishi indeksi (SII) hisoblanadi va suv sifatining sinfi belgilanadi. Ushbu kuzatishlarga ko'ra, 2021 – 2022-yillarda Qashqadaryoning yuqori oqimida (Varganza kuzatuv punktida) SII 0,3 dan 1,0 gacha (II-toza), Surxondaryoning yuqori oqimida (Denov kuzatuv punktida) 1,1 dan 2,5 gacha (III-o'rtaча ifloslangan) kuzatilgan [4; 16-b.]. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasining monitoring ma'lumotlariga ko'ra (2020) ochiq suv havzalari ifloslanishining ko'rsatkichlari Qashqadaryo viloyatida 47,3% gacha, Surxondaryo viloyatida 26,8% qayd etilgan. Ichimlik suvi ta'minoti G'uzor, Dehqonobod, Sherobod tumanlarida 30% ga ham yetmaydi. 2020-yil 30-iyun holatiga ko'ra, gidrometerologik va seysmologik holatlar natijasida sodir bo'lgan respublika bo'yicha 115 ta holatda xavfli ekzogen va geologik jarayonlar ro'yxtatga olingan bo'lib, shuning 23 tasi Surxondaryo viloyatida, 56 tasi Qashqadaryo viloyatida sodir bo'lgan. Xavfli ekzogen va geologik jarayonlar 61 tasi – ko'chki, 24 tasi – ko'chkili yorilish, 11 tasi – qulash, 19 tasi – boshqa jarayonlarni (bo'shliq, toshqin va h.k.) tashkil qildi.

**Tuproqlarni ifloslantiruvchi manbalar.** Tuproq qoplamni og'ir metallar bilan ifloslanishining quyidagi asosiy manbalari mavjud: metalni qayta ishlash sanoati, yoqilg'i sanoati chiqindilar, avtomobillar tutuni, qishloq xo'jaligida qo'llaniluvchi kimyoiy moddalar.

G'uzor daryosining o'rta oqimi, G'uzor adirlari, Pachkamar botig'i, Dehqonobod past tog'larining tuproqlari ftor, rux, marginush kabi og'ir elementlar bilan kuchsiz va o'rtacha, Pashxurt botig'ida o'rtaча ifloslangan [4; 16-b.]. Sanoat korxonalar faoliyatidan hosil bo'lgan gazlar: uglerod dioksidi, azot dioksidi, oltingugurt dioksidi va uglerod oksidi tuproqning bilvosita ifloslanishiga olib keladi. Bular yomg'ir suvi bilan birlashib, kislotali yomg'ir hosil bo'lishiga olib keladi, bu esa tuproqning pH qiymatini o'zgartiradi

Janubi-g'arbiy Hisor tog'larining yonbag'irlarini o'z ichiga oladigan Qashqadaryo daryosining havzasida, anchagina maydon surilma hodisasining rivojlanishi natijasida, xo'ja-

likda foydalanishi uchun yaroqsiz yerga aylangan. Surilma hodisalari Jinnidaryo, Kichik O'radaryo, Oqsuv va Katta O'radaryo havzalarida kuchliroq rivojlangan. Bu daryolar havzasini maydonining yarimidani ko'p qismi erozion jarayonlarga ham uchragan. Uning tuproq qoplamining 12 % i kuchli yuvilgan, 40,5 % i o'rtaча va kuchsiz yuvilgan tuproqlarning tashkil qiladi [5; 58-b.].

Qashqadaryo havzasining adir mintaqasidagi yaylovlar tarkibidagi zaharli va begona o'tlarning ulushi, chorvachilikning rivojlanishi, lalmi dehqonchilik, sug'orma dehqonchilik kabilalar asosiy ta'sir etuvchi jarayonlar hisoblanib, ular adir mintaqasida o'rta tog' va yuqori tog' yaylovlariga nisbatan degradatsiya jarayonini tezlashtirgan [10; 21-b.].

Surxontog' va Ketmonchopti tizmalarining sharqiy yonbag'irlaridagi o'rmonlarning quyi chegarasi bir necha yuz metrga balandlashgan. Tabiiyki, bir necha o'n yil muqaddam ularning chegarasi bunday bo'limgan. O'rmonlar maydonining qisqarishi esa xavfli tabiiy geografik jarayonlarning faol kechishiga sabab bo'ladi. O'rmonlar ko'plab xavfli tabiiy geografik jarayonlarning oldini olishda va ularga qarshi chora sifatida asosiy to'siq bo'la olishi ma'lum. Masalan, birgina shamolning harakatiga o'rmonlar ta'siri 250 m masofadan, o'rmondan qarshi tomonga harakatida esa, 1500 m dan bilina boshlaydi. O'rmon ichida shamol tezligi 1m/sek dan oshmaydi [11; 54-b.].

**O'simlik va hayvonot dunyosiga ta'sir.** O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan 49 oilaga mansub 314 tur o'simliklarning 35 oilaga mansub 135 turi Janubi-g'arbiy Hisor tog' va tog'oldi landshaftlarida uchraydi va shulardan 80 turga yaqini Hisor uchun endemik tur hisoblanadi [12]. O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobida o'simlik turlariga kamyoiblik darajasiga ko'ra 4 ta maqom (status) berilgan bo'lib, Janubi-g'arbiy Hisor tog' va tog'oldi landshaftlarida uchraydigan 1 ta turning maqomi 0 (yo'qolgan yoki yo'qolib ketganligi ehtimoldan yiroq emas); 52 ta turning maqomi 1 (yo'qolib ketish arafasida turgan); 40 turning maqomi 2 (kamyoib); 42 ta turning maqomi 3 (son jihatdan kamayib borayotgan) ga mansubdir [13]. Ushbu 135 tur o'simlikning 73 turi hech qanday muhofaza ostiga olinmagan yoki muhofaza choralar ishlab chiqilmagan.

Janubi-g'arbiy Hisor tog' va tog'oldi landshaftlarida o'simlik turlari kamayishining asosiy sabablari qilib quyidagilarni ko'rsatish mumkin: tog'oldi hududlarining uzlusiz o'zlashtirilishi, chorva mollarining tartibsiz boqilishi, mahalliy aholi tomonidan muttasil va nooqilona atir-upa sanoati uchun hamda dorivor xomashyo sifatida yig'ib olish, urug'ining turli hasharotlar tomonidan zararlanishi, maxsus sharoitga moslashganligi, o'simlikning atrof-muhitning o'zgaruvchan sharoitiga chidamsiz ekanligi va h.k.

O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan 206 hayvon turlaridan 49 tasi Janubi-g'arbiy Hisor tog' va tog'oldi mintaqasida yashaydi. Jumladan, Qizil kitobga kiritilgan 32 tur sutevizuvchilarining 15 turi, 52 tur qushlarning 14 turi, 21 tur sudralib yuruvchilarining 8 turi, 18 tur baliqlarning 3 turi va 83 tur umurtqasizlarning 9 turi Janubi-g'arbiy Hisor tog' va tog'oldi mintaqasida yashaydi. Ushbu 49 turning 24 tasi Tabiatni muhofaza qilish Xalqaro ittifofi (TMXI) ro'yxatiga kiritilgan.

Janubi-g'arbiy Hisor tog' va tog'oldi landshaftlarida hayvonot olami vakillarining tur va son jihatdan kamayish sabablari o'rganilganda barcha hududlarga xos umumiy sabablar (iqlim o'zgarishi, brakonerlik) bilan birgalikda, aynan xususiy sabablar ham mavjudligi ayon bo'ldi.

Tog' va tog'oldi hududlarining hayvonlari hamda ularning yashash makonlarining o'zaro bog'liqligini o'rganish juda muhim bo'lib, bunda landshaft tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega. Bugungi kunda hayvonlarning turli ta'sirlar oqibatida tur va son jihatidan kamayishi tog' geotizimlari hayvonot olamini landshaftga bog'liq holatda o'rganishni taqozo etmoqda. Bunda landshaft zoogeografiyasi muhim ahamiyatga ega. Landshaft zoogeografiyasi – hayvonlarning landshaftlar va mintaqalar bo'yicha tarqalish qonuniyatlarini ochib beradi.

Janubi-g'arbiy Hisor tog' va tog'oldi landshaftlaridan foydalanishda bir qator antropogen faoliyat turlari mavjud. Ular orasida tog'-yaylov chorvachiligi, lalmikor dehqonchilik, o'rmonchilik, dorivor o'simliklarni terish, rekreatsiya va turizm, ovchilik, yoqilg'i sonoati kabi yo'nalishlar bir muncha jadallahsgan.

Hozirda Janubi-g'arbiy Hisor tog' va tog'oldi landshaftlaridan qishloq xo'jaligida foydalanish tuzilmasida uchta asosiy tarmoq – yaylov chorvachiligi, sug'orma hamda lalmikor dehqonchilik mavjud.

Janubi-g'arbiy Hisor tog' va tog'oldi hududi landshaftlarda dala tadqiqotlari davomida antropogen ta'sir oqibatida quyidagi holatlar aniqlandi:

- ekologik tizimlar barqarorligining buzilishi va tabiiy landshaftlar ko'rinishining o'zgartirishi;
- oqova va chiqindi suvlarni tashlash uchun relyefning past joylaridan foydalanish;
- sanoat usulida qayta ishslash maqsadida dorivor, oziq-ovqatbop va texnik o'simliklar xomashyolarini tayyorlash;
- qishloq xo'jaligi ekinlari va boshqa o'simliklarni himoyalash maqsadida kimyoviy zaharli vosita (pestitsid)larni keng qo'llash;

- hayvonlarni noqonuniy ovlash, daraxt va butalarni kesish;

- daryo va soylarning gidrologik rejimini o'zgartirish;
- sanoat obyektlarining faoliyati, ularni qurish, joriy ta'mirlash va h.k.

Tadqiqotlar va adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadi, Janubi-g'arbiy Hisor tog' va tog'oldi landshaftlariga ta'sir ko'rsatuvchi va ularni ifloslantiruvchi asosiy manbalar quyidagilardan iborat: 1) sanoat korxonalaridan chiqadigan zaharli texnogen chiqindilar; 2) agrolandshaftlarga ishlov berishda qo'llaniladigan va zararkunanda hasharotlarga qarshi kurashishda ishlatiladigan zaharli kimyoviy birikmalar; 3) avtotransport vositalaridan chiqadigan turli xil zaharli gazlar; 4) maishiy-xo'jalik korxonalaridan chiqadigan chiqindilar; 5) atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi mahalliy shamollar; 6) shaharlar va yirik qishloqlarning tevarak-atrofga chiqaratotgan chiqindilar.

Ularni umumlashtirib, Janubi-g'arbiy Hisor tog' va tog'oldi landshaftlariga antropogen ta'sir omillari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: 1) turizm va rekreatsiya faoliyati; 2) uy-joylar qurilishi va kommunal chiqindilar; 3) sanoat korxonalarining faoliyati; 4) chorva boqish; 5) sug'orma dehqonchilik; 6) lalmikor dehqonchilik; 7) inshootlar qurilishi [3; 126-b.]


**Turizm va rekreatsiya faoliyati.** So'nggi yillarda turizimni, xususan, tog' turizmini rivojlantirishga oid ko'plab talab ortib borayotgan paytda ekoturizm va tog' turizmini rivojlantirishda muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, o'zgarмаган tabiiy landshaftlar, tabiat yodgorliklari, noyob tabiiy obyektlardan oqilona foydalanishga ustuvor ahamiyat berilmoxda. Shuningdek, kurort-rekreatsiya zonalarida tog'-kurort majmualarini barpo etish, sayyohlar uchun mehmon uylarini qurish va tabiiy obyektlarda mavsumiy rekreatsiya dam olish hamda sog'lomlashtirish maskanlarini yaratish, noyob tabiiy obyektlardan foydalanishda sayyohlik yo'nalishlarini ishlab chiqish, ekopark va eko-agroturistik markazlarni kengaytirish muhim hisoblanadi. Masalan, Qizilsuvdaryo havzasining o'rta oqimidagi Suvlisoy (Tatar) qishlog'ining yuqori qismidagi sharshara va daryo vodiysida yoz kunlari sutka mobaynida 100 ga yaqin kishi hordiq chiqarish maqsadida tashrifi amalga oshganligi kuzatilgan. Chunki, hudud rekreatsiya uchun juda qulay joy hisoblanib, landshaftlar antropogen ta'siriga uchragan hududga aylanishi mumkin.

**Uy-joylar qurilishi va kommunal chiqindilar.** Insonlar o'zlarini uchun doimiy yashash, dam olish va shaxsiy xo'jalikni yuritishga mo'ljallangan yakka tartibdagi uy-joy va yordam-chi-xo'jalik imoratlari qurishadi.

Tog' xalqlarida, ayniqsa, qishloq aholi manzilgohlarida yordamchi-xo'jalik binolari, ya'ni uy hayvonlari va parrandalarni saqlash uchun imoratlar, omborxon, tandirxon, yerto'la, hovlidagi hojatxona, dushxona, issiqxona, hovuz va boshqa funksional imoratlar ham quriladi (2-rasm).

Inson faoliyati natijasida hosil bo'lvchi maishiy chiqindilar qattiq (oziq-ovqat va o'simlik chiqindilar, to'qimachilik mahsulotlari, shisha, rezina, qog'oz, plastmassa, yog'och chiqindilar), foydalanish xususiyatlarini yo'qotgan

uy-ro'zg'or buyumlari, shuningdek, qattiq yoqilg'ida ishlovchi maishiy isitish pechlari va bug'qozonlaridan foydalanish nati-jasida hosil bo'luvchi chiqindilar), suyuq (oqova suvlari, chi-qindi to'kiladigan o'rallarda yig'ilgan turli xil suyuq chiqindilar, ishlab chiqarish jarayonida hosil bo'ladijan yuvindi chi-qindilar, markazlashmagan kanalizatsiyaning chiqindilar) va yirik gabaritli maishiy chiqindilar – eskirgan mebellar, maishiy texnikalar (sovutkichlar, kir yuvish mashinalari, televizorlar), tashkiliy texnikalar (kompyuterlar, printerlar), texnik uskunalar, avtotransport vositalarini almashtirish nati-jasida hosil bo'ladijan qattiq maishiy chiqindilar, shuning-dek, daraxt va butalarni kesish hamda agrotexnik ishlov berishda hosil bo'ladijan chiqindilar (daraxt va buta shox-shabbalari, barglar va boshqalar)ning aksariyati tabiatga chiqarilmogda. Bunday chiqindilarni qayta ishslash o'rganilayotgan obyektda deyarli amalga oshirilmaydi.



2-rasm. Janubi-g'arbiy Hisor tog' va tog'oldi tumanlaridagi aholi uylari soni.

**Sanoat korxonalarining faoliyati.** Sanoat korxonalari va konlardan chiqayotgan og'ir metallar tuproq qoplamiga yoki suv muhitiga tushganda parchalanish davri uzoq davom etadi.

Janubi-g'arbiy Hisor tog' va tog'oldi hududida mezzozoy erasining yuqori va o'rta yura davriga tegishli neft (Qo'shquduq, Dehqonobod, Shimoliy Tandircha), tabiiy gaz (Sho'rtan, Gumbuloq, Omonota, Odamtoш), toshko'mir (Boysun, Sharg'un), kaliy tuzi (Tyubegatan), osh tuzi (Boybichakon), polimetal rudalari (Chaqchar, Ko'l dara, Kondiza), dolomit (Pachkamar), gabbro (Zarabog'), marmar (Ixsona, Birkunlik), granit (Zarabog'), keramzit xomashyosi (Pachkamar, Bandixon), sement xomashyosi (Beshbulq), g'isht-cherepitsa xomashyosi (Susulton, Yakkabog') kabi foydali qazilma konlari mavjud.

Janubi-g'arbiy Hisor respublikamizning 5 ta neft-gazli mintaqalardan biri va katta miqdordagi xomashyoga ega hududdir. O'tgan asrning 60-yillardan boshlab olib borilgan geologik-qidiruv natijalariga ko'ra bu yerda bir necha o'nlab neft va gaz konlari ochilgan.

Har bir neft-gaz konini topish va uni ishga tushirish jarayonida bir necha o'nlab geologik burg'ulash ishlari olib boriladi. Har bir quduqni burg'ulash jarayonida 10 dan ortiq kimyoviy reagentlar ishlatiladi. Ularning tuproq qoplamiga tushishi va yog'inlar tufayli yerosti suvlariga sizib o'tishi tekisliklarga nisbatan tog'larda kuchliroq namoyon bo'ladi.

Bu esa o'z navbatida tuproq va o'simlik qoplaming va yerosti suvlarining kimyoviy reagentlar ta'sirida ifloslanishiga olib keladi. Har bir burg'ulash qudug'i o'rtacha 0,4 ga maydonidagi yerning tabiiy holatini butunlay o'zgartirib yuboradi [7; 63-b.].

Janubi-g'arbiy Hisor tog' va tog'oldi hududidagi 11 ta qishloq tumanlarida 2015-yilda 1715 ta sanoat korxonasi mavjud bo'lgan bolsa, bu ko'rsatkich 2021-yilga kelib 3346 taga ko'paydi (3-rasm).



3-rasm. Janubi-g'arbiy Hisor tog' va tog'oldi tumanlarida sanoat korxonalarining dinamikasi.

**Chorva boqish.** Adirlar va past tog'larning yonbag'irlari chorva boqish va pichan tayyorlash uchun, o'rtacha baland va baland tog'lar bahor, yoz va kuz oylarida yaylov chorvachiligi uchun foydalilanadi.


Yaylovlarda boqiladigan chorvalar soni ularning sig'i-midan ortiq. Uzlusiz ko'p chorva boqish yaylovlarning hosildorligining keskin pasayishiga, ozuqabop o'tlar o'rniga begona o'tlarning ko'payib ketishiga olib kelgan. Natijada tabiiy o't qoplami nihoyatda siyraklashgan, yaylovlarda o'simlik qoplaming kamaygan yonbag'irlarda tuproq eroziyasi avj olmoqda.

2021-yil ma'lumotiga ko'ra, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatidagi 7 mln 150 ming boshga yaqin qo'y va echkilarining 3 mln 100 minga yaqini yoki 43 % dan ortig'i Janubi-g'arbiy Hisor tog' va tog'oldi tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Janubi-g'arbiy Hisor tog' va tog'oldi hududlariga to'g'ri keluvchi – Kitob, Shahrisabz, Yakkabog', Qamashi, Dehqonobod, G'uzor, Boysun, Sarosiyoh, Sherobod, Oltinsoy, Denov tumanlarida 2001-yilda jami 1 mln 345 ming bosh qo'y va echki mavjud bo'lgan bolsa, bu ko'rsatkich 2010-yilda 2 mln 85 ming boshni, 2021-yilda 3 mln 90 ming boshni tashkil qilgan. Hududdagi tipik tog'li hisoblangan Dehqonobod va Boysun tumanlarida mos ravishda 728 ming va 373 ming bosh qo'y va echki to'g'ri kelmoqda (4-rasm).

Janubi-g'arbiy Hisor tog' va tog'oldi hududiga to'g'ri keluvchi tumanlarda hozirda 1 mln 36 ming bosh qoramol mavjud bo'lib (2021), bu ko'rsatkich 2010-yilda 676 ming boshni, 2001-yilda 458 ming boshni tashkil etgan.

Statistik ma'lumotlardan ko'rindaniki, oxirgi 20 yilda hududda qo'y va echkilar soni 2,3 barobar, qoramollar soni 2,26 barobar ko'paygan. Natijada yaylov o'simliklari



### ■ Qo'y va echkilar soni

4-rasm. Janobi-g'arbiy Hisor tog' va tog'oldi tumanlaridagi barcha toifa xo'jaliklarda qo'y va echkilar soni dinamikasi.

hosildorligi kamaygan, eroziya jarayoni va changalzorlashganlik darajasi ko'paygan, o'simliklarning avlod davomiyligiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatgan.

**Sug'orma dehqonchilik.** Tog'li va tog'oldi hududlarda sug'orma dehqonchilik katta ahamiyat kasb etmasa-da, ushbu tarmoq Janobi-g'arbiy Hisorda mavjud. Qishloq xo'jaligining bu tarmog'i Janobi-g'arbiy Hisorning tog' va tog'oldi hududlarida mavjudligi uning janubda, tog' quruq cho'l va chalacho'l landshaftlarining tarkib topganligi va asosan sug'orib dehqonchilik qilinadigan mintaqada joylashganligi bilan izohlanadi. Bu esa o'ziga xos adir va tog' vohalarining shakllanishiga zamin yaratgan.

Inson ko'pincha yonbag'irlarning landshaft holati, dinamik va rivojlanish bosqichlarini to'liq hisobga olmasdan xo'jalik faoliyatini amalga oshiradi. Eroziya jarayonlarining rivojlanishida kishilarning xo'jalik faoliyatining ta'siri qiya yonbag'irlarning noto'g'ri shudgorlanishida namoyon bo'ladi.

**Lalmikor dehqonchilik.** Janobi-g'arbiy Hisorning tog'oldi hududlaridagi katta maydonlardan lalmikor dehqonchilikda foydalaniladi. Lalmikor yerlar, ayniqsa, Qashqadaryo havzasida katta maydonlarni egallaydi.

Hisor tog' tizmalari lalmi tuproqlari ustida maxsus tadqiqot olib borgan A.X.Qorayev (2019) ma'lumotiga ko'ra, sifat jihatidan yomon yerlar har bir tumandagi jami haydalma lalmi yergarga nisbatan Shahrisabz tumanida 3,5 % ni, Deh-

qonobodda 0,9 % ni va G'uzorda 23,0 % ni; sifat jihatidan o'rtachadan past yerlar Shahrisabzda 96,5 % ni, Dehqonobodda 77,7 % ni va G'uzorda 77,0 % ni; sifat jihatidan o'rtacha yerlar Dehqonobod tumanida mavjud bo'lib, tumandagi jami haydalma lalmi yergarni 21,4 % ini tashkil etadi [8; 20-b.].

Janobi-g'arbiy Hisordagi tuproqlar kuchsiz ravishda suv va sug'orish eroziyasiga uchragan. To'palang daryosining o'rta oqimi havzasidagi tuproqlar o'rtacha va kuchli sug'orish, Ko'hitangning sharqidagi past tog'lar tuproqlari esa shamol eroziyasiga uchragan. Shu sababli tog' yonbag'irlarida yergarni haydashni eroziyaga qarshi tadbirlarni hisobga olgan holda bajarilishi kerak. Eroziya xavfini baholay bilmaslik noxush oqibatlarga olib keladi. Tog'li hududlarda daraxt va butalarni kesish, o'tlarni payhon qilish yergarning katta maydonlarda yuvilishiga olib keladi. Tuproqdan azot, fosfor va kaliyning yuvilishi natijasida tuproq unumdorligi 50-60 % gacha kamayishi mumkinligi dalillar bilan isbotlangan.

**Inshootlar qurilishi.** Aholi va sanoatning ehtiyojlarini qondirish va xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash uchun turli xil muhandislik inshootlar qurilishi muhim rol o'ynaydi. Janobi-g'arbiy Hisor tog' va tog'oldi hududlari ikki viloyatni ajratib turuvchi chegara bo'lishi bilan birgalikda O'zbekistonning Afg'oniston, Eron, Pokiston davlatlari bilan bog'lovchi muhim geografik obyekt hamdir. Ushbu hududdan muhim magistrallar – Katta o'zbek trakti va Toshg'uzor-Boysun-Qumqo'rg'on temir yo'lining o'tganligi so'zimizning isbotidir.

Bundan tashqari so'nggi yillardagi islohotlar samarasini o'laroq uzoq tog'li qishloqlargacha avtomobil yo'llari, elektr energiya liniyalari, gaz quvurlarining o'tkazilishi munosabati bilan muhandislik ishlarining ko'lami ortdi. Ko'plab ko'priklar, GES lar, sanoat korxonalari qurilib foydalanishga topshirildi. Bular qatoriga To'palang daryosidagi To'palang, Zarchob I, Zarchop II GES lari, ko'pgina ko'priklar, temir yo'l stansiyalarini kiradi. Albatta bunday inshootlarning qurilishi beziyon bo'lib qolmaydi va landshaftlarni ma'lum darajada o'zgartiradi.

V.A.Rafiqov (2006) fikricha, muhandislik inshootining atrof-muhit omillari ta'siriga bardoshligi turg'un bo'lsa, o'z navbatida uning atrof-muhitga ko'rsatadigan texnogen ta'siridan uni dinamik holatida keskin o'zgarishlar sezilmasa, ularning barqarorlik funksiyalari uzoq vaqt davom etadi [9; 96 – 98-b.].

### Xulosa.

Yuqoridagi kabi antropogen faoliyatlar tufayli landshaftlarda o'zgarishlar ro'y beradi. Tabiiyki bu o'zgarishlar qaysi antropogen faoliyatning qaysi landshaftga ta'sir kuchiga qarab turlicha ko'rinish kasb etadi. Ushbu omillar hududning umumiyoq ko'rinishi va doimiy holatiga ta'siri salbiy kechishi, bu esa xavfli tabiiy geografik jarayonlarni vujudga keltirishi ehtimoliyuqori.

Insonlarning xo'jalik faoliyati tog' landshaftlariga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Insonlarning ta'siri kuchli bo'lgan hududlarda texnogen landshaftlar vujudga keladi. Antropogen ta'sir natijasida o'zgargan landshaftlarga inson ta'siri to'xtatilsa, yana o'z holatiga qaytishi, ma'lum vaqt o'tishi bilan antropogen ta'sir izlari asta-sekin yo'qolishi va tabiiy landshaftlarning qayta tiklanishi ro'y berishi mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-sentabrdagi «Atrof-muhitga ta'sirni baholash mexanizmini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi VM-541-sonli qarori.
2. Alibekov L.A. O'rta Osiyo tog' va tekislik tizimlarini o'zarboq bog'liqlikda o'rganish muammolari // Geografiyaning dolzarb muammolari (ilmiy-amaliy anjuman materiallari). – Samarqand, 2006. – B. 10 – 12.
3. Alimqulov N.R., Alliyorov R.X. Janubi-g'arbiy Hisor landshaftlarining inson faoliyati ta'sirida o'zgarishi // O'zbekistonda turizm va rekreatsiyani rivojlantirishning geografik muammolari va imkoniyatlari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiysi materiallari. – Qarshi, 2021. – B. 125 – 127.
4. Alliyorov R.X. Janubi-g'arbiy Hisor tog' va tog'oldi landshaftlaridan foydalanish va geoekologik vaziyatni optimal-leshtirish. G.f.f.d. (PhD) ilm. dar. olish uchun taqdim et. diss. avt. – Samarqand, 2023. – 50 b.
5. Halimov R.H. Zarafshon-Hisor tog'lari va tog'oldi hududlari tabiatidan foydalanishning ba'zi muammolari // Geografiya fanining dolzarb nazariyi va amaliy masalalari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – T., 2008. – B. 57 – 58.
6. Hamidov H., Xodjimatov A.N., Alliyorov R.X., Usmonxo'jayeva M.A. Ekologik madaniyat va ma'naviyat. O'quv-uslubiy qo'llanma. – T.: Zuxra baraka bines, 2018. – 144 b.
7. Jonqobilov I.X., Eshniyozov N.A. Hisor tog'lari neft-gaz konlarini o'zlashtirishning geoekologik masalalari // Tabiiy geografiyaning regional muammolari. Ilmiy konferensiya tezislari. – Samarqand, 2002. – B. 61 – 64.
8. Qorayev A. X. Hisor tog' tizmalari lalmi tuproqlari va ularning sifatini baholash. B.f.f.d. (PhD) ilm. dar. olish uchun taqdim et. diss. avt. – T., 2019. – 46 b.
9. Rafiqov V.A. Tog' va tog'oldi hududlarining ekologik-iqtisodiy barqaror rivojlanishi: muammolar, yechimlar va takliflari // O'zGJ VII sezdi materiallari. – T., 2006. – B. 96 – 98.
10. Xo'janazarov O'E. Qashqadaryo havzasining tog'oldi yaylovlari monitoringi va ekologik optimallashtirish. B.f.d (DSc). diss. avt. – Nukus, 2022. – 65 b.
11. Xonazarov A.A. O'rmonshunoslik. –T., 2000. – 96 b.
12. O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobi, I jild: O'simliklar; F.O'Hasanovning umumiyoq tahriri ostida. – T: Chinor ENK, 2019. – 356 b.
13. O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobi, II jild: Hayvonlar; J.A.Azimovning umumiyoq tahriri ostida. – T: Chinor ENK, 2019. – 374 b.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari.
15. O'zGMITI ma'lumotlari.

## ХИМИЧЕСКОЕ ВОССТАНОВЛЕНИЕ ИОНОВ ХРОМА И ВЫДЕЛЕНИЕ ЕГО В ВИДЕ ОКСИДА ХРОМА (III) ИЗ ПРОМСТОКОВ

Мухаммадиева Дилрабо Акрамовна,

старший преподаватель Ташкентского фармацевтического института,

Раббимкулова Шахло Бердиёровна, стажер-исследователь,

Эркабаев Фуркат Ильясович, заведующий лабораторией, доктор технических наук, профессор,

Рахмоналиева Дилноза Рахмоналиевна, лаборант,

Научно-исследовательский институт окружающей среды и природоохранных технологий.

**Аннотация.** При реагентном методе очистки промстоков от ионов хрома (VI) после процесса очистки образуется неликвидный шлам. Целью настоящего исследования, является выявление и оценка восстановливающей способности и сопоставление восстановительных свойств различных органических восстановителей, а также определения оптимальных условий процесса. Во всех образцах, кроме лигнина, где содержание восстановленных ионов трехвалентного хрома в результате реакции составляло только 3.3 %, процесс восстановления ионов шестивалентного хрома составил 95-98 %.

**Ключевые слова:** ионы хрома, древесные опилки, стебли хлопчатника, лигнин.

**Аннотация.** Саноат оқава сувларини хром (VI) ионларидан реактив усулида тозалаш жараёнидан қайта ишлаб бўлмайдиган шлам ҳосил бўлади. Ушбу тадқиқотнинг мақсади турли органик қайтарувчиларнинг қайтарувчанлик хусусиятларини аниқлаш, уларни таққослаш ва жараённинг оптимал шароитларини аниқлашдир. Реакция натижасида камайган уч валентли хром ионларининг миқдори атиги 3,3 % бўлганлигиндан ташқари барча намуналарда олти валентли хром ионларининг қайтарилиш даражаси 95-98 % гача ташкил қилди.

**Калит сўзлар:** хром ионлари, ёғоч қипиги, гўза поялари, лигнин.

**Abstract.** The reagent-based approach for purifying wastewater from Cr (VI) results in the production of non-liquid sludge after the purification process. This study aims to identify and evaluate the restorative capacity, and compare the reducing properties of various organic reducing agents, as well as determine the optimal conditions for the reduction process. In all samples, except those containing lignin, where the reduction of Cr (VI) to trivalent chromium was only 3.3%, the reduction efficiency was observed to be in the range of 95-98%.

**Keywords:** chromium ions, sawdust, cotton stalks, lignin.

### Введение.

Реагентный метод очистки промстоков требует использования большого количества дорогостоящих реагентов, а в качестве конечного продукта образуется шлам и стоки с повышенным солесодержанием. При использовании солей железа в качестве восстановителя количество шлама в 4 раза выше, чем при использовании солей сернистой кислоты. Адсорбционные и ионообменные методы требуют утилизации отработанных сорбентов и регенерации дорогостоящих ионообменных смол, порождая новую производственную проблему. Данные методы плохо сочетаются с замкнутым циклом водоснабжения на предприятиях [1,3].

Реакция с сульфитом, бисульфитом и пиросульфитом натрия идет с достаточной скоростью в кислой среде при pH = 2.0-2.5. А с сульфатом железа (II) реакция идет не только в кислой, но и в нейтральной и щелочной среде.

Остаточные концентрации хрома в растворе при переводе его в гидроксид составляют 0.1-0.05 мг/л при pH = 8.5-9.0. Однако, присутствие большого количества сульфатов препятствует осаждению гидроксида хрома (III) из-за образования комплексных форм сульфатов

металла. Гидроксид хрома также может образовывать растворимые хромиты [4,7], даже при локальной перезализации реагентов-осадителей по реакции:



Поэтому достижение ПДК по хруму при реагентном методе утилизации хромсодержащих стоков часто затруднено. При этом дополнительной технологической операцией должно быть восстановление основного количества ионов шестивалентного хрома до трехвалентного с применением того или иного восстановителя. Желательно в этом случае применить наиболее доступный, экономичный и вместе с тем эффективный восстановитель по сравнению с обычно применяемыми для этой цели восстановителями.

При низких концентрациях хрома использование электрохимического метода дает высокую степень очищения сточных вод [10,11]. Но при высоких концентрациях шестивалентного хрома в сточных водах, ионы хрома (VI) лишь частично восстанавливаются до трехвалентного, а избыточное количество гидроксидов тяжелых металлов забивают полости электрокоагулятора.

В связи с этим, первой технологической операцией

при очистке и переработке хромсодержащих растворов должно быть освобождение их от основной части ионов хрома (VI) путем химического восстановления их подходящим восстановителем. Второй операцией - получение оксида хрома (Ш) из восстановленного раствора, который легко поддается переработке на товарные продукты. В качестве восстановителя шестивалентного хрома из отработанного хроматсодержащего раствора нами предлагается использовать органические восстановители (ОВ) – древесные опилки (ДОП), измельченные стебли хлопчатника, которые по сравнению с неорганическими восстановителями более экономичны, доступны и экологически чисты.

**Целью** настоящего исследования является выявление и оценка восстанавливающей способности и сопоставление восстановительных свойств различных органических восстановителей, а также определения оптимальных условий процесса.

#### Методы и материалы.

В качестве объекта исследования использованы модельный отработанный раствор гальванического цеха хромирования и измельченные стебли различных растений. Для определения содержания ионов хрома в растворах применен фотоколориметрический метод исследований.

#### Результаты и обсуждение.

Для определения влияния природы органических восстановителей были проведены опыты по восстановлению ионов шестивалентного хрома из отработанных растворов с применением в качестве восстановителя

древесных опилок сосны, березы, тополя, стебли хлопчатника, а также лигнина хлопчатника.

Опыты проводились при следующих условиях: содержание ионов шестивалентного хрома в исходном растворе - 50 г/л; количество исходного хроматсодержащего раствора - 200 мл; количество органической массы - 10 г; количество добавляемой концентрированной серной кислоты - 15 г, без предварительного нагрева с перемешиванием, продолжительностью - 1.0 час. Количественное определение содержания ионов хрома проводили фотоколориметрическим методом. Результаты экспериментов приведены в табл.1.

Из таблицы следует, что природа органического восстановителя существенно не влияет на конечный результат восстановления шестивалентного хрома. Во всех рассмотренных случаях, кроме лигнина, где содержание ионов шестивалентного хрома в результате реакции понизилось от 50000 мг/л до 134-154 мг/л, т.е. до предела, допускающего применение для конечной очистки раствора методом электроагуляции или другими химическими методами.

Опыты, проведенные по определению влияния количества органического восстановителя на восстановление ионов шестивалентного хрома, показывают, что изменение относительного количества органического восстановителя, используемых в ходе реакции, существенно влияет на восстановление ионов шестивалентного хрома. Опыты проводили при исходной концентрации хрома 50000 мг/л (таб.2).

Из таблицы 2 следует, что для восстановления ионов

Таблица 1.

**Влияние природы органического восстановителя на степень восстановления ионов шестивалентного хрома  
( $V_{\text{р-ра}} = 200 \text{ мл}$ , ДОП-10 г,  $\text{H}_2\text{SO}_4$ конц. = 10 гр.,  $\tau = 1.0 \text{ ч}$ )**

№ п/п	Органический восстановитель	Исходная концентрация хрома в р-ре, мг/л		Конечная концентрация хрома в р-ре, мг/л		
		Cr <sub>общ</sub>	Cr <sup>6+</sup>	Cr <sup>6+</sup>	Cr <sub>общ</sub>	Cr <sup>3+</sup>
1	Сосна	50000	48000	134.0	49836	49702
2	Береза	50000	48000	144.0	49891	49747
3	тополь	50000	48000	154.0	49810	49656
4	Лигнин хлопчатника	50000	48000	48230	49890	1660
5	Стебли хлопчатника	50000	48000	278.0	49880	49602

Таблица 2.

**Изменения концентраций ионов трехвалентного и шестивалентного хрома в процессе восстановления от количества органического восстановителя  
( $C_{\text{Cr исх.}} = 50000 \text{ мг/л}$ ;  $V_{\text{р-ра}} = 200 \text{ мл}$ ;  $\text{H}_2\text{SO}_4$ конц. = 10 г;  $\tau = 1,0 \text{ ч}$ )**

Кол-во органического восстановителя г	Исходная конц-я хрома в растворе, мг/л		Конечная конц-я хрома в растворе, мг/л			Примечание
	Cr <sub>общ</sub>	Cr <sup>6+</sup>	Cr <sup>6+</sup>	Cr <sub>общ</sub>	Cr <sup>3+</sup>	
5	50000	48000	40350	49860	9510	светло-зеленый
10	50000	48000	153.0	49820	49667	зеленый
15	50000	48000	187.0	49810	49623	зеленый
20	50000	48000	157.0	49850	49693	желто-зеленый
25	50000	48000	156.0	49810	49654	желто-зеленый

Таблица 3.

**Изменение концентрации ионов трехвалентного и шестивалентного хрома от времени в процессе восстановления  
( $C_{Cr\text{ исх.}} = 50000 \text{ мг/л}$ ;  $V_{\text{р-па}} = 200 \text{ мл}$ , ДОП-10 г,  $\text{H}_2\text{SO}_4\text{кон} = 15 \text{ гр.}$ )**

Время, час	Исходная конц-я хрома в растворе, мг/л		Конечная концентрация хрома в растворе, мг/л				
	$\text{Cr}_{\text{общ}}$	$\text{Cr}^{6+}$	$\text{Cr}^{6+}$	в %	$\text{Cr}_{\text{общ}}$	$\text{Cr}^{3+}$	в %
0,25	50000	48000	4665	9,22	49401	45366	91,12
0,5	50000	48000	275.0	0.55	49420	49145	98.29
1	50000	48000	136.0	0.27	49560	49424	98.85
2	50000	48000	166.0	0.33	49730	49464	98.93
4	50000	48000	158.0	0.32	49720	49562	99.12
6	50000	48000	162.0	0.33	49680	49418	98.83

хрома (VI) до соответствующего значения ПДК при начальной концентрации хрома(VI) 50000 мг/л, объемом 200 мл достаточно 10-11 г ДОП, что соответствует соотношению ОВ:  $\text{Cr}^{6+}$  в исходном растворе примерно 1:1.

Экспериментальные данные по определению зависимости степени восстановления ионов хрома (VI) до хрома (III) от времени контакта компонентов (таб. 3) показали, что во всех случаях процесс восстановления протекает в первые 15-25 мин интенсивно (в течении которого восстанавливается основная часть ионов хрома (VI) - до 80-90%). В течение 1 часа процесс восстановления завершается, не восстановленным остается около 1-4 % шестивалентных ионов хрома, а в трехвалентную форму переходят 96-99% хрома от общего количества. Некоторое количество трехвалентного хрома сорбируется в древесных опилках, которых можно легко десорбировать промыванием 1%-ным раствором азотной кислоты, 1%-ным раствором перекиси водорода или теплой водой.

В таких же условиях было изучено влияние времени контакта компонентов на процесс восстановления шестивалентных ионов хрома с исходным содержанием хрома(VI) 50000 мг/л. Результаты опытов приведены в таб.3.

По результатам опытов определено, что увеличение времени контакта компонентов выше 1-1.5 часа не влияет на степень восстановления шестивалентных ионов

хрома. Во всех образцах, кроме лигнина, где содержание ионов шестивалентного хрома в результате реакции понизилось только до 48230 мг/л (3.5%), процесс восстановления происходил до 95-98 %.

Восстанавливающая способность измельченных стеблей хлопчатника немного уступает древесным опилкам это, по нашему мнению, объясняется разницей структуры целлюлозы в составе многолетних и однолетних растений. Но все они кроме лигнина восстанавливают основную часть шестивалентного хрома, до концентрации, допускающего применение для конечной очистки раствора методом электрокоагуляции или другими методами.

#### Заключение.

Проведенные опыты показали, что природа органического восстановителя существенно не влияет на эффективность процесса восстановления шестивалентного хрома. Во всех образцах, кроме лигнина, восстановление происходит до 95-98 %. А измельченные стебли хлопчатника немного отличаются от опилок многолетних деревьев, где остаточное содержание ионов шестивалентного хрома 275 мг/л. В остальных случаях содержание шестивалентного хрома понизилось от 50000 мг/л до 132-156 мг/л, т.е. до концентрации, допускающего применение для конечной очистки раствора методом электрокоагуляции.

#### ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

2. Цао Чжун Хуа. Очистка сточных вод кожевенных заводов от соединений хрома. //Экология и промышленность России, март 1999. 14-15 с.
3. Абрамович С.Ф., Рапопорт Я.Д. Тенденции развития водоснабжения городов за рубежом.- М.: ВНИИС, 1985. 75 с.
4. I.Ruzmatov, F.I.Erkabayev, D.B.Saidmirzayeva, Sh.Sh.Odilova, D.A.Xolmominova, M.M.Turdimurodova, J.A.Bazarova. Increase in current efficiency during the reduction of chromate ions. // PROBLEMS IN THE TEXTILE AND LIGHT INDUSTRY IN THE CONTEXT OF INTEGRATION OF SCIENCE AND INDUSTRY AND WAYS TO SOLVE THEM: PTLCISIWS-2, 4–5 May 2023. Namangan, Uzbekistan, Volume 3045, Issue 1, 11 March 2024. <https://doi.org/10.1063/5.0197490>.
5. К.Б.Лебедева. Очистка и контроль сточных вод предприятий цветной металлургии.- М.: Металлургия, 1983.-386 с.
6. Когановский А.М., Клименко Н.А., Левченко Т.М. и др. Очистка и использование сточных вод в промышленном водоснабжении. М.: Химия. 1983. 288 с.
7. Тимофеев С.С., Лыкова О-В. Извлечение металлов из сточных вод гальванических производств адсорбцией на отходах деревообрабатывающей промышленности/. Иркутский политех, инс-т. - Иркутск, 1985. - 38 е.- (Деп. в отделении НИИИТЭХим, 09.10.85, № 994 XII).

UO'T: 543.31; 543.4

# YER OSTI SUVLARINING AZOT BIRIKMALARI BILAN IFLOSLANISH OMILLARI VA NITRAT IONLARINING MIQDORIY TAHLILI

Meyliyeva Munisxon Normuminovna,

“GIDROINGEO instituti” DM, laboratoriya mudiri,

Tursunova Sevara O'ktamovna,

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti tayanch doktoranti,

Jumayeva Eleonora Shuxratovna,

Navoiy davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi, kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Smanova Zulayxo Asanaliyevna,

O'zbekiston Milliy universiteti Analitik kimyo kafedrasi mudiri, kimyo fanlari doktori, professor.

**Annotatsiya.** Maqolada Toshkent viloyati hududidagi yer osti suvlari tarkibidagi nitrat va nitrit ionlarining monitoringi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Nitrat va nitrit ionlarini immobillangan organik reagentlar yordamida aniqlash usuli taklif qilindi. Nitrat ionlarining spektrofotometrik va potensiometrik miqdoriy tahlil natijalari olindi, natjalarga ko'ra nitrat ionlarining miqdorini 99,1-99,5% gacha aniqlash va tozalashga muvaffaq bo'lindi. Immobillangan difenilamin organik reagentining nitrat ionlari bilan kompleks hosil bo'lishi uchun maqbul sharoit pH 6-8 oralig'ida ekanligi aniqlandi, hosil bo'lgan kompleksning nur qaytarish spektrlari 540 nm. Sorbsiyadan oldingi va sorbsiyadan keyingi nitrat ionlarining tahlil natijalari taqqoslandi.

**Kalit so'zlar:** gidrokimyo, sug'oriladigan maydonlar, azot birikmalar, spektrofotometrik usul, sorbsiya, immobillangan organik reagent, miqdoriy tarkib.

**Аннотация.** В статье представлена информация о мониторинге содержания нитратов и нитрит-ионов в грунтовых водах на территории Ташкентской области. Предложен метод определения нитрат и нитрит ионов с помощью иммобилизованных органических реагентов. Были получены результаты спектрофотометрического и потенциометрического количественного анализа нитрат ионов, по результатам которых доказано проведения определения и очищения содержание нитрат ионов до 99,1-99,5%. Установлены оптимальные условия образования комплекса нитрат ионов с иммобилизованным дифениламиновым органическим реагентом в диапазоне pH 6-8, спектры светоотражения образовавшегося комплекса составляют 540 нм. Приведены результаты сравнения количественного анализа нитрат ионов до и после проведения сорбции.

**Ключевые слова:** гидрохимия, орошаемые земли, азотные соединения, спектрофотометрия, сорбция, иммобилизованный органический реагент, количественный состав.

**Abstract.** The article provides information on monitoring the content of nitrates and nitrite ions in groundwater in the Tashkent region. A method for the determination of nitrate and nitrite ions using immobilized organic reagents is proposed. The results of spectrophotometric and potentiometric quantitative analysis of nitrate ions were obtained, the results of which proved the determination and purification of the content of nitrate ions up to 99.1-99.5%. Optimal conditions for the formation of a complex of nitrate ions with an immobilized diphenylamine organic reagent in the pH range of 6-8 have been established, the light reflection spectra of the resulting complex are 540 nm. The results of comparing the quantitative analysis of nitrate ions before and after sorption are presented.

**Keywords:** hydrochemistry, irrigated lands, nitrogen compounds, spectrophotometry, sorption, immobilized organic reagent, quantitative composition.

## Kirish.

Sanoat va ishlab chiqarishning rivojlanishi, juda ko'plab ekin ekilmaydigan yerlarning o'zlashtirilishi, bog'dorchilikning rivojlanishi natijasida yer osti suvlarida nitrat va nitrit ionlari miqdori yil sayin oshib ketmoqda, tabiiy suvlardan kimyoviy tahlilida azot birikmalarini aniqlash usullari ularni miqdoriy tahlil qilish kerakligini isbotlaydi.

Suvda ruxsat etilgan me'yorlardan ko'p miqdorda azot birikmalarining uchrashi inson salomatligiga keskin

ta'sir etadi. Azot birikmalarini inson organizmiga ozuqa tarkibidagi o'simlik, go'sht va albatta ichimlik suvi orqali kiradi hamda metgemogloben hosil bo'lish moyil-ligini kuchaytiradi va bu o'z navbatida metgemoglobin miqdorining 20 % dan oshishi qonda gipoksiya rivojlanishiga, tomirlar kengayishiga, taxikardiya, oshqozon ichak traktining shikastlanishi, diareya, qalqonsimon bezning buzilishi kabi kasalliklarning rivojlanishiga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasida "Ichimlik va mineral suvlarni qayta ishslash korxonalari uchun sanitariya qoidalari" (SanPin № 0328-13) normativ hujjatda ichimlik va mineral suvlarda nitrat ionlarining ruxsat etilgan miqdori (REM)  $20 \text{ mg}/\text{dm}^3$ , nitrit ionlari  $0,5 \text{ mg}/\text{dm}^3$ , ammoniy ionlari  $0,1 \text{ mg}/\text{dm}^3$  dan oshmasligi belgilab qo'yilgan.

Nitrit ionlari xavfllilik darajasining 2-sinf moddalariga taalluqli bo'lganligi sababli atrof-muhit holati monitoringi global tizimi (GSMOS/GEMS) talablariga muvofiq, mazkur ionlar tabiiy suv omborining ifloslanish darajasi va troifik holatining muhim ko'rsatkichi hisoblanadi. Odatda, tabiiy suvdagi  $\text{NO}_2^-$  ionlar miqdori ruxsat etilgan chegaraviy me'yor (RECHM) dan oshmaydi. Suv omchorlarida ekologik nazorat amaliyotida nitrit ionlari tarkibidagi mavsumiy tebranishlar ma'lum va ularning ko'payishi antropogen ifloslanish manbai mavjudligini ko'rsatishi mumkin, shuning uchun mazkur ionlarning RECHM dan pastroq konsentratsiyalarini ham aniqlash muhimdir.

Gidrosferaning biogeokimyoviy aylanishida nitrit va nitrat ionlarining o'rni muhimdir. Shuning uchun suv tarkibidagi ushbu ionlarni aniqlash suv monitoringi va analitik kimyoda alohida ahamiyat kasb etadi. Dunyo olimlari tomonidan suv tarkibidagi nitrit va nitrat ionlarni aniqlashning spektrofotometrik, xemilyuminessent, elektrokimyoviy, xromatografik, kapillyarli elektroforez, spektrofluorimetrik kabi turli usullari taklif qilib kelinmoqda [1-3].

T.Fang, P. Li va bosh.[4] ishlarida nitrat va nitrit ionlari miqdorlari shprisli nasos asosida integrallashgan suv analizatori filtrlash sistemasi yordamida aniqlangan.

Ye.Pobozi, B.Shverda-Kravich va bosh. [5] ishlarida nitrat va nitrit ionlarini nonilammoniyli elyuyentdan foydalanan ion-xromatografiyasi usuli yordamida aniqlash usuli taklif etilgan. Mazkur usulda nitrit va nitrat ionlarining quyaniqlanish chegarasi mos ravishda  $2,0$  va  $1,5 \text{ pg/l}$  ni tashkil etadi.

B.Shnesger, K.Lener tomonidan taklif etgan usul [6] kadmiyli kolonkada nitrat ionlarini nitrit ionlarigacha qaytarishning odatiy usuli o'rni nini bosib, bunda qaytaruvchi o'rniida toksik Cd hosil bo'lishini oldini oluvchi vanadiy (III) ning kislotali eritmasi qo'llanilgan.

K.Takeda, K.Fujivara ishlarida [7] oqim uzatish sistemasi ishlab chiqilgan va tekshiruvdan o'tkazilgan. Bunda nitrat ioni nitrit ionigacha qaytarilib, mazkur oqim sistemasi spektrofotometrik detektor va ultrabinafshali nurlanishga sezgir maxsus moslama bilan jihozlangan. Ushbu oqim sistemasi signal intensivligi eritma muhitiga bog'liq bo'lib, mazkur usul kadmiyli kolonkali aniqlash usulnisit nitrat ionlarini aniqlash imkonini bergen.

Yo.May va b. [8] ishlarida nitrat va nitrit ionlarini dala sharoitida ion xromatografiyalı portativ analizatori ultratovush yordamida ekstraksiya usulini birgalikda qo'llagan holda aniqlash imkoniy mavjud.

Umuman olganda, taklif etilayotgan aksariyat usullar [9-19]da mazkur ionlarni aniqlash konsentratsiyasi ruxsat etilgan chegaraviy me'yordan oshgandagina aniqlash im-

koni mavjud bo'lib, bu me'yordan past konsentratsiyalarini aniqlash usullarini ishlab chiqish dolzarbdir. Bu maqsadda turli tashuvchi sorbentlardan foydalangan holda namunalarida dastlabki konsentrash ishlarini olib borish va ularning konsentratsiyasini aniqlashning turli gibrid usullari taklif qilib kelinmoqda. Shu maqsadda usullning ham selektivligini, ham tezkorligiga erishish maqsadida tobora immobillangan organik reagentlardan foydalanish keng qo'llanilmoqda [20-22].

Maqolada keltirilgan tadqiqot maqsadi suv tarkibidagi nitrit va nitrat ionlarini turli polimer va tabiiy tolali sorbentlarga immobillangan organik reagentlar yordamida aniqlash usulini ishlab chiqishdan iborat bo'lib, mazkur usulda ruxsat etilgan me'yordan ham past konsentratsiyalarini aniqlash imkoniy mavjud. Tadqiqot maqsadi asosida maqbul organik reagent, sorbent, immobillashning maqbul sharoitlarini topish, immobillangan organik reagent va nitrat yoki nitrit ionlari bilan hosil qilgan kompleksi asosida sorbsiya jarayonini amalga oshirish kabi vazifalar qo'yildi.

#### **Tadqiqot materiallari va uslubi.**

Immobilangan organik reagentlar sifatida Griss reaktivi, difenilamin kabi reagentlar qo'llanilsa, tashuvchi sorbent sifatida O'zbekiston Milliy universitetida poliakrilonitril va polietilenpoliamin asosida sintez qilingan PPA-1, PPF-1, PPD-1 tolalari hamda Urganch tekstil korxonasining chiqindi tolalari asosida modifikatsiyalangan ipak fibroinli tolalar olingan. Immobillashning maqbul sharoitlari aniqlangan. Tekshiruvlar Toshkent oldi hududlarida joylashgan kuzatuv gidrogeologik quduqlaridan olingan namunalarda o'tkazilgan.

"Gidrogeologiya va injenerlik geologiyasi instituti" Davlat muassasasi qoshidagi "Geoekologiya" laboratoriyasi tomonidan "Yer osti suvlarining gidrogeokimyoviy hududlashtirishni o'rganish" loyihasi asosida 2020-yil Toshkent oldi hududlarida joylashgan kuzatuv gidrogeologik quduqlaridan namunalar olinib kimyoviy tahlil qilingan. "Yer osti suvlarining gidrogeokimyoviy xududlashtirishni o'rganish" loyihasining asosiy maqsadi yer osti suvlarining kimyoviy tarkibini yillar davomida o'zgarishi, tog' jinslarining mineralogik tarkibi, paydo bo'lish chuqurligi, suvli qatlamlarning tarqalish chegaralarini o'rganish edi.

Shunday bo'lsada, aniq kimyoviy tarkibni aniqlash uchun sifat tahlillar yetarli emasligi hisobga olgan holda, "Gidrogeologiya va injenerlik geologiyasi instituti" Davlat muassasasi qoshidagi "Geoekolog-kimyo" laboratoriyasida 2020 – 2021 yillar davomida Toshkent viloyati Chinoz tumani sug'oriladigan maydonlar atrofidagi kuzatuv burg'u quduqlardan olib kelingan yer osti suvlarining oylar davomida kimyoviy tahlili miqdoriy sinov qilindi. Bunda azot birikmalarini miqdoriy tahlili uchun 2 xil usul (cektrofotometriya va potensiometriya) tanlab olindi.

Ilmiy izlanishlar uchun Toshkent viloyati Chinoz tumani atrofidagi sug'oriladigan yerlarda mavjud kuzatuv burg'u quduqlaridan suv namunalarini olindi.

#### **Natijalar va munozara.**

Oldingi va zamona viy geokimyoviy ma'lumotlar natijalarini tahlil qilish asosida yer osti suvlarining mikro va

makrokomponent tarkibidagi o'zgarishlar dinamikasini boshlash maqsadida respublika hududida yer osti suvlarining kimyoviy tarkibi to'g'risida nashr etilgan adabiyotlar va fond materiallari yig'ilib, tahlil qilish va umumlashtirish natijasida yillar davomida nitrat ionlarining miqdori o'zgarishi baholandi (1-rasm).


1-rasmdan ko'rinish turibdiki, nitrat ionlarining miqdori 1991-yildan 2010-yilgacha sezilarli darajada oshib borgan. 2010-yildan 2020-yilgacha nitrat ionlarini miqdori biroz kamaygan, chunki 2010-yildan qishloq xo'jaligi sohasi ekin maydonlarida nitratli o'g'itlardan kam foydalanila boshladи.

Qoidalarga asosan konsyervatsiya qilingan namunalar transportirovka qilinib laboratoriya olib kelindi. Namunani filtrlab rN-metr yordamida vodorod ko'rsatkich va qurq qoldiq miqdorini aniqladi hamda suv namunalari birinchi bo'lib nitrat ionlarini spektrofotometrik tahlil qilindi.

Nitrat ionlarining spektrofotometrik va potensiometrik

mildoriy tahlil natijalari standart chetlanishlari va nisbiy xatoliklarini hisoblash natijalari asosida, standart chetlanishning potensiometrik usulda 0,00223 va 0,00023 dan, spektrofotometrik tahlilda esa 0,00063 va 0,0076 dan oshmaganligi usul natijalarining to'g'riligidan dalolat beradi.

Nitrat ionlarining spektrofotometrik va potensiometrik miqdoriy tahlil o'tkazilgach, ulardagi mazkur ionlarni immobilangan organik reagentlar yordamida sorbentlar yordamida aniqlash va ajratish ishlari olib borildi. Immobilashning maqbul sharoitlari aniqlandi: difenilamin organik reagentining immobilashdan oldingi va keyingi nur yutilish spektrleri olindi (2-rasm), kompleks hosil bo'lishi muhiti rN 6-8 oralig'ida ekanligi aniqlandi, hosil bo'lgan kompleksning nur qaytarish spektrleri olindi (3-rasm). Sorbsiyadan oldingi va sorbsiyadan keyingi tahlil natijalari taqqoslandi (3-jadval), usul to'g'riligi Fisher va Styudent mezonlari asosida (4-jadval) isbotlandi.



1-rasm. Toshkent oldi hududlarida joylashgan kuzatuv gidrogeologik quduqlaridan namunalar tarkibidagi nitrat -ionlarining miqdori yillar davomida o'zgarishi.

Ob'yektlar nomi: a - 6 r, b - GXK-26/1n, v - GXK-301/2n, g - GXK-16/1n.


1-jadval.

Toshkent viloyati Chinoz tumani atrofidagi sug'oriladigan yerlarda mavjud kuzatuv burg'u quduqlaridan nitrat ionlari tutgan suv namunalari tahlil natijalari


Obyekt nomi	Vodorod ko'rsatkich rN	Quruq qoldiq, g/dm³	Spektrofotometrik usul, mg/dm³	Potensiometrik usul, mg/dm³
GXK-35/1n	6,95	2,40	5,03	4,91
Skv. 47/n	7,84	1,18	9,03	8,85
309 - n	7,40	0,77	8,02	7,88
Skv. 180/n	6,05	0,16	3,96	3,85
Oqava suv 1	6,93	1,20	12,70	12,55
Oqava suv 2	7,88	1,07	25,50	25,83

**Olingan natijalarini matematik staistika usulida qayta ishlash natijalari**

	$X_i$	$(X_i - \bar{X})^2$	S (standart chetlanish)	Sx (o'rtacha qiymatning stan. chetlanishi)	t (noaniqlik)	% (nisbiy xatolik)
<b>Potensiometriya</b>						
<b>GXK-35/1 n</b>						
	4,98	0,002844444				
	4,91	0,000277778				
	4,89	0,001344444				
$\bar{X}$	4,93	0,004466667	0,00223	0,01575	0,068	1,375
<b>SKV 47/n</b>						
	8,86	0,000177778				
	8,85	1,11111				
	8,83	0,000277778				
$\bar{X}$	8,85	0,000466667	0,00023	0,00509	0,022	0,247
<b>Spektrofotometriya</b>						
<b>GXK-35/1 n</b>						
	5,03	0,000544444				
	5,01	1,11111				
	4,98	0,000711111				
$\bar{X}$	5,01	0,001266667	0,00063	0,00839	0,036	0,720
<b>SKV 47/n</b>						
	9,03	0,0016				
	8,89	0,01				
	9,05	0,0036				
$\bar{X}$	8,99	0,0152	0,00760	0,02906	0,125	1,390



2-rasm. Difenilamin reagentining ipak fibroinli sorbentda immobillanganidan oldingi (1) va keyingi (2) nur yutilish spektrlari.



3-rasm. Ipak fibroinli sorbentda immobillangan difenilaminning nitrat ionlari bilan hosil qilgan kompleksining nur qaytarish spektrlari:  
1 – ipak fibroin sorbenti, 2 – immobillangan difenilamin bilan nitrat ionlari hosil qilgan kompleksning nur qaytarish spektrlari.

3-jadval.

**Nitrat ionlarining sorbsiyadan oldingi va keyingi spektrofotometrik va potensiometrik miqdoriy tahlil natijalari**

Obyekt nomi	Sorbsiyadan oldingi		Sorbsiyadan keyingi	
	Spektrofotometrik usul, mg/dm <sup>3</sup>	Potensiometrik usul, mg/dm <sup>3</sup>	Spektrofotometrik usul, mg/dm <sup>3</sup>	Potensiometrik usul, mg/dm <sup>3</sup>
GXK-35/1n	5,03	4,91	0,0012	0,0010
Skv. 47/n	9,03	8,85	0,0011	0,0009
309 - n	8,02	7,88	0,0014	0,0013
Skv. 180/n	3,96	3,85	0,0010	0,0011
Oqava suv 1	12,70	12,55	0,0009	0,0008
Oqava suv 2	25,50	25,83	0,0008	0,0010

4-jadval.

**Toshkent viloyati Chinoz tumani atrofidagi sug'oriladigan yerlarda mavjud kuzatuv burg'u quduqlaridan suv namunalari tarkibida nitrat ionlarini aniqlashning spektrofotometrik va potensiometrik usullar to'g'riligini baholash (n=12, f1 = 11, P = 0,95)**

Tahlil obyekti	Spektrofotometrik usul		Potensiometrik usul	
	Namuna $\bar{x}$ , mkg/l	S <sub>r</sub>	Namuna $\bar{x}$ , mkg/l	S <sub>r</sub>
Sorbent+R+NO <sub>2</sub>	1,2	0,0181	1,0	0,0191
t-mezon	$t_{tajr} = 2,45; t_{jadv} = 2,83, t_{tajr} < t_{jadv}$			
F-mezon	$F_{tajr} = 2,31; F_{jadv} = 4,47, F_{tajr} < F_{jadv}$			

2-rasmdan ko'rindiki, difenilamin eritmasining optik zhichligining kamayishi uning mazkur eritmada konsentratsiyasi kamayganligi, ya'ni mazkur reagentning immobillanganligidan dalolat beradi.

Difenilamin reagentning immobillanishini nur yutilish spektrosokpiyasida analitik signal 220 nm da qayd etilgan. 3-rasmdan ko'rindiki, immobillangan difenilamin bilan nitrat ionlarining hosil qilgan kompleksi 540 nm da kuza tiladi (nur qaytarish spektroskopiyasi ko'rinvchan sohani o'z ichiga olganligi sababli mazkur sohada immobillangan reagent nur qaytarish spektri qayd etilmaydi), bu esa reaksiya sezgirligi haqida xulosa qilish mumkinligini ko'rsatadi.

3-jadvaldan ko'rindiki, namunalar tarkibidagi nitrat ionlarining dastlabki spektrofotometrik va potensiometrik tahlili natijalari asosida aniqlangan nitrat ionlarining konsentratsiyasi ularning immobillangan organik reagentlar yordamida sorbsion jarayonini amalga oshirishdan keyingi konsentratsiyalar kamaygan. Bu esa nitrat ionlarining immobillangan organik reagent bilan kompleks hosil bo'lishi natijasida sorbsiya amalga oshganligidan dalolat beradi.

4-jadvaldan Fisher va Styudent mezonlari asosida tahlil natijalarining qiyosiy tahlili F- va t-mezonlarining jadval qiyamatlaridan oshmasligi aniqlandi, hamda bu qiyamatlar usullar natijalari orasidagi sezilarli tafovutlar hamda sistematik xatoliklar yo'qligini isbotlashi aniqlandi. Mazkur usulda immobillangan organik reagentli sorbentlar yordamida dala sharoitida ham suv tarkibidagi nitrat va nitrit ionlarini ekspress aniqlash imkonii mavjud, taklif etilayotgan usul bilan suvni tekshirilayotgan ionlardan 98-99% tozalash imkonii mavjud.

natijalari orasidagi sezilarli tafovutlar hamda sistematik xatoliklar yo'qligidan dalolat beradi.

#### Xulosa.

Toshkent viloyati hududidagi yer osti suvlari tarkibidagi nitrat va nitrit ionlarining monitoringi o'tkazildi. Nitrat va nitrit ionlarini immobillangan organik reagentlar yordamida aniqlash usuli taklif qilindi. Immobillashning maqbul sharoitlari aniqlandi: difenilamin organik reagentining immobillashdan oldingi va keyingi nur yutilish spektrlari olindi, kompleks hosil bo'lishi muhiti aniqlandi. Sorbsiyadan oldingi va sorbsiyadan keyingi tahlil natijalari taqqoslanib nitrat ionlarining immobillangan organik reagent bilan kompleks hosil bo'lishi natijasida sorbsiya amalga oshganligi kuzatildi. Fisher va Styudent mezonlari asosida tahlil natijalarining qiyosiy tahlili F- va t-mezonlarining mos ravishda 2,31 va 2,45 ekanligi va ushbu qiyamatlarning jadval qiyamatlaridan oshmasligi aniqlandi, hamda bu qiyamatlar usullar natijalari orasidagi sezilarli tafovutlar hamda sistematik xatoliklar yo'qligini isbotlashi aniqlandi. Mazkur usulda immobillangan organik reagentli sorbentlar yordamida dala sharoitida ham suv tarkibidagi nitrat va nitrit ionlarini ekspress aniqlash imkonii mavjud, taklif etilayotgan usul bilan suvni tekshirilayotgan ionlardan 98-99% tozalash imkonii mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Matthew J. Moorcroft, James Davis, Richard G. Compton. Detection and determination of nitrate and nitrite: a review // *Talanta* 54 (2001) 785–803.
2. Priyanka Singh & oth. A review on spectroscopic methods for determination of nitrite and nitrate in environmental samples // *Talanta* 191 (2019) 364–381.
3. Julio A. Camargo, Álvaro Alonso. Ecological and toxicological effects of inorganic nitrogen pollution in aquatic ecosystems: A global assessment // *Environment International* 32 (2006) 831–849.
4. Tengyue Fang & oth. Simultaneous underway analysis of nitrate and nitrite in estuarine and coastal waters using an automated integrated syringe-pump-based environmental-water analyzer // *Analytica Chimica Acta*. 1076 (2019), pp.100-109.
5. Ewa Pobozy, Beata Sweryda-Krawiec and Marek Trojanowicz. Ion interaction chromatography with nonylamine reagent for the determination of nitrite and nitrate in natural waters // *Journal of Chromatography*, 633 (1993) 305-310.
6. Bernhard Schnetger, Carola Lehners. Determination of nitrate plus nitrite in small volume marine water samples using vanadium(III) chloride as a reduction agent // *Marine Chemistry* 160 (2014) 91–98.
7. Kazuhiko Takeda and Kitao Fujiwara. Determination of nitrate in natural waters with the photo-induced conversion of nitrate to nitrite // *Analytica Chimica Acta*, 276 (1993) 25-32.
8. Yonglin Mai & oth. Application of a portable ion chromatograph for real-time field analysis of nitrite and nitrate in soils and soil pore waters // *Talanta* 274 (2024) 126031.
9. Madusmanova, N.K., Khalilova, L.M., Zhumaeva, E.Sh., Gafurova, D.A., Sanova, Z.A., and Tozhimukhamedov, Kh.S., *J. Anal. Chem.*, 2022, vol. 77, no. 1, p. 26.
10. Maher B.A., González-Macié A., Reynoso-Robles R., Torres-Jardón R., Calderón-Garcidueñas L. Iron-rich air pollution nanoparticles: An unrecognised environmental risk factor for myocardial mitochondrial dysfunction and cardiac oxidative stress // *Environmental Research*. – 2020. – V.188. 109816.
11. Ramazanov A. Sh., Esmail G. Q. Determination of copper, zinc, cadmium and lead in water using diffuse reflectance spectroscopy method // Аналитика и контроль. – 2015.– Т. 19. – № 3.– Р. 259-267.
12. Диудух С.Л., Мухина А.Н., Лосев В.Н. Сорбционно-фотометрическое и тест-определение общего содержания железа в природных водах с использованием сорбентов на основе оксида циркония, модифицированного полигексаметиленгуанидином, феррозином и ференом // Аналитика и контроль. – 2014. – Т.18. – № 4. – С. 430-437.
13. Lee Y.N., Choi H.S. Determination of copper (II) in various samples by flame atomic absorption spectrophotometry after column preconcentration onto pulverized amberlite XAD-4 loaded with N-benzoylphenylhydroxylamine // Журн. аналит. химии. – 2007. – Т. 62. – № 9. – С. 936-942.
14. Hazer O., Kartal S., Tokahoglu S. Atomic absorption spectrometric determination of Cd (II), Mn (II), Ni (II), Pb (II) and Zn (II) ions in water, fertilizer and tea samples after preconcentration on Amberlite XAD-1180 resin loaded with L-(2-Pyridylazo)-2-naphthol // Журн. аналит. химии. – 2009. – Т. 64. – № 6. – С. 627-632.
15. Бабуев М. А. Сорбционно-атомно-абсорбционное определение Cu(II), Fe(III) и Zn(II) в природных водах с применением полимерных хелатных сорбентов: Автореф. дис... канд. хим. наук – Москва: МГУ, 2002 . – С.4.
16. Зейналов Р.З., Татаева С.Д. Сорбционно-атомно-абсорбционное определение Cu(II), Zn(II) и Cd(II) в питьевых водах // Вестн. Дагестанского гос. унив. – 2013. – №. 1. – С.188-193.
17. Снигур Д.В., Дубовый В.П., Чеботарёв А.Н. Атомно - абсорбционное определение меди (II) в водах после мицеллярно - экстракционного концентрирования // Вестн. Моск. унив. – 2020. Т. 61 – № 6. – С. 414-419.
18. Sukharev S.N. Determination of Heavy Metals in Natural Water by the Sorption-Atomic-Absorption Method // *Journ. of Water Chem. and Techn.* – 2012. – V. 34. – №. 4. – P. 190-194.
19. Ghaedi M., Ahmadi F., Shokrollahi A. Simultaneous preconcentration and determination of copper, nickel, cobalt and lead ions content by flame atomic absorption spectrometry // *Journ. of Hazardous Materials*. – 2007. - № 142. P.272-278.
20. Рузметов У.У., Жумаева Э.Ш., Орзикулов Б.Т., Сманова З.А. Сорбционно-атомно-абсорбционное определение железа в водах // Заводская лаборатория. Диагностика материалов. 2023. Том 89. № 12. С.22-30.
21. Ruzmetov U.U., Jumayeva E.Sh., Sanova Z.A. Adsorption-Atomic-Absorption Determination of Cu(II) Ions in Technogenic Waters // *Journal of Analytical Chemistry*, 2024, Vol. 79, No. 5, pp. 578–584.
22. Жумаева Э.Ш., Мамедова М.Н., Ахмаджонов О.Г., Сманова З.А. Мониторинг и определение тяжелых металлов в объектах промзоны Ахангаранского района Ташкентской области // Экологический вестник Узбекистана, 2023, № 3(7). С.76-78.
23. ГОСТ 18826-73. Вода питьевая. Методы определения содержания нитратов.

# GEOAXBOROT TIZIMLARI VA MASOFADAN ZONDASHGA ASOSLANGAN 2000-YILDAN 2024-YIL ORALIG'IDA CHOP QILINGAN TUPROQ EROZIYASI TADQIQOTLARINING KENG QAMROVLI ADABIYOT SHARHI

**Baxronova Shaxnoza Aminjonovna,**

Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti

**Xasanov Sayidjaxon Zokirjon o'g'li,**

Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

“Yashil o'sish va iqlim o'zgarishi” bo'limi boshlig'i, PhD.

**Annotatsiya.** Tuproq eroziyasi keng ko'lamli ijtimoiy-iqtisodiy va atrof-muhitga ta'sir ko'rsatadigan ulkan ekologik ofatlarning potensial xavflaridan biri sifatida tog'li hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy farovonlikni xavf ostiga qo'yadi. Tuproq eroziyasi mahalliy yoki mintaqaviy geologiya, geomorfologiya, topografiya va seysmik harakatlar kabi bir qancha murakkab omillarning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladi. Ushbu tadqiqotning maqsadi 2000–2024-yillarda davomida tuproq eroziyasiga olib keluvchi sabablar va oqibatlar haqida nashr etilgan maqolalarni ko'rib chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga muvofiq, 2000–2024-yillarda davomida Google Scholar ma'lumotlar bazasida chop etilgan umumiyoq hisobda 153 ta maqola yuklab olindi va mavzuning mohiyatiga ko'ra jami 83 ta maqola tahlil uchun yaroqli hisoblanib, tahlil qilindi.

Natijalarga ko'ra, tanlab olingan davr mobaynida tuproq eroziyasi bo'yicha tadqiqotlar ko'paygan hamda hindistonlik olimlar 19% ilmiy natijadorlik bilan yetakchilik qilishdi. Bundan tashqari, ushbu maqolada eng ko'p qo'llanilgan modellar hamda tuproq eroziyasiga sabab bo'lувchi faktorlar ham tahlil qilindi. Olingan natijalarga ko'ra, geoaxborot tizimlariga asoslangan modellari tuproq eroziyasini aniqlashdagi eng maqbul model sifatida tanlanganligi ma'lum bo'ldi. Uni harakatga keltiruvchi omil sifatida tuproq xossasi, yog'ingarchilik, sug'orish hamda inson aralashuvni asosiy omillar sifatida keltirib o'tilgan. Tahlillarimizga ko'ra, tuproq eroziyasini o'rganishda geotexnik, geofizik va statistik usullar qo'llanilgan. Tadqiqot natijalaridan shu ma'lum bo'ldiki, tuproq eroziyasiga eltvuvchi eng asosiy va tez-tez takrorlanib turuvchi omil yer qoplami ekanligi ma'lum bo'ldi. Eroziya xavfini beruvchi boshqa omillarning xavflilik darajasini baholash va ularga qarshi choralarini ishlab chiqish hozirgi kunda maqsadga muvofiqdir.

**Kalit so'zlar:** tuproq eroziyasi, geoaxborot tizimlari, masofadan zondash, omillar, modellar.

**Аннотация.** Эрозия почвы угрожает социальному благополучию горных регионов как одна из потенциальных опасностей крупномасштабных экологических катастроф с широкомасштабными социальными и экологическими последствиями. Эрозия почвы вызвана взаимодействием нескольких сложных факторов, таких как местная или региональная геология, геоморфология, топография и сейсмическая активность. Целью данного исследования является обзор статей, опубликованных о причинах и последствиях эрозии почв в период 2000–2024 гг. В соответствии с этой целью мы скачали 153 статьи, опубликованные в базе данных Google Scholar за 2000–2024 годы, всего 83 статьи были признаны подходящими для анализа по характеру темы и были проанализированы.

По результатам исследования по эрозии почв за выбранный период увеличились, а индийские учёные вышли в лидеры с научной эффективностью 19%. Кроме того, в этой статье также были проанализированы наиболее используемые модели и факторы, вызывающие эрозию почвы. По полученным результатам стало известно, что модели на основе геоинформационных систем выбраны как наиболее оптимальные модели определения эрозии почв. Свойства почвы, осадки, орошение и вмешательство человека упоминаются как основные факторы, заставляющие ее перемещаться. Согласно нашему анализу, при изучении эрозии почв использовались геотехнические, геофизические и статистические методы. По результатам исследований выяснено, что основным и наиболее частым фактором, приводящим к эрозии почв, является растительный покров. Сейчас желательно оценить уровень опасности других факторов риска эрозии и разработать меры противодействия им.

**Ключевые слова:** эрозия почв, геоинформационные системы, дистанционное зондирование, факторы, модели.

**Abstract.** Soil erosion poses a significant threat to the socio-economic well-being of mountainous regions, representing a potential hazard within the spectrum of large-scale environmental disasters with far-reaching socio-economic and environmental ramifications. This phenomenon arises from the intricate interplay of various factors, including local or regional geology, geomorphology, topography, and seismic activity. The objective of this study is to

conduct a comprehensive review of articles published between 2000 and 2024, focusing on the causes and consequences of soil erosion. To achieve this aim, we sourced 153 articles from the Google Scholar database within the specified timeframe, of which 83 were deemed pertinent for analysis based on their relevance to the subject matter.

The findings indicate a notable increase in research attention towards soil erosion over the examined period, with Indian scientists exhibiting the highest scientific efficiency at 19%. Furthermore, this article delves into an examination of the most prevalent models and factors contributing to soil erosion. Notably, geoinformation systems-based models emerged as the most effective tools for assessing soil erosion, with key drivers identified as soil properties, precipitation, irrigation, and anthropogenic activities. Our analysis reveals the utilization of geotechnical, geophysical, and statistical methodologies in the study of soil erosion dynamics. Among these, land cover emerges as the primary and recurrent factor precipitating soil erosion events. Moving forward, it is imperative to evaluate the risk levels associated with other erosion-inducing factors and devise targeted mitigation strategies to address them effectively.

**Keywords:** soil erosion, geoinformation systems, remote sensing, factors, models.

### Kirish.

Atrof-muhitning muhim muammosi bo'lgan tuproq eroziysi butun dunyo bo'ylab yerni barqaror boshqarish uchun jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi. So'nggi yigirma yil ichida tuproq eroziyasining dinamikasi va ta'sirini tushunish uchun geografik axborot tizimlari (GAT) va masofaviy zondlash texnologiyalaridan foydalanishga alohida e'tibor qaratilgan va keng qamrovli tadqiqotlar olib borilgan (Buhlmann et al., 2010; Rakhmatullaev et al., 2013). Ushbu keng qamrovli sharh 2000 va 2024-yillar oralig'ida o'tkazilgan tuproq eroziyasini o'rganish natijalarini sintez qilishga qaratilgan bo'lib, rivojlanayotgan metodologiyalar, asosiy topilmalar va GAT va masofadan zondlashning ushbu hodisani tushunishimizni rivojlantirishdagi muhim roliga oydinlik kiritadi.

Berilgan tadqiqot yillari davomida tuproq eroziysi turli xil antropogen harakatlar, jumladan, o'rmonlarni kesish, qishloq xo'jaligi amaliyotlari, urbanizatsiya va iqlim o'zgarishi natijasida kuchaygan (Benavidez et al., 2018; Sartori et al., 2019; Wen et al., 2023). Bu jarayonlar nafaqat tuproq sifatini yomonlashtiradi, balki oziq-ovqat xavfsizligi, suv resurslari va ekotizim yaxlitligiga ham tahdid soladi (Dissanayake et al., 2019; Mullan et al., 2012; Simonet & Ali, 2021). Tuproq eroziysi xavfini yumshatish dolzarbligini anglagan holda, tadqiqotchilar uning ta'sirini baholash, monitoring qilish va xavfini bartaraf etish maqsadida geofazoviy texnologiyalarga tobora ko'proq tayanmoqdalar (Yigez et al., 2021; Yuan et al., 2021; Zhang et al., 2022).

GAT bir nechta manbalardan fazoviy ma'lumotlarni birlashtirish qobiliyatiga ega, eroziya jarayonlarini model-lashtirish, zaif hududlarni aniqlash va yerni boshqarish bo'yicha qarorlarni qabul qilish uchun kuchli vosita hisoblanadi (Wuepper et al., 2020; XUE et al., 2011; Yadav et al., 2023). Relyef xususiyatlarini, yerdan foydalanish sxemalarini, yog'ingarchilik ma'lumotlarini va boshqa tegishli omillarni tahlil qilish orqali GAT fazoviy aniq eroziya modellarini ishlab chiqishga yordam beradi, bu manfaatdor tomonlarga tabiatni muhofaza qilish bo'yicha sa'y-harakatlarni ustuvorlashtirish va maqsadli tadbirlarni amalga oshirish imkonini beradi(Puay et al., 2019; Rakhimova et al., 2024; X. Wang et al., 2021).

Bundan tashqari, masofadan zondlash usullari katta maydonlarda va turli landshaftlarda tuproq eroziyasini

kuzatish uchun bir necha modellar va yo'nalishlarni taklif etadi (Owens, 2020; Pawar et al., 2020; Romshoo et al., 2021; Thomas et al., 2018). Sun'iy yo'lidosh tasvirlari, uchuvchisiz qurilmalardan suratga olish va LiDAR (Light Detection and Ranging - yorug'likni aniqlash va diapazon) ma'lumotlari eroziya xususiyatlarini, yer qoplaming o'zgarishini va vaqt o'tishi bilan landshaft dinamikasini aniqlash imkonini beradi (Borrelli et al., 2020; Brannigan et al., 2022; Erkossa et al., 2015). Masofadan zondlash orqali tadqiqotchilar tuproq yo'qotilishi miqdorini aniqlashlari, cho'kindilarni tashishni baholashlari va eroziyaga qarshi kurash choralarining samaradorligini baholashlari mumkin, shu bilan dalillarga asoslangan siyosat va boshqaruv strategiyalari haqida ma'lumot berishlari mumkin (Aslam et al., 2020; Gafforov et al., 2020).

Ushbu maqolada biz so'nggi yigirma to'rt yil ichida tuproq eroziyasini tadqiq qilishda erishilgan yutuqlarni, qo'llanilgan metodologiyalarga, olingan tushunchalarga va duch kelgan kamchiliklarga e'tibor qaratamiz. Global miqyosda olib borilgan ko'plab tadqiqotlar natijalarini sintez qilish orqali biz tuproq eroziyasi jarayonlarini qo'zg'atuvchi murakkab o'zaro ta'sirlar va ushbu dolzarb ekologik muammoni hal qilishda GAT va masofadan zondlashning muhim rolini har tomonlama o'rganishni maqsad qilganmiz.

### Tadqiqot materiallari va uslubi.

Mazkur maqolada 2000-2024-yillarda Google Scholar ilmiy-teknik bazasida chop etilgan umumiy hisobdan 115 ta maqola yuklab olindi va mavzuning mohiyatiga ko'ra jami 83 ta maqola tahlil uchun yaroqli hisoblanib, saralab olindi. Olingan maqolalar bo'yicha ma'lumotlar to'plandi hamda barcha ko'rib chiqilgan maqolalar uchun ma'lumotlar bazasi kengaytirildi. Jumladan, nashr etilgan yil va turi, muallifning ismi, mamlakat, jurnal nomi, iqtiboslar, eroziyanı baholash uchun qo'llaniladigan modellar turi va modelga kiritilgan asosiy omillar bo'yicha barcha ma'lumotlar tasniflandi.


Unga qo'shimcha holatda maqolalarni ikki guruhga 2000-2010 hamda 2011-2024-yillarga ajratib olindi va eroziyaga moyil bo'lgan hududlar bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda foydalanilgan uslublar, jumladan, GAT va masofadan zondlashning ahamiyati to'g'risida hamda texnikasi qanday keng qo'llanilganligini aniqlash uchun maxsus kichik bo'limni yaratdi.

### Tahlil va natijalar.


*Maqolalar tendensiyasi.* Google Scholar bazasida 2000-2024-yillarda chop etilgan jami 115 ta maqoladan, 2000-2012-yillarda 13 yil ichida jami 18 ta maqola chop etilgan bo'lsa, 2013-yilda bu ko'rsatkich keskin o'sib, yillik soni 8 taga yetdi (Anh et al., 2014; Ardjasa et al., 2001; Bellocchi & Diodato, 2020) (Alemu et al., 2019; Alewell et al., 2020; Altaf et al., 2014). 2014-yildan 2019 -yilgacha yiliga o'rtacha 6 ta maqola nashr etilgan (2014-yildan 2019-yilgacha 36 ta maqola) (Alewell et al., 2019; Bandara et al., 2001). Eng ko'p maqola chop etilgan yil 2020-yilga to'g'ri

kelib 16 tani tashkil etdi (Bauer, 2014; Blake et al., 2018) (Akbari et al., 2023; Haque et al., 2022)(Kaiho et al., 2016; Masroor et al., 2022). Natijalarimiz yana shuni ko'rsatdiki, 2013-yilgacha xalqaro jurnallarda chop etilgan maqolalar soni kam bo'lgan, biroq, keyinchalik esa sezilarli o'sish tendensiyasi kuzatildi, bu  $R^2 = 0,5137$  ni ko'rsatdi (1-rasm).

Bundan tashqari, bizning olib borgan tadqiqotimizga ko'ra, 83 ta maqolaning asosiy qismini (75) yoki 90% tadqiqot maqolalari undan keyingi o'rinda konferensiya maqolalari 5 (6%) hamda oxirgi o'rinda kitob bobini 3 (4%) tashkil etdi (2-rasm).



1-rasm. Nashr qilingan yil bo'yicha tuproq eroziyasi mavzusidagi maqolalar soni.



2-rasm. Ko'rib chiqilgan maqolalar turi, %.


*Manbalar va iqtiboslarni nashr etish tendensiyasi.* Tadqiqotimiz natijasida shunday ma'lumotlar aniqlandi: "Sustainability" jurnalni eng ko'p maqola chop etilgan jurnal sifatida aniqlandi (7 ta) (Lin et al., 2016; Molla & Desta, 2022; Mushtaq et al., 2023) (KUMAR & KUSHWAHA, 2013; Mondal et al., 2017; Nearing et al., 2005). Biroq chop etilgan maqolalar soni 3 ta bo'lishiga qaramasdan "Catena" jurnalidagi iqtiboslar soni barchasidan yuqori bo'lgan jurnal deb aniqlandi (1452 dona). Keyingi o'rirlarni "International Soil and Water Conservation Research" va "Environmental Earth Sciences" jurnalni egallagan bo'lib, ularda 4 tadan maqola chop etilgan. Kuchli 5 talikni "Catena" hamda "Land" jurnallari yakunlab berishdi, har birida 2 tadan maqola chop etilgan (Huang et al., 2020; Juliev et al., 2022) (Rendana et al., 2023; Segura et al., 2014; Sodnomdarja et al., 2023). Qolgan maqolalar ulushi 6 jurnalga 2 tadan hamda 44 ta jurnalga 1 tadan to'g'ri kelmoqda (3-rasm).

Iqtiboslar soni bo'yicha "Proceedings of the National Academy of Sciences" hamda "International Soil and Water Conservation Research" jurnallari yetakchilikda kuchli 3 talikni boshlab berishdi va mos ravishda 822 va 657 ni tashkil etdi (Kuchkarova et al., 2023; Marondedze & Schütt, 2020; Pandey et al., 2021). Olingan tahlillardan ma'lum


bo'lishicha, 10 tadan kam iqtiboslar olgan maqolalar soni 11 ta ekanligi ma'lum bo'ldi. Umumiy hisobda bo'lsa, 2 ta jurnalga birorta ham iqtiboslar berilmaganini aniqlandi (3-rasm).

*Mualliflar va ular bilan bog'liq mamlakatlar.* Bizning tahlilimiz shuni ko'rsatdiki, 2000-2024-yillar davomida 26 mamlakatdan 80 muallif tuproq eroziyasi bo'yicha tadqiqot olib borgan. Maqolalarning birinchi muallifiga ko'ra nashrlar sonini aniqlash uchun mualliflar va ular bilan bog'liq mamlakatlar tanlangan (PARLAK, 2019) (Plangoen et al., 2013). Ular orasida de Vente, Mondal va Pimentel 2 ta nashri bilan ustunlik qildi (de Vente et al., 2013; Mondal et al., 2015; Pimentel, 2006). 80 tadqiqotchidan 54 tasi 2000-2020-yillarda, 26 tasi 2021-2024-yillarda bittadan maqola yozgan (4-rasm).

Mamlakat hissasiga ko'ra tasniflanganda, 26 ta mamlakatdan 16 ta maqola chop etib Hindiston yetakchilikni egalladi. Undan keyingi o'rirlarda Xitoy hamda O'zbekiston davlatlari band qilishdi, mos ravishda, 15 va 7 ta maqolalar bilan. Efiyopiya, Germaniya, Indoneziya, Eron, Yaponiya, Buyuk Britaniya, AQSh, Avstraliya, Fransiya, Italiya hamda Shvetsariya o'rtacha hisobda 3 tadan maqola chop etishgan bo'lsa, Jazoir, Bangladesh, Belgiya, Iordaniya, Mo'g'uliston,



3-rasm. 2000-2024-yillarda manba va iqtiboslarni nashr etish tendensiyasi.




4-rasm. 2000-2024-yillarda har bir muallifga to'g'ri kelgan maqolalar soni.


Nepal, Pokiston, Ispaniya, Shri-Lanka, Tailand, Tunis hamda BAA 1 donadan maqolani nashrga chiqarishgan (Pulatov et al., 2020; Sankhala et al., 2016; Sharaiha & Ziadat, 2008; Tsymbarovich et al., 2020; Z. Wang et al., 2021; Warren et al., 2001) (5-rasm).

Tuproq eroziyasi bo'yicha tadqiqot olib borgan davlatlarning vizual ko'rinishi [www.mapchart.net](http://www.mapchart.net) platformasi yordamida yaratildi (Voorrips, 2002) (6-rasm).


Nashrlarning geografik ma'lumotlariga ko'ra, Osiyo 2000-2024-yillarda Markaziy Osiyodagi tuproq eroziyasi haqida nashr etilgan maqolalar ulushi bo'yicha Yevropa, Shimoliy Amerika, Afrika hamda Okeaniyani ortda qoldirgan bo'lib, 69% ni, Yevropa 17% ni, Shimoliy Amerika 4% ni, Afrika 8% ni hamda Okeaniya 2% ni tashkil qilgan (7-rasm) (Haregeweyn et al., 2015; Hurni et al., 2008; Kachouri et al., 2015; Labrière et al., 2015; Nearing et al., 2017).



5-rasm. 2000-2024-yillar davomida har bir mamlakat bo'yicha nashrlar soni.




6-rasm. Tadqiqot olib borilgan mamlakatlar.



**7-rasm. Geografik mintaqalar bo'yicha nashr etilgan maqolalar, %.**

*Har bir mamlakat uchun iqtiboslar.* Hammasi bo'lib, so'nggi 24 yil ichida 26 davlat tomonidan tuproq eroziyasini o'rGANISH bo'yicha chop etilgan 83 ta nashrga 9118 ta iqtibos keltirildi. Hindiston 2000-2024-yillarda chop etilgan

maqolalar soni mezonlarida bo'lgani kabi 16 ta nashrga 962 ta iqtibos bilan AQShdan keyingi o'rinni band qildi (Gafurova & Juliev, 2021; Khodadadi et al., 2023; Mu et al., 2022; Saoud & Meddi, 2023). AQSh 3 ta maqola bilan 2595 ta iqtibos olgan holatda yetakchi ekanligi aniqlandi. Shunisi e'tiborga loyiqliki, Belgiya o'tgan yillar ichida 1 ta maqola nashr qilganiga qaramasdan 880 ta iqtibos olgan, Efiyopiya misolida ham yaxshi natijalarni kuzatishimiz mumkin: 5 ta maqolaga 499 ta havola berilgan, har bir maqola uchun o'rtacha 99 yoki 100 ta iqtibos (Das et al., 2018; Jafari et al., 2022; Ochirbat & Turmunkh, 2021). Bundan tashqari, O'zbekiston olimlari tomonidan chop etilgan 7 ta maqolada jami 239 ta iqtibos mavjud bo'lib, har birida o'rtacha 34-35 tadan iqtibos bor(Gafforov et al., 2020; Juliev et al., 2022; Jumanov et al., 2023; Kuchkarova et al., 2023; Kulmatov, 2014; Pulatov et al., 2020). Iordaniya, Pokiston hamda Bangladesh nisbatan pastroq ko`rsatkichlarni qayd etishgan, tadqiqotchilarining nashrlarida mos ravishda jami 32, 17, 11 ta iqtibos keltirildi(Boardman, 2006; Brisset et al., 2013; Chuenchum et al., 2020; Dash et al., 2021). Jazoir hamda BAA maqolalariga 1 donadan havola olishgan (Gashaw et al., 2019; Ghimire et al., 2013; Ma et al., 2021). Biroq, 2000-2024-yillar davomida faqat Mongoliya tomonidan nashr etilgan maqolada iqtibos keltirilmagan (den Biggelaar et al., 2003; Mohamad et al., 2020; Prasannakumar et al., 2011) (8-rasm).



**8-rasm. Maqolalarga berilgan iqtiboslar soni mamlakatlar kesimida.**

*Tuproq eroziyasini o'rganishda qo'llaniladigan usullar.* Maqolalarni tahlil qilish natijasida shu ma'lum bo'ldiki, O'zbekiston Respublikasi hududida tadqiqot ob'ekti sifatida tog' oldi tuproq eroziyasiga moyil bo'lgan hududlar tanlab olingan oshirilgan (Cilek et al., 2015; Dubovsky, 2017; Gashaw et al., 2018; Jumanov et al., 2023). Ugam-Chotqol tog' tizmalarini jumladan, Kumushkon, Zarshox hamda Zarkent tog' oldi hududlari ustida tajribalar amalga oshirilgan (Pulatov et al., 2020). Biz tuproq eroziyasini o'rganishda qo'llaniladigan usullarni uchta asosiy guruhga ajratdik: geotexnik, geofizik va statistik (1-jadval).

Geotexnik usullar, asosan, tuproq xususiyatlari va xossalari hamda ularning tarkibi buzilish jarayonlariga ta'sirini o'r ganish bilan bog'liq (ERDIK et al., 2005; Guo et al., 2022; Jacob et al., 2009; Rodrigo-Comino, 2018; Wen, 2020). Tuproq eroziyasini o'rganishda geofizik usullar ham keng qo'llaniladi. Bu yerda biz Pomir-Hindukush tog' oldi hududlarini O'rta Osiyo mintaqasidagi tuproq eroziyasi hodisalariga ta'siri bo'yicha nashr qilingan ko'plab maqolalarni o'rgandik (Buhlmann et al., 2010; Maniraho et al., 2021; Senanayake et al., 2020).

Statistik usullar, asosan, GAT va masofaviy zondlash usullaridan foydalangan holda fazoviy tahlil bilan bog'liq. Statistik usullardan foydalangan holda, eroziyaga moyillik xaritasini tuzishda ishlagan mualliflar Markaziy Osiyo mintaqasi uchun ma'lumotlarning tanqisligi masalasini keltirib o'tishgan (Saponaro va boshq. 2015, Juliev va boshq. 2019). Turli statistik usullar yordamida eroziyaga moyillik xaritasini tuzish bo'yicha olib borilgan bir qancha tadqiqotlar va olin-gan natijalar 70-85% ga to'g'ri keladi (de Vente et al., 2013; Gessesse et al., 2015; Kulmatov, 2014).

*Tuproq eroziyasini o'rganishda GAT va masofadan zondlashning o'ni.* GAT va masofadan zondlash 2005-yilgacha tuproq eroziyasini o'rganishda keng qo'llanilmagan va ular 2005-2007-yillarda beshta maqolada qo'llanilgan, ammo 2006-2009- va 2012-yillarda chop etilgan maqolalarda ular umuman ishlatilmagan. Shunga qaramay, tadqiqotchilar 2013-yildan 2016-yilgacha nashrlarda GAT va masofaviy zondlashdan foydalanishni boshladilar (Pimentel, 2006; Tian et al., 2023), bu o'nta maqolani tashkil etdi. Olimlar 2017 yil davomida tuproq eroziyasini o'rganishda GAT va masofadan zondlashdan foydalanmagan; ammo, ular 2018-2020-yillarda


davomida 12 ta maqolada ishlatilgan (Narwade & Charhate, 2022; Rakhmatullaev et al., 2013; Seitz et al., 2017) (9-rasm). Qizig'i shundaki, tuproq eroziyasini o'rganishda GAT va masofadan zondlashning keng qo'llanilishining o'sish sur'ati  $R^2 = 0,1828$  ni tashkil etdi. Umuman olganda, shuni aytish mumkinki, o'rganilgan davr oralig'ida GAT va masofaviy zondlash sakkiz yil turli xil yillar kesimida nashr etilgan maqolalarda umuman qo'llanilmagan va faqat oxirgi 12 yil ichida ushbu texnologiyaga bo'lgan talab oshgan (Bhatti et al., 2021; de Vente & Poesen, 2005; Furuchi & Wasson, 2013). Chop etilgan maqolalarning 49% izida GIS texnologiyasining USLE hamda RUSLE metodlaridan foydalanilgan (Benavidez et al., 2018; Borrelli et al., 2020; Buhlmann et al., 2010)

*Tuproq eroziyasini o'rganish omillari.* Bizning tahlilimiz shuni ko'rsatdiki, 2000-2024-yillarda chop etilgan 83 ta maqolada tuproq eroziyasining paydo bo'lishi va harakatiga ta'sir qiluvchi 47 ta omil aniqlangan. Eng ko'p nashrda ishlatiladigan omil bu yer qoplami bo'ldi (64 ta). Bundan tashqari, raqamli relief modeli (Digital Elevation Model – DEM) nashrlarda tez-tez ishlatiladigan ikkinchi omil bo'lib, 41 ta maqolada ishlatilgan (Kienzler et al., 2012; Li et al., 2019; Mondal et al., 2015). Yigirma to'rt yil davomida 34 ta maqolada nishablik va yomg'ir-oqim harakati omili hamda 36 ta nashrda tuproqning eroziyaga moyillik faktori keltirib o'tilgan. Bundan tashqari, 10 ta maqolada tuproq tarkibi omili kuzatilgan bo'lsa, olimlar 5 ta maqolada asosiy omil sifatida yer qoplami, sug'oriladigan, yomg'ir oqimining erozivlik omili, qiya qishloq xo'jaligi yerlari hamda yer va yaylovlardan noto'g'ri foydalanishni qo'llagan. Tuproq eroziyasini o'rganishda yer qoplaming o'zgarishi va yerdan samarasiz foydalanishni omil sifatida ko'rib chiqilib, ularning har biri 2000-2024-yillar davomida 4 ta maqolada qo'llanilgan (Sarkar & Mishra, 2018; Taher et al., 2022; Teshome et al., 2022; Uddin et al., 2016). Bundan tashqari, eroziyaga olib keluvchi omil sifatida topografiya, sanoat ehtiyojlari hamda normallashtirilgan farq vegetatsiya indeksi (Normalized Difference Vegetation Index – NDVI) olindi va bu omillarning har biri 3 ta maqolada, tuproq qoplami, sug'orish, suvdan noto'g'ri foydalanish, gidrologik xususiyatlar, tajribalarni sozlash, tuproqning namligi va loy tarkibi umumiyligi 14 ta nashrda qo'llanilgan. Bundan tashqari, 23 ta omilning har biri 2000-yildan 2024-yilgacha faqat bitta

1-jadval.

#### **Tuproq eroziyasini o'rganishda qo'llaniladigan usullar.**

Uslublar	Ta'rifi	Kuchlantiruvchi omil	Eroziya turi
Geotexnik	Tuproqning xususiyatlari, tog' va tog' oldi hududlari nishabliklarining barqarorligini tahlil qilish, risk-monitoringini yuritish	Shaharsozlik, ekoturizm	Jarlik va massa eroziyasi
Geofizik	Seysmik holati, elektrontomografiyasi	Seysmik va tektonik harakatlar, sun'iy to'g'onlar	Loy ko'chkisi, Debris oqimi
Statistik	Tog' va tog' oldi hudularining eroziyaga bardoshliligi va moyilligi	Yog'ingarchilik, harorat, shamol tezligi, suvning tasniflangan oqimi, suv formatsiyasi va balansi, ko'l hosil bo'lishi (GLOF)	Yer yutishi, tuproq oqimi, sel, suvli yemirilish



9-rasm. 2000-2024-yillarda tuproq eroziyasini o'rganishda GAT va masofadan zondlashning o'rni.

2-jadval.

Tuproq eroziyasini o'rganish omillari.

Omillar	soni	Omillar	soni
Yer qoplami va boshqaruva omili	64	Mexanik tarkibi	1
DEM	41	Tuproqdagagi organik uglerod miqdori	1
Tuproqning eroziyalanish omili	36	Tuproqning xususiyatlari	1
Yog'ingarchilik	34	Tuproqning o'ziga xos muammolari	1
Nishablik	34	Ekinlarni boshqarish	1
«Support practice» omili	30	Sun'iy suv omborlarining roli	1
Tuproq turi	10	Yer usti suv omborlari	1
Yomg'ir oqimining erozivlik omili	5	Kesish bilan ishlov berish	1
Yer qoplami	5	Yerdan foydalanish amaliyoti	1
Sug'oriladigan yer	5	Zilzilalar	1
Qiya qishloq xo'jaligi yerlari	5	Aholining o'sishi va urbanizatsiya	1
Yaylovlardan noto'g'ri foydalanish	5	Antropogen omillar	1
Yer qoplaming o'zgarishi	4	Haddan tashqari yaylov	1
Yerdan samarasiz foydalanish	4	Tuproqqa ishlov berish usuli	1
Topografiya	3	O'rmonlarni kesish	1
Sanoat ehtiyojlari	3	Yerning qarshilik indeksi	1
NDVI	3	Gumus miqdori	1
Tuproq qoplami	2	O'simliklarning o'sish parametrlari	1
Sug'orish	2	Ekin ekish tiziimlari	1
Suvdan notog'ri foydalanish	2	Ijtimoiy-iqtisodiy omillar	1
Gidrologik xususiyatlari	2	Tuproqning g'ovakligi	1
Tajribalarni sozlash	2	Tuproq zichligi	1
Tuproqning namligi	2	Qum tarkibi	1
Loy tarkibi	2		

nashrda bir marta kuzatilgan. 47 ta omildan tadqiqotchilar asosan tuproq eroziyasini o'rganishda ko'rsatilgan dastlabki 12 ta omildan foydalanganlar (Hartanto et al., 2003; Pimentel & Burgess, 2013) (2-jadval).

### Xulosa.

2013-yildan beri tuproq eroziyasini o'rganish bo'yicha ko'rib chiqilgan nashrlar keskin ko'payganligini kuzatish mumkin. 2000-2010-yillarda yiliga o`rtacha 1 ta maqola, 2011-2020-yillarda yiliga o`rtacha 8 taga yaqin bo'lib, 721% o'sishni ta'minladi. Bu o'sish potentsial ravishda GAT va masofadan zondlashning yutuqlari, turli model yondashuvlari, ochiq ma'lumotlar manbalarining mavjudligi va yerni rejalashtirishni yaxshilash va salbiy oqibatlarini yumshatish yoki oldini olish uchun bunday xavfli hududlarni aniqlashda ilmiy manfaatlar muhimligi haqida xabardorlikning oshishi bilan bog'liq bo'ladi. 2000-2024-yillar oralig'ida ko'rib chiqilgan maqolalarga ko'ra, 83 tadan 75 tasi jurnal maqolalari, 5 ta konferentsiya ma'ruzalari, 3 ta kitob bo'limlari, asosan, "Sustainability", "International Soil and Water Conservation Research", "Environmental Earth Sciences", "Catena" va "Land" jurnallarida tuproq eroziyalari bilan bog'liq nashrlar chop etilgan. Hammasi bo'lib, 7055 ta iqtiboslar so'nggi 24 yil ichida 26 davlat tomonidan tuproq eroziysi bo'yicha chop etilgan 83 ta nashrga havola qilingan. 2000-2020-yillarda davomida 26 mamlakatdan 80 nafar olim tuproq eroziysi bo'yicha tadqiqot olib bordi va Vente J, Mondal A hamda

Pimentel D tuproq eroziyasini o'rganish bo'yicha boshqa mualliflar orasida bиринчи yetakchi о'rirlarni egallashdi. Ko'rib chiqilgan 83 ta nashrda 25 xil uslublar qo'llanilgan. Ular orasida GAT va masofadan zondlash texnikasi asosida RUSLE hamda USLE xaritalash usuli 2000-2024-yillarda chop etilgan maqolalarning taxminan 49% ida tuproq eroziyalarini o'rganishda eng ko'p qo'llanilgan.. GAT va masofaviy zondlash 2006-2009-yillar oralig'ida nashr etilgan maqolalarda umuman qo'llanilmagan va ular so'nggi 9 yil davomida kiritilgan tadqiqotlarda asta-sekin qo'llanila boshlandi. 2000-2024-yillar davomida o'tkazilgan tuproq eroziyasini o'rganishda 47 ta omil hisobga olingan va 20% maqolalarda yer qoplami omili potensial omil sifatida, keyingi о'rirlarda DEM, nishablik hamda yog'ingarchilik ko'rsatkichlari hisobga olingan. Ushbu hodisalar tog'li landshaftlar zonalarda kuzatilganligi sababli, O'rta Osiyo potentsial hududlardan biri bo'lib, yuqorida kelтирib o'tilgan omillarni ko'rib chiqish maqsadga muvofikdir.

Mazkur tadqiqot ishi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligi va Turkiya Respublikasi Ilmiy va texnologik tadqiqotlar kengashi (TUBITAK) hamkorlikdagi xalqaro ilmiy loyihalar tanlovi doirasida moliyalashtiriladigan "Soil erosion risk assessment using the MMF model and geoinformation technology in Tashkent province, Uzbekistan" mavzusidagi amaliy loyihani (AL-7523011140) bajarish maqsadida amalga oshirilgan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Akbari, M., Neamatollahi, E., Memarian, H., & Alizadeh Noughani, M. (2023). Assessing impacts of floods disaster on soil erosion risk based on the RUSLE-GloSEM approach in western Iran. *Natural Hazards*, 117(2), 1689–1710. <https://doi.org/10.1007/s11069-023-05925-y>
2. Alemu, M. D., Kebede, A., & Moges, A. (2019). Farmers' Perception of Soil Erosion and Adoption of Soil Conservation Technologies at Geshy Sub-Catchment, Gojob River Catchment, Ethiopia. *Agricultural Sciences*, 10(01), 46–65. <https://doi.org/10.4236/as.2019.101005>
3. Alewell, C., Borrelli, P., Meusburger, K., & Panagos, P. (2019). Using the USLE: Chances, challenges and limitations of soil erosion modelling. *International Soil and Water Conservation Research*, 7(3), 203–225. <https://doi.org/10.1016/j.iswcr.2019.05.004>
4. Alewell, C., Ringeval, B., Ballabio, C., Robinson, D. A., Panagos, P., & Borrelli, P. (2020). Global phosphorus shortage will be aggravated by soil erosion. *Nature Communications*, 11(1), 4546. <https://doi.org/10.1038/s41467-020-18326-7>
5. Altaf, S., Meraj, G., & Romshoo, S. A. (2014). Morphometry and land cover based multi-criteria analysis for assessing the soil erosion susceptibility of the western Himalayan watershed. *Environmental Monitoring and Assessment*, 186(12), 8391–8412. <https://doi.org/10.1007/s10661-014-4012-2>
6. Anh, P. T. Q., Gomi, T., MacDonald, L. H., Mizugaki, S., Van Khoa, P., & Furuichi, T. (2014). Linkages among land use, macronutrient levels, and soil erosion in northern Vietnam: A plot-scale study. *Geoderma*, 232–234, 352–362. <https://doi.org/10.1016/j.geoderma.2014.05.011>
7. Ardjasa, W. S., Ando, H., & Kimura, M. (2001). Yield and soil erosion among cassava-based cropping patterns in South Sumatra. *Soil Science and Plant Nutrition*, 47(1), 101–112. <https://doi.org/10.1080/00380768.2001.10408372>
8. Aslam, B., Maqsoom, A., Shahzaib, Kazmi, Z. A., Sodangi, M., Anwar, F., Bakri, M. H., Faisal Tufail, R., & Farooq, D. (2020). Effects of Landscape Changes on Soil Erosion in the Built Environment: Application of Geospatial-Based RUSLE Technique. *Sustainability*, 12(15), 5898. <https://doi.org/10.3390/su12155898>
9. Bandara, J. S., Chisholm, A., Ekanayake, A., & Jayasuriya, S. (2001). Environmental cost of soil erosion in Sri Lanka: tax/subsidy policy options. *Environmental Modelling & Software*, 16(6), 497–508. [https://doi.org/10.1016/S1364-8152\(01\)00019-6](https://doi.org/10.1016/S1364-8152(01)00019-6)
10. Bauer, A. M. (2014). Impacts of mid- to late-Holocene land use on residual hill geomorphology: A remote sensing and archaeological evaluation of human-related soil erosion in central Karnataka, South India. *The Holocene*, 24(1), 3–14. <https://doi.org/10.1177/0959683613512165>

11. Bellocchi, G., & Diodato, N. (2020). Rainfall Erosivity in Soil Erosion Processes. *Water*, 12(3), 722. <https://doi.org/10.3390/w12030722>
12. Benavidez, R., Jackson, B., Maxwell, D., & Norton, K. (2018). A review of the (Revised) Universal Soil Loss Equation ((R)USLE): with a view to increasing its global applicability and improving soil loss estimates. *Hydrology and Earth System Sciences*, 22(11), 6059–6086. <https://doi.org/10.5194/hess-22-6059-2018>
13. Bhatti, M. T., Ashraf, M., & Anwar, A. A. (2021). Soil Erosion and Sediment Load Management Strategies for Sustainable Irrigation in Arid Regions. *Sustainability*, 13(6), 3547. <https://doi.org/10.3390/su13063547>
14. Blake, W. H., Rabinovich, A., Wynants, M., Kelly, C., Nasseri, M., Ngondya, I., Patrick, A., Mtei, K., Munishi, L., Boeckx, P., Navas, A., Smith, H. G., Gilvear, D., Wilson, G., Roberts, N., & Ndakidemi, P. (2018). Soil erosion in East Africa: an interdisciplinary approach to realising pastoral land management change. *Environmental Research Letters*, 13(12), 124014. <https://doi.org/10.1088/1748-9326/aaea8b>
15. Boardman, J. (2006). Soil erosion science: Reflections on the limitations of current approaches. *CATENA*, 68(2–3), 73–86. <https://doi.org/10.1016/j.catena.2006.03.007>
16. Borrelli, P., Robinson, D. A., Panagos, P., Lugato, E., Yang, J. E., Alewell, C., Wuepper, D., Montanarella, L., & Ballabio, C. (2020). Land use and climate change impacts on global soil erosion by water (2015–2070). *Proceedings of the National Academy of Sciences*, 117(36), 21994–22001. <https://doi.org/10.1073/pnas.2001403117>
17. Brannigan, N., Mullan, D., Vandaele, K., Graham, C., McKinley, J., & Meneely, J. (2022). Modelling soil erosion by water under future climate change: Addressing methodological gaps. *CATENA*, 216, 106403. <https://doi.org/10.1016/j.catena.2022.106403>
18. Brisset, E., Miramont, C., Guiter, F., Anthony, E. J., Tachikawa, K., Poulenard, J., Arnaud, F., Delhon, C., Meunier, J.-D., Bard, E., & Suméra, F. (2013). Non-reversible ecosystem destabilisation at 4200 cal. BP: Sedimentological, geochemical and botanical markers of soil erosion recorded in a Mediterranean alpine lake. *The Holocene*, 23(12), 1863–1874. <https://doi.org/10.1177/0959683613508158>
19. Buhlmann, E., Wolfgramm, B., Maselli, D., Hurni, H., Sanginov, S. R., & Liniger, H. P. (2010). Geographic information system-based decision support for soil conservation planning in Tajikistan. *Journal of Soil and Water Conservation*, 65(3), 151–159. <https://doi.org/10.2489/jswc.65.3.151>
20. Chuenchum, P., Xu, M., & Tang, W. (2020). Predicted trends of soil erosion and sediment yield from future land use and climate change scenarios in the Lancang–Mekong River by using the modified RUSLE model. *International Soil and Water Conservation Research*, 8(3), 213–227. <https://doi.org/10.1016/j.iswcr.2020.06.006>
21. Cilek, A., Berberoglu, S., Kirkby, M., Irvine, B., Donmez, C., & Erdogan, M. A. (2015). Erosion Modelling In A Mediterranean Subcatchment Under Climate Change Scenarios Using Pan-European Soil Erosion Risk Assessment (PESERA). *The International Archives of the Photogrammetry, Remote Sensing and Spatial Information Sciences*, XL-7/W3, 359–365. <https://doi.org/10.5194/isprsarchives-XL-7-W3-359-2015>
22. Das, B., Paul, A., Bordoloi, R., Tripathi, O. P., & Pandey, P. K. (2018). Soil erosion risk assessment of hilly terrain through integrated approach of RUSLE and geospatial technology: a case study of Tirap District, Arunachal Pradesh. *Modeling Earth Systems and Environment*, 4(1), 373–381. <https://doi.org/10.1007/s40808-018-0435-z>
23. Dash, S. S., Paul, J. C., & Panigrahi, B. (2021). Assessing soil erosion vulnerability and locating suitable conservation structures for agricultural planning using GIS - a case study of Altuma catchment of Brahmani river Basin, Odisha, India. *Arabian Journal of Geosciences*, 14(21), 2201. <https://doi.org/10.1007/s12517-021-08493-2>
24. de Vente, J., & Poesen, J. (2005). Predicting soil erosion and sediment yield at the basin scale: Scale issues and semi-quantitative models. *Earth-Science Reviews*, 71(1–2), 95–125. <https://doi.org/10.1016/j.earscirev.2005.02.002>
25. de Vente, J., Poesen, J., Verstraeten, G., Govers, G., Vanmaercke, M., Van Rompaey, A., Arabkhedri, M., & Boix-Fayos, C. (2013). Predicting soil erosion and sediment yield at regional scales: Where do we stand? *Earth-Science Reviews*, 127, 16–29. <https://doi.org/10.1016/j.earscirev.2013.08.014>
26. den Biggelaar, C., Lal, R., Wiebe, K., Eswaran, H., Breneman, V., & Reich, P. (2003). *The Global Impact Of Soil Erosion On Productivity\** (pp. 49–95). [https://doi.org/10.1016/S0065-2113\(03\)81002-7](https://doi.org/10.1016/S0065-2113(03)81002-7)
27. Dissanayake, D., Morimoto, T., & Ranagalage, M. (2019). Accessing the soil erosion rate based on RUSLE model for sustainable land use management: a case study of the Kotmale watershed, Sri Lanka. *Modeling Earth Systems and Environment*, 5(1), 291–306. <https://doi.org/10.1007/s40808-018-0534-x>
28. Dubovyk, O. (2017). The role of Remote Sensing in land degradation assessments: opportunities and challenges. *European Journal of Remote Sensing*, 50(1), 601–613. <https://doi.org/10.1080/22797254.2017.1378926>
29. ERDIK, M., RASHIDOV, T., SAFAK, E., & TURDUKULOV, A. (2005). Assessment of seismic risk in Tashkent, Uzbekistan and Bishkek, Kyrgyz Republic. *Soil Dynamics and Earthquake Engineering*, 25(7–10), 473–486. <https://doi.org/10.1016/j.soildyn.2004.11.002>
30. Erkossa, T., Wudneh, A., Desalegn, B., & Taye, G. (2015). Linking soil erosion to on-site financial cost: lessons from watersheds in the Blue Nile basin. *Solid Earth*, 6(2), 765–774. <https://doi.org/10.5194/se-6-765-2015>

31. Furuichi, T., & Wasson, R. J. (2013). Caesium-137 in Southeast Asia: Is there enough left for soil erosion and sediment redistribution studies? *Journal of Asian Earth Sciences*, 77, 108–116. <https://doi.org/10.1016/j.jseaes.2013.08.012>
32. Gafforov, K. S., Bao, A., Rakhimov, S., Liu, T., Abdullaev, F., Jiang, L., Durdiev, K., Duulatov, E., Rakhimova, M., & Mukanov, Y. (2020). The Assessment of Climate Change on Rainfall-Runoff Erosivity in the Chirchik-Akhangaran Basin, Uzbekistan. *Sustainability*, 12(8), 3369. <https://doi.org/10.3390/su12083369>
33. Gafurova, L., & Juliev, M. (2021). Soil Degradation Problems and Foreseen Solutions in Uzbekistan. In *Regenerative Agriculture* (pp. 59–67). Springer International Publishing. [https://doi.org/10.1007/978-3-030-72224-1\\_5](https://doi.org/10.1007/978-3-030-72224-1_5)
hofaza qilish maqsadlariga erishish" 3-xatboshida "fuqarolarning hayot uchun qulay tabiiy muhitga ega bo'lish huquqini ta'minlash, barcha turdag'i ta'lrim muassasalarida ekologiya o'quvining majburiyligi" [1] belgilab qo'yilgan. Qolaversa, respublikamizda ekologik muammolarni bartaraf etish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash, barcha aholida ekologik madaniyatni shakllantirish maqsadida ekologik ta'lrim-tarbiyani uzluksiz ta'lrim tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida qarash va ta'lrim tizimi jarayoniga keng joriy etish maqsadida Ekologik ta'lrimni rivojlanirish konsepsiysi qabul qilingan bo'lsada, lekin uning ijrosi bugungi kunga qadar to'liq ta'minlanmasdan kelmoqda [2]. Shu sababli pedagoglar yoshlarda ekologik dunyoqarash, madaniyat va kompetentsiyani shakllantirishda qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar.

Mutaxassislarning fikricha, ekologik vaziyat yomon-lashuvining muhim sabablaridan biri aholi ekologik madaniyatining pastligi hamda sanoat korxonalari va turli darajadagi rahbarlar ekologik kompetentsiyasining yetarli emasligidir [3,4]. Kompetentsiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim – o'quvchilarning egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish imkoniyatidir. Mamlakatimizda ta'lim uzlusizligi, barkamol shaxsni tarbiyalashga yo'naltirilganligidan kelib chiqqan holda o'qitiladigan umumta'lim fanlari mazmunining izchilligini ta'minlash maqsadida tayanch kompetentsiyalar hamda har bir o'quv fani mazmunidan kelib chiqqan holda xususiy kompetentsiyalar belgilanadi [5].

Zero, yoshlarga beriladigan ta'lim jarayonida har bir fanga oid kompetentsiyalar shakllanib boradi va bu yoshlarning kelgusidagi faoliyatida, xatti-harakatida, tabiatga nisbatan munosabatida, boshqaruv ishlarini olib borishida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Kompetentsiya – ma'lum bir sohada samarali faoliyat olib borish uchun zarur bo'lgan mutaxassisning ta'limiy tayyorgarligiga qo'yilgan talabdir [6].

Tayanch kompetentsiyalar bir necha turlarga bo'linadi: kommunikativ kompetentsiya, axborot bilan ishslash kompetentsiyasi, shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish kompetentsiyasi, ijtimoiy faol fuqarolik kompetentsiyasi, umummadaniy kompetentsiyalar, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetentsiyasi kabi turlari mayjud. Xususan, ijtimoiy kompetentsiyada jamiyatda bo'layotgan voqeа, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va faol ishtirok etish, o'zining fuqarolik burchi va huquqlarini bilishi, unga rioya qilish kabilalar tushuniladi [5]. Xullas, kompetentsiya jamiyatda bo'layotgan voqeа, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va faol ishtirok etishdir. Aynan ekologiya fanini chuqur o'rganish, tabiat qonuniyatlarini va ularga bo'yusunish, ijtimoiy ekologik muammolar, ularning kelib chiqish sabablarini o'rganish, oqibatlarini tahlil qilish va yechimini ko'ra bilish, topishga oid tushuncha va tasavvurlarni shakllantiradi.

Shu bois, ekologik bilimlardan xabardor bo'lish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash uchun kelajakda oly ta'lim mutaxassisliklarida ekologik kompetentsiya, madaniyat va ekologik dunyoqarashni rivojlantirish zarur hisoblanadi. Biroq turli yo'nalishlar bo'yicha bakalavrular tayyorlayotgan oly o'quv yurtlarining o'quv rejasi va ta'lim dasturlarida ekologiya va ekologik menejment kabi fanlar va uning muammolari haligacha to'g'ri aks ettirilmagan.

Ekologik kompetentsiya barcha sohalar uchun mavjud ta'lim standartlari va malaka talablarida ko'rsatilmagan, garchi uning kelajakdagi soha mutaxassislari uchun ahamiyati katta. Jumladan, tarixchi, huquqshunos, marketing, menejer, iqtisodchi, inson resurslarini boshqarish, turizm kabi sohalar. Qolaversa, ekologik kompetentsiya barcha soha vakillarida, ayniqsa bugun va kelgusida rahbarlik lavozimida faoliyat yuritadigan kadrlar uchun niyoyatda

muhim hisoblanadi.

Bir necha o'n yillar davomida A.N.Zaxlebniy, S.N.Glazachev, N.S.Dejninkova, I.D.Zverev, V.A.Ignatova, B.T.Lixa-chev kabi xorijiy va MDH davlatlari olimlari, shuningdek, o'zbekistonlik tadqiqotchilar F.A.Abdullaev, Sh.R.Nazarova, U.Sh.Tursunov, V.Sattorov, N.Egamberdiyeva, I.X.Ayupova va boshqalar ekologik ta'lim sohasida ekologik madaniyatni shakllantirish bo'yicha faol tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Xususan, ekologik madaniyatni shakllantirishning bir qancha yondashuvlari mavjud. A.N.Zaxlebniy [3] fikricha, bu inson faoliyati va ongida atrof-muhitni boshqarish tamoyillarini bilish va qo'llash, atrof-muhit va inson salomatligiga zarar yetkazmasdan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilish qobiliyatidir. F.A.Abdullaev [7] ning fikricha, ekologik madaniyatning tabiatga nisbatan bilish faoliyati madaniyati, ekologik, estetik va ijtimoiy mezonlarni hisobga olgan holda mehnat qilish madaniyati va tabiat bilan ma'naviy muloqot madaniyati, estetik tuyg'ularni rivojlantirish hamda tabiiy va o'zgartirilgan tabiiy muhit sifatida baholash qobiliyat kabi ko'plab jihatlar mavjud. V.N.Sattorov [8] ning ishlarida ekologik ta'lim-tarbiya orqali inson va tabiat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning asosi hisoblangan mehnat, xususan, qishloq xo'jalik mehnati muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlanadi. N.M.Egamberdiyeva [9] ning tadqiqoti talabalar axloqiy tarbiyasi masalasini atrof-muhitga bo'lgan shaxs munosabati bilan uzviy bog'laganlik, inson axloqi va ekologik munosabat, zamonaviy axloqiy qadriyatlari va ekologik muvozanat masalalaridagi ichki mohiyatni anglash, o'zaro aloqadorlikni ko'ra bilish asosida o'rGANADI hamda mana shu jihatlari bilan diqqatni tortadi. I.X.Ayupova [10] tadqiqotlarida ekologik xavfsizlik madaniyatini shakllantirishda fuqarolik jamiyatining o'rni haqida fikr yuritilib, ta'limda "geoetika" va "ekogumanizatsiya", texnik kadrlarning kvalimetrik kompetentsiyasi, ekologiyani o'qitishda ko'ptarmoqlilik jarayoniga o'tish, ekologik ta'lim mazmuniga doir konseptual yondashuvlar va dolzarb yo'nalishlarning aniqlanganligi bilan belgilanadi. Albatta, ushbu tadqiqotlar ekologik kompetentsiyaning tarkib topishida muhim hisoblanadi.

Muallif tomonidan olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, hozirgi vaqtda turli soha mutaxassisliklari bitiruvchilarida ekologiya sohasidagi kasbiy tayyorgarligi darajasi yetarlicha yuqori emas. Asosiy muammo – aksariyat o'quv dasturlarida ekologiya bo'yicha dars soatlarining yo'qligi. Shuningdek, ta'lim dasturlarida ekologik bilimlardan foydalanishning past darajada ekanligi. Bundan tashqari, ta'lim standartlarining mintaqaviy jihatlarini, hududiy tarkibiy qismlarini hisobga olish va ekologik xabardorlikni har bir talaba yoshning shaxsiyati uchun mazmunli bo'lishiga erishish lozim. Oly ta'limning barcha nomutaxassis yo'nalishlari bo'yicha kasbiy tayyorgarlikning umumiy tizimiga ekologiya fanining kiritilishini shart deb hisoblaymiz.

Ekologiya va ekologik menejment fanlari asosida tala-balarning ekologik kompetentsiyasini rivojlantirish muam-

mosini o'rganishdan iborat. Tahlillarga asoslanib, muallif ushbu sohada bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligi yetarli darajada yuqori emasligini qayd etadi. Asosiy muammolardan biri ko'pchilik o'quv rejalarida ekologiya fani dars soatlarining yo'qligi hamda ta'limga standartlari va malaka talablarida ekologik kompetentsiyani shakllantirishga oid bilimlar tizimining tushuncha, malaka va ko'nikmalarda aks ettirilmaganligi nazariyi jihatdan asoslanadi.

Shuni hisobga olish kerakki, ayni kunda zamonaviy ta'limga ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish fanlari hamda amaliy ekologik tadbirdarsiz tasavvur etish qiyin. Ekologik muammolarni hal qilish davlat siyosati hamda rahbarlarning ekologik kompetentsiyasi, milliy qadriyatlar va uning ustuvorligiga bog'liq. Buning uchun ilmiy, nazariy va amaliy darajalarda tegishli usullarni ishlab chiqish, ularni sinovdan o'tkazish va o'quv jarayoniga tatbiq etish talab etiladi.

Talabalarning ekologik madaniyatini shakllantirish turli jihatlarni o'z ichiga oladi. Bu ekologik bilim va go'yalarini egallash, motivatsiya va ongni rivojlantirish, ekologik faoliyatga bo'lgan e'tiqod va ehtiyojlarni shakllantirish, tabiatga munosabatni o'zgartirish va ta'limga-tarbiyada tegishli ehtiyojlar, motivlar va munosabatlarni rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Ekologik madaniyat shaxs sifati uzuksiz ekologik ta'limga va tarbiya doirasida rivojlanishi kerak. Ekologik ta'limga tizimli bo'lishi va erta bolalikdan boshlanib, butun umr davomida uzuksizligi davom etishi kerak. Tabiatga munosabat inson hayotining oilavisi, ijtimoiy, ishlab chiqarish va shaxslararo munosabatlari kabi turli sohalari bilan o'zaro bog'liq bo'lib, ong va faoliyatning turli tomonlarini, jumladan, ilmiy, siyosiy, g'oyaviy, badiiy, axloqiy, estetik va huquqiy sohalarni qamrab oladi.

Bo'lajak mutaxassislarning ekologik kompetentsiyasi barqaror rivojlanishga qaratilgan me'yorlar va qadriyatlarni o'zlashtirishni aks ettirishi, tabiatga jamiyat o'rtafiga o'zaro munosabatlar sohasidagi boshqaruv qarorlarini ekologik tekshirish zaruratida namoyon bo'lishi kerak.

Ta'limga maqsadlari nuqtai nazaridan yoshlarni nafaqat jamiyatning ekologik muammolarini tushunishga, balki real sharoitlarni va ularning dinamikasini hisobga olishga o'rgatish muhimdir. Ham an'anaviy usullarni takomillashtirish, ham keljakdagi mutaxassislarning ekologik

kompetentsiyasini, ekologik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish zarur.

Talabalarning ekologik madaniyatini shakllantirish kasbiy pedagogika va atrof-muhitni muhofaza qilishning muhim vazifalaridan biridir. Hozirgi vaqtida ekologik ta'limga va madaniyatga qo'yildigan talablar shaxs umumiy madaniyatining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Axloqiy tarbiyaning bir qismi bo'lgan ekologik ta'limga, ekologik ong va madaniyatni shakllantirishga e'tibor tobora kuchayib bormoqda. Binobarin, ekologik madaniyat deganda ekologik ong, xulq-atvor va tarbiyaning tabiat bilan uyg'un birligi tushuniladi. Mamlakatimizning turli mintaqalarida yoshlarning ekologik tarbiyasi milliy an'analar, ma'lum bir hududda yashovchi xalqlarning xususiyatlari, shuningdek, o'z ona yurtining tabiatiga va real vaziyatga bo'lgan munosabati ta'sirida o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi. Albatta, ekologik madaniyatning shakllanishiga ekologik bilim, e'tiqod va malaka ta'sir etadi.

Ekologiya fanini ta'limga tizimida qo'llashda, asosan talabalarning ushbu sohasidagi tayyorgarlik darajasini turli usullar yordamida amalga oshirish mumkin. Xususan,

- ✓ Talabalarning mustaqil ishlarini kuzatish.
- ✓ Individual va guruhi muammoli-tematik suhbatlar.
- ✓ Case study metodologiyasi
- ✓ "Muammoli ma'ruza" usulidan foydalanish.
- ✓ Fikrlash elementlari bilan yozma so'rov.

O'quv jarayonida darslarni o'tkazishning asosiy shakllaridan tashqari, munozarali ma'ruzalar, onlayn seminarlar, universitetlararo telekonferentsiyalar, soha mutaxassislari bilan uchrashuvlar, shuningdek, talabalarning kasbiy mahoratini shakllantirish va rivojlantirish uchun darsdan tashqari amaliy ishlarni yo'lga qo'yish muhim. Muayyan muammolarni hal qilish uchun kichik guruhlarda ishlash, guruh muhokamalari, rolli o'yinlar va aqliy hujum kabi tadqiqot ishlarining elementlari bilan faol o'qitish usullaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, ekologik kompetentsiya va ekologik madaniyat darajasi nafaqat ekologik bilimlarning mavjudligini nazarda tutadi, balki tabiatga hissiy va qadriyatlarga asoslangan ijobiy munosabatni, tegishli fikrlash va faoliyat uslubini talab qiladi.

Hozirgi vaqtida ekologik kompetentsiyani rivojlantirish nafaqat kadrlar tayyorlash, balki ta'limga tizimining ham ajralmas

#### **Turli mutaxassisliklar uchun "Ekologiya" fanining yo'naliishlari**

Fanning nomi	Mutaxassislik
"Ekologik menejment"	Marketing, menejer, iqtisod, inson resurslarini boshqarish
"Ijtimoiy ekologiya"	Tarix, huquq
"Inson ekologiyasi"	Tibbiyot, farmatsevtika
"Bioekologiya"	Tabiiy fanlar: biologiya,
"Ekoturizm"	Turizm, geografiya, xorijiy tillar

qismiga aylanib bormoqda. Ekologik ta'limga har tomonlama, o'qitish va ta'limga ishlarning boshqa sohalari bilan uyg'un bo'lishi kerak, chunki u insonparvarlashtirish jarayonining tarkibiy qismlaridan biridir. Barqaror rivojlanish strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ekologik ta'limga faqat ekologik bilimlarni uzatish bilan cheklamasligi kerak, tizimli ekologik tafakkurni rivojlantirishi va shaxsnинг ekologik madaniyatini shakllantirishga yordam berishi kerak.

Tadqiqot davomida ekologiya va ekologik menejment fanlarini o'rganishga qiziqishning ortishi, talabalar o'rtasida ushbu fanlarni yanada chucherroq o'rganish zaruratinining mayjudligini ko'rsatadi. Ushbu fanni o'rganish doirasida atrof-muhitni muhofaza qilishning asosiy mexanizmlari, ya'ni, xususiyatlari, jihatlari, vazifalari, aspektlari, shuningdek, atrof-muhitni boshqarish tizimi va uni moliyaviy ta'minlash kabilarni o'z ichiga oldi. Ekologik madaniyat va ekologik kompetentsiyani rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga hissa qo'shadigan vazifalar tizimi bo'lishi lozim. Amaliy faoliyatni kuchaytirish orqali tabiatga, shaxsga, ijtimoiy muhitga va faoliyatga qadriyat munosabatini rivojlantirish sharti sifatida ekologik madaniyatning boshlang'ich darajasini va ekologik kompetentsiyani shakllantirish samaradorligini aniqlaydi va uni oshirish imkonini beradi.

Eng muhimi talabalarga beriladigan bilim ularning mutaxassisliklarini e'tiborga olgan holda bo'lishi lozim.

Shu nuqtai nazardan, mutaxassisliklardan kelib chiqqan holda, ekologiya fanini maxsus yo'nalishlari bo'yicha o'quv rejalgarda kiritish yanada aniqlikni keltirib chiqaradi. Shuningdek, ekologiya fanining tarmoqlaridan to'g'ri foydalanilganda ekologik bilimlar mazmuni chuqr va mukammal egallanadi, yoshlarda ekologik kompetentsiyaning shakllanish samaradorligi yuqori bo'ladi va yaxshi natija beradi.

Fanni o'zlashtirish natijasida talabalarda ekologik kompetentsiyaning quyidagi tarkibiy qismlari shakllanishi lozim:

- Ekologik vaziyat sharoitida o'z kasbiy faoliyatni natijalari uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olish qobiliyati.

- Atrof-muhitni, odamlarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishni ta'minlashga tayyorlik.

- Ekologik muammolarni hal qilishda zamonaviy boshqaruv usullaridan foydalanish qobiliyati.

- Atrof-muhitdag'i baxtsiz hodisalar va ofatlarning mumkin bo'lgan oqibatlarini anglab yetish va himoya qilishning asosiy usullarini qo'llash qobiliyati.

- Qaror qabul qilish va ularning oqibatlarini ekologik vaziyatga ta'siri nuqtai nazaridan baholash qobiliyati.

Turli mutaxassisliklarda ta'limga olayotgan talabalar ekologiya va ekologik menejment fanlarini o'qiganliklari, uning maqsad va vazifasini tushunib yetganliklari, ekologik bilimlardan xabardorliklari, ekologik tushinchaga dunyoqarashning shakllanganligi, ularning atrof-muhitga nisbatan munosabatlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Qolaversa, talabalarning ekologiya sohasidagi tegishli kompetensiyalarni o'zlashtirishi ta'limga sifatini oshiradi va uni xalqaro ta'limga standartlariga moslashtiradi. Ekologik bilimlarning asosiy ta'limga qo'llanilishi uning faoliyat ko'lamini kengaytiradi va ekologik omillarni hisobga olgan holda samarali qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

### Xulosa.

Hozirgi vaqtida atrof-muhitni muhofaza qilish va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlashga bo'lgan ehtiyojning ortib borayotganligi tobora muhim va dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Bu yo'nalishdagi ilmiy-tadqiqot va o'quv faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yish talabalarning atrof-muhitni muhofaza qilish va boshqarish sohasidagi kompetentsiyasini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu ularga nafaqat zarur bilimlarni egallash, balki ekologik muammolarni samarali hal etish, tashkilotlar va umuman jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun zarur bo'lgan ko'nikma va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish imkonini beradi.

Ekologiya va ekologik menejment bo'yicha ta'limga yangi qadriyatlar va axloqiy munosabatlarni shakllantirishni, ehtiyojlar, maqsadlar, ustuvorliklar va harakat usullari tarkibini har bir mutaxasssilikka mos holda qayta ko'rib chiqishni talab qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun. 1992-yil 09-dekabr 754-XII-soni.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydag'i "Ekologik ta'limga rivojlanish konsepsiysi to'g'risida"gi VM-434-sonli qarori.
3. Zaxlebny A.N. Ekologik ta'limga metodologiya, nazariya, amaliyat. - M.: Oliy mакtab, 2003-yil.
4. Glazachev S. N. Ekologik ta'limga muammolar va istiqbollar. - M.: Akademik loyiha, 2005-yil.
5. <https://idum.uz/uz/archives/11744>
6. <https://uz.goodinternet.org/uz/sections/pedagoglar/talim-va-men/kompetensiya-nima/>
7. Abdullaev F.A. O'zbekistonda ekologik ta'limga holati, muammolari, istiqbollari. - Toshkent: Fan, 2008-yil.
8. Sattrov V.N. Umumiy o'rta ta'limga maktablarining Y-IX sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish (qishloq xo'jalik mehnati ta'limi misolida). Ped.fan.nom. diss. avtoreferati. -T, 2001. - 22 b.
9. Egamberdiyeva N.M. Atrof muhit ta'sirida talabalarni tarbiyalashning ilmiy-pedagogik asoslari (pedagogika kollejlari misolida). Ped.fan. nomz.diss. avtoref. - T, 2004. - 23 b.
10. Ayupova I.X. Ekologik xavfsizlik madaniyatini shakllantirishda fuqarolik jamiyatining o'rni. - Toshkent: "BAYOZ", 2017. - 64 b.

# **NUROTA TOG' I JAVOHIRLARI**

Nurota tog' tizmasi Sangzor daryosi bo'yidan, aniqrog'i, Amir Temur darvozasining g'arbiy tomonidan boshlanib, Nurota shahri yaqinigacha cho'zilgan. Eng baland nuqtasi – Hayotboshi cho'qqisi. Uning dengiz sathidan balandligi 2 ming 170 metr. Tog'ning Beshbarmoq va Parondoz kabi cho'qqilar Hayotboshidan biroz pastroq bo'lib, ulkan devor ko'rinishiga ega. Mazkur cho'qqilar shamol kuchini susaytirib, qish va bahorda bulutlar harakatini sekinlashtiradi. Bu esa tog'da yog'ingarchilikning ko'p bo'lismiga sabab hisoblanadi. Suv va namlik ko'p bo'lgan joyda o'simlik va hayvonot olami yaxshi rivojlanadi. Nurota tog' tizmasi flora va faunasining boyligi ana shundan. Ayniqsa, bu yerda sayyoramizning boshqa mintaqalarida deyarli uchramaydigan noyob tur – alqorlarning borligi dunyo ahlining qiziqishini oshirmoqda.

Nurota alqorlari – yovvoyi qo'yrlarning kenja turi. Ular "Seversev qo'y'i", "Qizilqum qo'y'i", "arhar" nomlari bilan ham ataladi. O'tmishda alqorlar Qizilqum qoldiq tog'larida, Nurota, Oqtog', Qoratog', Molguzar, Turkiston, Bo'kantog', Sulton Uvays, Tomdi tog'larida yashagan. 1960-1970-yillarda bu noyob yovvoyi qo'ylar ovchilar tomonidan ko'p hududlarda betartib ovlanib, deyarli qirib yuborilgan. Shu tufayli alqorlar soni juda kamayib ketadi. Asosan Nurota tog'ida ko'proq suruvi saqlanib qolgan. 1975-yilda 17 ming 752 hektarlik "Nurota" davlat qo'riqxonasi tashkil etilib, mazkur noyob jonzotlarni muhofaza qilishga kirishilgan. 1996-97-yillarda alqorlar soni 2 mingtaga yetgan. Lekin o'sha yili qishning qattiq kelishi, qorning qalin yog'ishi tufayli alqorlarning

200 taga yaqini nobud bo'ladi. Bugungi kunda qo'riqxonada alqorlar soni 1500-1600 atrofida.

"Nurota" davlat qo'riqxonasida alqorlardan boshqa sutemizuvchi hayvonlar ham ko'p. Bo'ri, shoqol, tulki, yovvoyi cho'chqa, suvsar, bo'rsiq, jayra, quyon kabi 33 turdan ortiq jonzot shular jumlasidan. Qushlarning 196 ta, sudralib yuruvchilarning 21 ta, hasharotlarning 760 ta turi borligi ilmiy xodimlar tomonidan qayd etilgan.



**“Dunyo bo’ylab” telekanalining “Ekspeditsiya” ko’rsatuvi ijodiy guruhi a’zolari qo’riqxona hudu-didagi Qarisoy va Bup darasi tomon yo’l oldik. 2 soat deganda Bup dasasiga, Beshbarmoq cho’qqisining pastki qismiga yetdik. Endi eng qiyin ish – daraning yuqorisiga chiqib alqorlar harakatini kuzatishga kirishish lozim. Yana bir yarim soat deganda chama-si ming metr balandlikka ko’tarildik. Shunda Bup tangisining u yer, bu yerida soyalab yotgan alqorlar to’dasi bizni ko’rdi yoki shovurimizni sezdi chog’i birin-ketin qoyaning ortiga o’tib keta boshladi. Ularni yaqindan tomosha qilganimizdan juda xursand edik. Sababi yovvoyi tabiatda birinchi bor alqor to’dalarini uchratdik.**

Beshbarmoq cho’qqisining biroz pastidagi katta xarsang yonidan Bup darasi kaftdek ko’rinar ekan. Ayni tush payti shu yerdan atrofni jimgina kuzatdik. Alqorlar atrofda insonlar borligini payqadi shekilli, bezovtalanib qoldi. Ulardan biri kichikroq qoya ustiga chiqib, oldingi oyog’ini yerga bir necha marta urib, burnini pingillatdi. Bu alqorlarni xavfdan ogoh qiluvchi «signal» hisoblanarkan. Bu g’alati sasni eshitgan alqor borki turli tomon yugurib qolishdi. Bir payti Bup qoyasining ustida turgan qarisovliq vaziyatni aniqladi shekilli egiz qo’zisini va sheriklarini ergashtirib, to’g’ri daraning ichiga qarab tezlik bilan chopra boshladi. Tosh, shag’allarning shaqur-shuqurini eshitgan boshqa alqorlar ham o’sha qarisovliq tomon birin-ketin harakatlandi. Shu payti qayer-dandir to’rtta qo’chqor paydo bo’ldi. Ular sovliqlarga qara-ganda bir yarim barobar yirik edi. Shoxlari buralib ketgan. Pastga qarab har sakraganda 2-3 metrga borib tushardi. Tuyoqlari tagidan chang ko’tarilardi.

Qarisoya ham alqorlar ko’p ekan. Butazorlar orasiga joylashib, yovvoyi tog’ qo’ylarini kuzatishda davom etdik. Alqor qo’chqorlarining katta to’dasiga ko’zimiz tushdi. Ular 5-6 yoshda. Yaqin so’qmoqdan tizilib o’tmoqda. Qadami tezlashgan. Demak, ular ham xavfdan ogoh.

Shu tariqa ekspeditsianing birinchi kuni nihoyasiga yetdi. Kun kech bo’ldi. Palatkani dara ichidagi biroz tekis yerga qurib, dam oldik. Ikkinchini kun erta tongda uyg’ondik. Tog’ning yuqorisiga, aniqrog’i, yuksak Parondonoz cho’qqisi tomon yo’l oldik. Maqsad “Nurota” davlat qo’riqxonasidagi eng nodir tabiiy yodgorliklardan biri – Parondonoz g’orini tasvirga olishdan iborat. G’or cho’qqining Uxum qishlog’i tomonida joylashgan. Bir yarim soat deganda g’orga yaqinlashdik. Ustimizda qumoy, tasqara, g’ajir, boltayutar kabi o’laksaxo’r qushlar uchib gir aylanmoqda. Kakliklarning ham tinchi buzilib, u yoqdan bu yoqqa pirillab uchyapti. Qisqasi, kutilmagan mehnolarni ko’rib yovvoyi tabiat “mezbon”larining halovati buzildi. G’or baland qoyaning chamasi 15-20 metr balandligida joylashgan ekan. Birin-ketin silliq qoyatoshga tirmashib yuqorilay boshladik. Oxir-oqibat g’orga yetdik. U haqiqiy yer osti qasrinin o’zginasi. Bir dam bo’lsa-da, bizni sehrlab qo’ydi. Zalning kengligiga, devorlarining balandligiga, shiftiga, g’or ichidagi tuyruk va kovaklarga hayratlanib qaraymiz. Xuddi inson qo’li bilan bunyod etilgan san’at asariga o’xshaydi.

G’orning 4 ta og’zi bor. Og’zi ko’p bo’lganligi uchun ichkari yop-yorug’. Havosi quruq va iliq. Shu bois bu yerni kabutar, qaldirg’och kabi qushlar hamda alqorlar boshpana qilgan. Parondonoz g’orining uzunligi 45 metrdan ortiq. Balandligi 18-20 metr. Uning shiftiga razm solamiz. Devorlaridagi kovaklarda qushlar uyasi bor. Ular toshchumchuq va tog’ qaldirg’ochlariniki. Yuzlab ko’rshapalaklar to’da bo’lib g’or shiftidagi kovaklarga joylashib olgan.

Dengiz sathidan 1 ming 800 metr balandlikda joylashgan Parondonoz g’orining ko’rinishi juda maftunkor. U har qanday sayyohni ohanraboday o’ziga tortadi. Ayniqsa, ikkinchi va uchinchi og’zida turib tabiatni kuzatsangiz, olam-olam zavq olasiz. Sababi bu yerdan Nurota tog’ining go’zal tabiiy landshaftlari, soy ichidagi yong’oqzorlar, Uxum qishlog’i ko’z oldingizda kaftdek namoyon bo’ladi.



Safarimizning uchinchi kuni «Nurota» davlat qo’riqxonasining eng katta bo’limi – Tikchasoya yo’l oldik. Tikchasoy katta va vahimali dara. Odam yurolmaydigan qoyali joylari ko’p. Shu boisdan alqorlar asosan shu yerni makon tutgan. Qaqragan soy bo’ylab yuqorilar ekanmiz, qarshimizdan to’da-to’da alqorlar paydo bo’lmoqda. Ular shu ondayoq toshlardan-toshlarga sakrab yuqorilab ketyapti. Darada alqorlar shunchalik ko’p ekanki, bir-bir yarim soat ichida 200 tadan ortig’ini ko’rdik.

Dara yuqorisida alqorlarning katta suruviga duch kel-dik. Ularni sanadik. 25 ta ekan. Poda sovliq va qo’zilardan iborat. Ular bizdan deyarli xurkmadi. Ovchi emasligimizni bildi chog’i, bizga qarab-qarab yuqoriga yugurmasdan chiqib ketmoqda.

Alqorlarning tashqi ko’rinishi, hayot tarzi ko’pchilikni qiziqtirishi tabiiy. Ona tabiatning bu nodir jonzotlari o’rtacha kattalikda, xonaki qo’ylarning ajdodi. Sovliqlarining og’irligi 50-60, qo’chqorlariniki esa 80-100 kilogramm, tana uzunligi 130-140 santimetrga yetadi. Qo’chqorlarining shoxlari ancha katta, burama-burama bo’lib, orqaga qayrilib turadi va butun umri davomida o’sadi. Yoshi katta qo’chqorlarning shoxi boshining ikki chekkasida gajaklanib ketadi.

Alqorlar asosan poda bo’lib yashaydi. Ular juda chaqqon va sezgir jonivor. Oyoqlari baquvvat. Qoyalarda erkin harakatlanadi. Insonlarni ko’rishi bilan toshdan-toshga sakrab, bir zumda ko’zdan g’oyib bo’ladi. Yugurishda bo’rilardan ham chopqir. Sovliqlari aprel va may oyida asosan egiz qo’zilaydi. Bu paytda ular bo’ri va shoqollar borolmaydigan

qoyatoshlarga chiqib ketadi. Tug'ilgan qo'zi 3-4 soatdan keyin onasiga bemalol ergasha oladi. Alqor qo'zilari ikki yil davomida onasi bilan birga yashaydi. Keyin qo'chqorlari ajralib chiqib, alohida uyur hosil qiladi. Urg' ochilari esa onasi bilan yashashda davom etadi. Alqorlar har xil o'tlar, yarimbutalar bilan oziqlanadi. Yovvoyi bodom, olma, tut, do'lana, na'matak mevalarini xush ko'radi.

Jizzax viloyatidagi «Nurota» davlat qo'riqxonasi hududida o'simliklarning 820 turi mavjud. Shundan 24 tasi endemik tur, ya'ni kurrai zaminimizning boshqa mintaqasida o'smaydi. Nurota tog'i o'simliklari orasida shifobaxshlik xususiyatiga ega bo'lganlari ham ko'p. Alqorlar aynan shu o'simliklarni yeganliklari uchun ham kasallikka deyarli chalinmaydi. Ular ayrim tog' jinslarini yalab, organizmi uchun zarur bo'lgan minerallarni oladi. Alqorlar yovvoyi tabiatda 12 yilgacha yashaydi.

Nurota tog'ida burgut va bo'rilar ham yetarli. Ular bilan alqorlar million yillardan buyon yonma-yon yashab, mukammal ozuqa zanjirini hosil qilgan. Yirtqichlar kasal va nimjon, o'lgan alqorlarni yeb, hududning sanitariya ahvolini bir me'yorda ushlab turadi. Shuning uchun alqorlar yuqumli kasalliklardan qirilib ketmaydi.

Alqorlar quruq va issiq iqlimga yaxshi moslashgan. Yoz oylarida kechasi faol bo'ladi. Quyosh chiqib, kun biroz isishi bilan qoyalar soyasida yotadi yoki butalar orasiga yashirinadi. Kech kirib salqin tushguncha shu yerda bo'ladi. Tikchasoyda bunday joylar ko'p. Ayni tush payti alqorlarning qoyalar soyasida yotganini, bodomzorlar orasidagi soya-salqin joylarda oziqlanayotganini bir necha bor ko'rdik. Alqorlarning tush paytidagi yotoq joylarini ko'rish uchun tog'ning juda baland joyiga chiqib ketgan ekanmiz. Bu yerdan soyga tushguncha naq 3 saat vaqt ketdi. Endi yovvoyi qo'ylarning harakatini bemalol kuzatish uchun yana kech bo'lishini kutish kerak. Shunday qildik ham. Kech bo'lishi bilan Hayotboshi cho'qqisi tomon yurdik. Changalzorlar orasidan, qoyatoshlar tagidan alqorlar birin-ketin chiqib o'tlay boshladi. Ular asosan tog'ning yuqori qismida shamolgay joylarda o'tlamoqda. Ba'zilari poyloqchilik qilib, qoyalarning ustiga chiqib atrofni kuzatyapti. Demak, alqorlar kun botar payti qirning ustiga chiqib o'tlar ekan. Ular chindan ham Nurota tog'iga ko'rk bag'ishlab turibdi. Dunyoning hech bir joyida uchramaydigan bu noyob yovvoyi qo'ylar Nurota tog'ining javohirlaridir.

Xo'sh, Nurota alqorlarini nima uchun nodir jonzot deymiz? Axir, bu turdagи yovvoyi tog' qo'ylari dunyoning ko'pgina joylarida, jumladan, Amerika tog'larida ham bor-ku! To'g'ri, alqorlar ko'p, lekin Nurota tog'idagi alqorlar yovvoyi tog' qo'ylarining eng kenja turi. Ular endemik hisoblanadi. Faqat O'zbekistonda saqlab qolingga. Shuning uchun ham Nurota alqorlari O'zbekiston "Qizil kitobi" va Xalqaro "Qizil kitob" ga kiritilgan.

"Nurota" davlat qo'riqxonasida alqorlarni yarim tabiiy holda urchitish va ko'paytirish, ilmiy o'rganish, tajribalar olib borish maqsadida Forish tumanining Hayot qishlog'iда parvarishxona barpo etilgan. Ehtiyojning oshgani hisobga olinib, 2011 yilda parvarishxona maydoni yana 5 yarim gektarga kengaytirilib, 14 gektarga yetkazilgan. Hozirda bu

yerda turli yoshdagи 12 ta alqor boqilib, ularning hayot tarzi o'rganilmoqda.

Ekspeditsiyaning so'nggi kuni. Qo'riqxonadagi yana bir tabiiy yodgorlik – qadimiy sarv archasini ko'rish uchun otlandik. Sarv daraxti Forish tumanining Mojrum qishlog'i yuqorisida, qo'riqxonaning eng olis hududida, baland tog'lar bag'rida savlat to'kib, yashnab turibdi. Uning yoshi aniq emas. Taxminan 2 ming yilga teng. Botanik olimlar daraxtning tana tuzilishini o'rganib, shunday xulosaga kelgan. Demak, Mojrum sarvisi O'zbekistondagi eng qadimiy daraxtlardan biri. Shunday bo'lsa-da, daraxt hali ham navqiron.



Umrboqiy daraxtni ko'rish va zavq olish uchun har kuni o'nlab mahalliy va xorijlik sayyoohlар kelmoqda. Bu Mojrum-soydagi azm daraxtning dong'i olis-olislarga ketganidan darak. Mahalliy aholi bu daraxtni sarv deb ataydi.

Moziydan meros bu tabiat mo'jizasi doimo yam-yashil. Bo'yи 20 metr dan ziyod. Uchta katta shohi bor. Ulardan eng yirigi yuqoriga, qolgan ikkitasi yonga qarab o'sgan. Ignabarglari yassi, to'q yashil rangda, mevasi qubbali, tuxumsimon. Mojrum sarvisining eni juda katta. Ayrim manbalarda uning tana aylanasi 10-15, yana ba'zilarida esa 24 metr deyilgan. Lekin biz aniq ma'lumotga ega bo'lish uchun o'lchab ko'rdik. Sarvning tana aylanasi 21 metr ekan.

Bobo sarvning atrofiga nazar tashlaymiz. Biroz yuqorida qadimiyligi uylarning xarobalari saqlanib qolgan.

**-Ilgari bu yerda ming oila yashagan,- deydi  
mojrumlilik oqsoqol Shakarboy Shukurov. - Ular  
dehqonchilik, bog'dorchilik va chorvachilik bilan  
shug'ullangan. Farzandlari sarv daraxtining tagidagi  
supada saboq olgan. Aniqrog'i, bu supa maktabxona  
vazifasini o'tagan. Sobiq tuzum davrida Mirzacho'lni  
o'zlashtirish maqsadida qishloq ahli butunlay  
ko'chirilgan. Bu yerda xarobalar qolgan, xolos...**

O'zbekistonning haqiqiy yovvoyi tabiatiga, ya'ni "Nurota" davlat qo'riqxonasiga qilgan ekspeditsiyamiz g'oyat samarali bo'ldi. Ko'plab tabiiy yodgorliklarni, flora va faunaning eng noyob turlarini, shuningdek, Nurota alqorlarini ko'rib, ular haqida xalqimizga, qolaversa, dunyo ahliga ma'lumot berish baxtiga tuyassar bo'ldik.

**Abdulla MAMASODIQOV,**  
jurnalist.

**1**

## SAYYORAMIZ AHOLISINING 80 FOIZI IQLIM O'ZGARISHIGA QARSHI YANADA FAOLROQ HARAKAT QILISH TARAFDORI



Iqlim o'zgarishi muammolari bo'yicha tarixdagi eng yirik jamoatchilik fikrini o'rganishga oid so'rov shuni ko'rsatdiki, dunyodagi odamlarning 80 foizi o'z hukumatlari tomonidan iqlim inqiroziga qarshi kurashda kuchliroq choralar ko'rilishini istaydi. Bundan ham ko'proq – 86 foizi mamlakatlar geosiyosiy masalalarda kelishmovchiliklarni chetga surib, iqlim o'zgarishi muammolari bo'yicha birgalikda harakat qilishini xohlaydi.

So'rov BMT Taraqqiyot dasturi (BMTTD) buyurtmasi bo'yicha Oksford universiteti va GeoPol kompaniyasi hamkorligi o'tkazildi. Unda 77 davlatdan 87 tilda so'zlashuvchi 73 ming kishi ishtirot etdi.

So'rov shuni ko'rsatdiki, atmosferaga issiqxona gazlari chiqindilarining asosiy ulushi uchun javobgar bo'lgan dunyodagi eng yirik yigirmata davlatda aholining aksariyati iqlim choralarini kuchaytirish tarafdoi: AQSH va Rossiyada respondentlarning 66 foizi, Germaniyada – 67 foizi, Xitoyda – 73 foizi, Janubiy Afrika va Hindistonda – 77 foizi, Braziliyada – 85 foizi, Eronda – 88 foizi, Italiyada – 93 foizi shunday fikrni bildirgani.

Avstraliya, Kanada, Fransiya, Germaniya va AQSHda ayollar iqlim o'zgarishidan erkaklarga qaraganda ko'proq tashvishlanishi (17 foiz punktga ko'p) aniqlangan.

**“**Iqlim bo'yicha xalqlarning ovoz berishi natijsasi dunyo mamlakatlari fuqarolari ularning yetakchilari kelishmovchiliklarni yengib o'tishi va hozirning o'zidayoq iqlim inqiroziga qarshi faolroq kurashni boshlashini istashini aniq va ravshan anglatadi, – dedi BMT Taraqqiyot dasturi ma'muri Axim Shtayner. – Ushbu misli ko'rilmagan so'rov natijasi konsensusning hayratlanarli darajasini ko'rsatadi. Biz siyosatchilar, davlat va jamoat tashkilotlari rahbarlarini, ayniqsa, mamlakatlar Parij kelishuvi doirasida iqlim bo'yicha harakatlar majburiyatlarining navbatdagi bosqichini ishlab chiqishda o'tkazilgan so'rov natijasi ni e'tiborga olishga chaqiramiz.

**”**

Iqlim bo'yicha kuchli ta'sir ko'rsatish haqidagi keng tarqalgan fikrga qo'shimcha ravishda, so'rov shuni ko'rsatdiki, dunyo aholisining aksariyati – 72 foizi qazib olinadigan yoqilg'i manbalaridan tezroq voz kechish tarafdoi. Bu neft, ko'mir yoki gazning eng yirik ishlab chiqaruvchilari o'ntaligiga kiruvchi mamlakatlarga ham tegishli: Nigeriyada 89 foizdan AQSHda 54 foizgacha. Dunyo bo'yicha odamlarning atigi 7 foizi o'z mamlakatlari umuman energetika sohasida yangi energiya texnologiyalariga o'tmasligi kerakligini aytди.

Iqlim o'zgarishi haqida dunyo aholisining 56 foizi mun-tazam o'ylashini aytgan bo'lsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda bu ko'rsatkich 63 foizni tashkil etgan.

Dunyo bo'yicha odamlarning yarmidan ko'pi iqlim o'zgarishidan o'tgan yilga qaraganda ko'proq tashvishlanayotganini bildirgan. Bu ko'rsatkich rivojlanayotgan mamlakatlar aholisi orasida yuqoriq bo'lib, 59 foizni tashkil qiladi.

Iqlim o'zgarishi odamlarning qayerda yashash yoki ishslash kabi qarorlarni qabul qilishiga sezilarli darajada ta'sir qiladi, deydi so'rovda qatnashganlarning 69 foizi.

**Manba:** ecoportal.su

**2**

## GLOBAL ISISH REKORDI YANGILANDI



Buyuk Britaniyadagi Lids universiteti olimlari global isish tezligi bo'yicha rekord yangilanganini aniqladi.

Tadqiqot natijasi "Yer tizimi haqidagi fan ma'lumoti" jurnalida chop etilgan va qisqacha tavsiflangan.

Iqlimshunoslar hisobotiga ko'ra, 2014-2023 yillar oraliq'da so'nggi o'n yil ichida inson ta'siri bilan bog'liq isish sanoatdan oldingi darajadan 1,19 foiz oshgan. O'tgan yilgi hisobotda 2013-2022 yillari ayni ko'rsatkich Selsiy bo'yicha 1,14 daraja ko'tarilgani qayd etilgan.

2023 yil davomida inson omili sabab isish Selsiy bo'yicha 1,3 daraja kuchaygan. Bu holat, odatda, iqlimning tabiiy o'zgaruvchanligi, jumladan El-Nino ta'siri bilan bog'liq 1,43 darajalik umumiy isishdan pastroq.

Mutaxassislar ogohlantirishicha, Parij kelishuvi maqsadini anglatuvchi 1,5 daraja chegarasiga erishish uchun zarur uglerod byudjeti taxminan 200 gigatonani tashkil etadi. Bu atigi besh yillik joriy emissiyaga teng.

Iqlimshunoslar fikricha, issiqxona gazi emissiyasi ham yuqori. Ya'ni, yiliga taxminan 53 milliard tonna karbonat angidrid ajraladi. Oltingugurt chiqindisi kamayishi tufayli havo sifati yaxshilanadi, natijada aerozollarning sovutish ta'siri kamayadi.

**Manba:** Lenta.ru

3

### VENESUELA BARCHA MUZLIKARINI YO'QOTDI



Venesuela zamонавиъ тарихда о'зининг барча музліктаридан айрілган бірінчи давлат bo'ldi. XX аср бoshларida мamlакат hududida oltita muzlik bor edi.

Ushbu muzlklardan saqlanib qolgan oxirgisi La Korona nomi bilan ham tanilgan Gumboldt muzligi harakatsiz muz maydoni deb e'lon qilindi. Muzlik hajmi ikki gektarga qisqardi, bu esa uning deprekasiyaga uchrashiga olib keldi.

Tadqiqotchilar Venesueladagi muzliklar yo'q bo'lib ketishining asosiy sababi sifatida iqlim o'zgarishini ko'rsatmoqda. Mamlakat o'tgan asrdayoq kamida beshta boshqa muzlikni yo'qtgandi.

"Muzlik" tushunchasi glyasiologlar tomonidan o'z og'irligi ostida deformatsiyalanadigan muz massasi sifatida ta'riflanadi. AQSH Geologik xizmati muzlikni kamida 10 gektarga ega bo'lgan maydon sifatida belgilaydi.

2020-yilda o'tkazilgan tadqiqot Venesueladagi muzliklar maydoni 1952-yildan 2019-yilgacha bo'lgan davrda 98 foizga qisqarganini ko'rsatgan. Ularning chekinish darajasi 1998-yilda eng yuqori nuqtaga yetgan va 2016-yildan 2019-yilgacha yiliga deyarli 17 foizga ortgan.

Ekspertlarning ogohlantirishicha, muzliklarning tez yo'q bo'lib ketishi nafaqat iqlim, balki madaniy merosga ham ta'sir ko'rsatadi, shuningdek, dengiz sathining ko'tarilishiga olib keladi.

Venesuela hukumatining muzliklar yo'q bo'lib ketishi oldini olishga qaratilgan sa'y-harakatlari, jumladan, ularni termal choyshab bilan qoplash masalasi atrof-muhitni ifloslantirishi mumkinligi tufayli iqlimshunos olimlarning tanqidiga sabab bo'lgandi.

Ekspertlarning prognozlariga ko'ra, 2100-yilga borib dunyo muzliklarining 20% dan 80% gacha yo'q bo'lib ketishi insoniyat va ekotizim uchun jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

**Manba:** AccuWeather

4

### PIRENEY SILOVSINI YO'Q BO'LIB KETISHDAN SAQLAB QOLINDI



Olimlar yo'qolib ketish arafasida bo'lgan pirenney silovsinini saqlab qolishdi va natijada ularning populyatsiya soni allaqachon 2 mingdan oshdi. Bu haqda Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi (IUCN) xabar berdi.

Ma'lumotlarga ko'ra, bu hayvonning muhofaza qilinish maqomi yaxhilangan. Agar ilgari pirenney silovsini "yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan" toifaga kiritilgan bo'lsa, endi unga oddiy "zaif maqom" berilgan. Agar 2001-yilda katta yoshli silovsinlar soni atigi 62 tani tashkil etgan bo'lsa, bugungi kunda ushbu hayvonlarning umumiyligi soni, yosh va balog'atga yetgan silovsinlarni qo'shganda, 2 mingdan ortiq hisoblanadi.

Biroq, IUCN pirenney silovsinlari quyonlarning beqaror populyatsiyasi tufayli hamon xavf zonasida qolishini ta'kidlaydi. Boshqa tahdidlarga davom etayotgan brakonyerlik va avtomobil yollarida silovsinlarning halokatga uchrashi, shuningdek, iqlim muammolari sababli yashash joylarining o'zgarishi kiradi.

*"Pirenney silovsinlari populyatsiyasi saqlanib qolishini kafolatlash va bu turni butun yashash joyida qayta tiklash uchun hali ko'p ish qilish kerak. Kelajakda biz pirenney silovsinlарини Ispaniyaning markaziy va shimolidagi yangi yashash joylariga reintroduksiya qilishni rejalashtirmoqdamiz", deydi pirenney silovsinlari populyasiyasi tiklash loyihasi koordinatori Fransisko Xavyer Salsedo Ortis.*

Pirenney silovsini alohida kenja tur bo'lib, oddiy silovsindan birmuncha yorqinroq rangi va aniq dog'lari bilan ajralib turadi, bu esa uni leopardga o'xshatadi. Bu hayvon oddiy silovsining yarmiga teng, shuning uchun kichik jonzotlarni ovlashni afzal ko'radi.

**Manba:** Mir24.tv

# "EKOLOGIYA XABARNOMASI" – IJTIMOIY-IQTISODIY, ILMUY-AMALIY JURNALI MAQOLALARIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

"EKOLOGIYA XABARNOMASI" ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-amaliy jurnali tahririyati umumiy sharhdan va axborot shaklidagi ilmiy maqolalarni nashr uchun qabul qilmaydi. Tahririyatga taqdim etilayotgan qo'lyozma bo'yicha muallif ilmiytadqiqot ishi olib borayotgan tashkilot rahbariyatining yo'llanma xati, maqolani chop etish mumkinligi haqidagi ekspert xulosasi bo'lishi kerak.

**Maqolaning yozilish tili, tuzilishi va tarkibi.** Maqolalar o'zbek, rus va ingliz tillarida qabul qilinadi. Maqola keng omma uchun tushunarli tilda, grammatika qoidalariiga amal qilgan holda yozilgan bo'lishi kerak. Maqola o'zida muayyan ilmiytadqiqotning tugal yechimlarini yoki uning bosqichlarini ifodalashi zarur. Sarlavha maqolaning mazmuni to'g'risida axborot bera olishi, imkon qadar qisqa bo'lishi va umumiyo so'zlardan iborat bo'lib qolmasligi kerak. Odatda ilmiy maqolada quyidagilar bo'lishi kerak: universal o'nlik tasnifi (UDK), maqolaning sarlavhasi (uch tilda), annotatsiyasi (uch tilda), tayanch so'zlar (uch tilda), kirish, ko'rib chiqilayotgan muammoning hozirgi holatining tahlili va manbaalarga havolalar, masalaning qo'yilishi, yechish usuli, natijalar tahlili, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, muallif(lar) to'g'risida ma'lumot.

Maqolada odatda qabul qilingan atamalardan foydalanish, yangi atama kiritganda, albatta uni aniq asoslab berish kerak. Fizik kattaliklarning o'lchov birliglari Xalqaro o'lchamlar tizimi (SI)ga mos bo'lishi kerak. Maqolada muallif o'zining ishlariiga havolalar soni 20 foizdan oshmasligi kerak.

**Maqolaga qo'yiladigan texnik talablar.** Maqolaning sarlavhasi, muallif (lar) va u(lar)ning lavozimi, ilmiy darajasi va ish joyi, annotatsiya, tayanch so'zlar (uch tilda) bir ustunda yoziladi. Maqolaning qolgan matnlari ikki ustunda yoziladi. Maqola MS Word 2003–2010 matn muharririda yozilishi va quyidagi ko'rsatkichlarga muvofiq qat'iy rasmiylashtirilishi kerak: - A4 formatda, matn sahifasining barcha chekkalarida 2 sm dan joy qoldiriladi, Times New Roman shriftida, maqola uchun shrift hajmi - 12 pt (jadvallar bundan mustasno), jadvallar uchun shrift kattaligi - 10 pt, qator oralig'i - 1,15 interval, matn sahifa kengligi bo'yicha tekislanadi, xat boshi - 1 sm («Tab» yoki «Probel» tugmalaridan foydalanmasdan).

**Quyidagilarga ruxsat etilmaydi:** sahifalarni raqamlash, matnda sahfani avtomatik bo'lishdan foydalanish, matnda avtomatik havolalardan foydalanish, avtomatik bo'g'in ko'chirish, kamdan-kam hollarda ishlatiladigan yoki qisqartma harflarni qo'llash.

**Grafikli materiallar** (rangli rasmlar, chizmalar, diagrammalar, fotosuratlar) o'zida tadqiqotning umumlashtirilgan materiallarini ifodalashi kerak. Grafikli materiallar yuqori sifatli bo'lishi kerak, agar zarurat tug'ilsa, tahririyat ushbu materiallarni alohida faylda 300 dpi dan kam bo'lмаган o'lchamda jpg formatda taqdim etishni talab qilishi mumkin. Grafikli materialning nomi va tartib raqami pastki qismida keltirilishi zarur.

**Formularlar va matematik belgilar** MS Wordda o'rnatilgan formatli muharririda yoki MathType muharriri yordamida bajarilishi kerak.

**Annotatsiya (o'zbek, rus, ingliz tillarida)** – annotatsiya hajmi 100-250 ta so'zdan iborat bo'lishi va maqolaning tuzilishini qisqacha ifodalovchi, axborot shaklida berilishi kerak.

**Tayanch so'zlar (o'zbek, rus, ingliz tillarida)** – 8-10 ta so'z va iboralardan iborat bo'lishi kerak.

**Kirish.** Kirish qismida tadqiqotlarning dolzarbligi va ob'yekti tavsiflanadi. Mavjud ilmiy maqolalarning tahlili keltiriladi. Chop etilgan adabiyot manbalarida qo'yilgan ilmiy izlanishlarning ko'rsatilgan holda muallifning ilmiy ishlari yo'nalishi ko'rsatiladi.

**Muammoning yechimlari.** Bunda tanlangan usul bataysil tavsiflanadi. Olib borilgan tadqiqotlar, ular ichidan tanlab olingan optimal natijalar keltiriladi.

**Natijalar.** Natijalarni asosan jadvallar, grafiklar va boshqa ko'rinishida keltirilishi mumkin. Ushbu bo'lim olingan natijalarni tahlil qilish, ularni sharhlash, boshqa mualliflarning natijalari bilan solishtirishni o'z ichiga oladi. Natijalar tadqiqotning ob'yekti parametrlari o'rtasidagi munosabatlar mualliflar tomonidan belgilangan maqolaning asosiy ilmiy natijalarini umumlashtiruvchi, ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

**Xulosa.** Ilmiy tadqiqotlar doirasida olingan natijalar umumlashtiriladi, maqbul sharoitlari tanlanadi, ilmiy yangiligi keltiriladi va amaliyotda qo'llanishga tavsiyalar berilishi mumkin.

**Adabiyotlar.** Adabiyotlar ro'yxati 15 tadan kam bo'lмаган manbalardan iborat bo'lishi kerak, Adabiyotlar ro'yxatiga darsliklar, o'quv qo'llanmalarini kiritish mumkin emas. Barcha manbalarga matnda havolalar berilishi zarur.

**Muallif (lar) haqida ma'lumot:** familyasi, ismi, otasining ismi, lavozimi, ilmiy darajasi va ish joyi. Ushbu ma'lumotlar maqola taqdim etilgan o'zbek/rus tilida ham, ingliz tilida ham keltirilishi hamda maqolaning oxirida – adabiyotlar ro'yxatidan keyin joylashtirilishi kerak. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar ko'rib chiqishga qabul qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Maqolalarda keltirilgan ma'lumotlarning haqqoniyligiga muallif(lar) javobgardir.

**Murojaat uchun telefonlar:** +998 71 277-89-22; +998 71 277-69-83; +998 90 946-22-42



# EKOLOGIYA

XABARNOMASI | SINCE 1995

**Tahririyat manzili:** Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti ("Green University") huzuridagi Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti,  
100043, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Chilonzor tumani,  
Bunyodkor shoh ko'chasi, 7a-uy.



[www.ecoilm.uz](http://www.ecoilm.uz)



@ecoilm



eco\_nii@exat.uz